


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUHANDISLIK QURILISH INSTITUTI**



**«QURILISH MATERIALLARI, BUYUMLARI VA KONSTRUKSIYALARINI ISHLAB CHIQARISH»  
KAFEDRASI**

**ISSIQLIK TEXNIK USKUNALARI**

**FANIDAN**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi: 300 000 - Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lif sohasi: 340 000 - Arxitektura va qurilish

Ta'lif yo'nalishi 5340500 - Qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini ishlab chiqarish

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

«Tasdiqlayman»  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
\_\_\_\_\_ prof. M.Dadamirzayev  
«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2021 y.

**"ISSIQLIK TEXNIK USKUNALARI" FANINING**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi: 300000- Ishlab chiqarish-texnik soha**

**Ta`lim sohasi: 340000- Arxitektura va qurilish**

**Ta`lim yo'nalishi: 5340500- Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish**

Namangan 2021 y

“Issiqlik texnik uskunalar“ fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua OO'MTV ning 30.10.2020 yilda 648- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fanning namunaviy dasturi asosida tuzildi.

**Tuzuvchilar:**

B.Rizayev - NamMQI, “Qurilish materiallari, buyumlari va konstrusiyslsrini ishlab chiqarish» kafedrasini dotsenti.

**Taqrizchilar:**

A.Xolmirzayev - “Qurilish materiallari, buyumlari va konstrusiyslsrini ishlab chiqarish» kafedrasining professori.

Fanning ishchi o'quv dasturi Qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini ishlab chiqarish kafedrasining 2021 yil «\_28\_» iyundagi «14» -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ **PhD. I.Axmedov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy-uslubiy kengashida muhokamadan o'tgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

2021 yil «\_\_\_» \_\_\_\_ dagi «\_\_\_» -sonli bayonnomma

Reg.nomeri:\_\_\_\_\_

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i: \_\_\_\_\_ T. Jo'rayev

## MUNDARIJA

1. O'quv materiallari ( mavzu bo'yicha reja, tayanch so'z iboralar, asosiy matn, illyutsrativ materiallar, amaliy mashg'ulotlar, matn, topshiriqlar)
2. Mustaqil ta'lif mashg'ulotlari
3. Glossariy
4. Ilovalar
  - Fan dasturi
  - Fan ishchi dasturi
  - Baxolash mezoni
  - Qo'shimcha materiallar
  - Foydalaniladigan adabiyotlar

Qo'lingizdagи o'quv-uslubiy majmua "Issiqlik texnik uskunaları" fanini o'rganish jarayonida sizning mustaqil ishлаshingizni tashkil etishga mo'ljallangan.

Majmua ikki qismdan iborat: "O'quv predmetiga kirish" va "Reja-topshiriqlar va o'quv - uslubiy materiallar"

Birinchi bo'lim o'quv kursi bo'yicha dastlabki tushuncha beruvchi materiallar: o'quv kursining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, fan bo'yicha zarur bo'lgan bilim darajasining Davlat ta'lim standartlari talablari, mavzu va mashg'ulot turlari bo'yicha o'quv soatlarining taqsimlanishi, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ishlar mavzulari, hamda bilimni yakuniy nazorat qilish savolaridan iborat.

Ikkinci bo'limda har bir mashg'ulot uchun reja-topshiriq va o'quv materiallari berilgan. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish o'quv predmeti bo'yicha yuqori darajada bilimga ega bo'lishni va doimo o'z-o'zini nazorat qilib borishni ta'minlaydi.

Har bir fan kabi "Issiqlik texnikasi uskunaları" fanini o'rganishda mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlash talab etiladi. Shuning uchun mavzuni chuqur o'rgangandan so'ng yangi mavzuga o'tish mumkin bo'ladi.

## **1-ma'ruza: Fanning mazmuni va rivojlanishi. Issiqlik texnik uskunalarini ishlab chiqarishdagi o'rni. Fanning predmet iva ob'ekti. Fanning maqsad vavazifalari**

### **Reja:**

1. Issiqlik texnikasi fanining kiskacha tarixi
2. Issiklik texnikasi va texnik jixozlar fani.
3. Fanning axamiyati va kurilish materiallari ishlab chikarishda tutgan urni.

Issiqlik texnikasi fani issiqning olinishi va undan foydalanishni o'rgatadi. Issiqlikdan foydalanishning ikki xil turi mavjud. Ya'ni: Energetika va texnologiya uchun. Energetik issiqlikdan mexanikaviy ish bajarish uchun foydalaniladi. Bu jarayonlarni texnikaviy termodinamika fani o'rganadi. Issiqlikni ishga aylantiruvchi energetik qurilmalarga issiqlik dvigatellari deb ataladi.

Issiqlikning texnologik jarayonlarda foydalanishga texnologik foydalanish kiradi. Bularga texnologik jarayonlar uchun issiqlikdan foydalanish, turli xil pechlar, su-

shilkalar, kaloriferlar, isituvchi uskunalar aytish mumkin.

Issiklik texnikasining uzok tarixi bu shark olimlari, eramizgacha bo'lган олимлар- ning ilmiy fikrlari va ishlarini aytish mumkin. Fan texnika taraqqiyotining rivojla- nish va amalda tadbigi talablar sababli fan sifatida asoslanishga Yevropa олимлари va ayniqsa rus олими M.V. Lomonosovning xizmatlari buyukdir. 1740-1750 yillarda e'lon qilingan ilmiy ishlar izlanishlari natijalari issiklik texnikasi fanining asos soli- nishiga sabab buldi. XVIII va XIX asrlarga kelib Yevropa va Amerika mamlakatlari oimla- rining ilmiy izlanishi natijalari issiqlik texnikasi fanining rivojlanishiga olib keldi.

Issiklik texnikasi fanining rivojlanishi natijasida binolarni markazlashgan issiqlik ta'minoti orqali isitish tizimlari ixtiro qilindi. Suv bilan isitiluvchi isi- tish issitemalari Rossiyada 1834 yilda muxandis P.G. Sobolevskiy tomonidan taklif qylindi. X1X-asrdan boshlab esa binolarni isitish, ayniqsa, yirik binolarni, saroylar- ni, tomoshobin komplekslarini isitishda foydalaniladi. XX- asr boshlarida issiqlik ta'minoti fani paydo buldi. 1903 yilda prof. V.M. Chaplin bug suv bilan isitiluvchi isi- tish tizimini ishlab chiqdi. 1925 yilda prof. V.D. Machinskiy «Grajdan kurilishi binola- rida issiklik texnikasi» kitobini chop etib, kurilish issiqlik texnikasiga asos soldi. Keyingi paytlarda bu fanning rivojlanishga mamlakatimiz va MDX mamlakatlarining bir qator olimlari bir qator ilmiy izlanishlari orqali katta hissa qo'shmoqda.

«Kurilish materiallari ishlab chikarishda issiklik texnikasi va texnik jixozlar» fani oliy ukuv yurtlarining Kurilish yunalishi buyicha «Kurilish ishlab chikarish texno- logiyasi» mutaxassisligi uchun muljallangandir. Bu fan yukorida kursatilgan mutaxassis- lik buyicha bakalavrular tayyorlash dasturiga muvofik yozilgan bulib,

xajmi 34 soat ma'ruza, 10 soat labaratoriya va 8 soat amaliy mashgulotlarga muljallangan.

Kurilish materiallari va buyumlari ishlab chikarish texnologiyasida «Issiklik texnikasi va texnik jixozlar» fani muxim axamiyatga egadir.

Bu fan issiklik bilan boglik bulgan barcha jarayonlarni, issiklik beruvchi tabiiy va sun'iy issiklik manbalari, issiklik dinamikasi, issiklik natijasida bajariladigan barcha turdag'i ishlarni moxiyatini ochib beradi.

Fan asosan ikkita katta bulimdan iborat:

1-bulim issiklik xarakatini, ideal gazlarda issiklik xolatini, suv bugini, ichki va tashki issik va massa almashinuvini, yokilgi turlari va ularning yonishida kechadigan jara-yonlarni urgatadi.

2-bulim issiklik beradigan uskunalar, jixozlar va kurilmalarni tuzilishi, ishlash printsiplari bilan tanishtiradi. Bu jixozlar turli xil markalardagi kuritish uskunala-ri, pishirish xumdonlari, bug kozonlari, avtoklav va boshka jixozlar kiradi.

Issikdan insoniyat juda kadim zamonlardan foydalanib kelayotganbulmsada, uning fizik va texnologik xossalari, issiklikning mexanikada va elektr ta'minotidagi ishla-tish 18 asrdan boshlandi.

Issiklikdan kurilish materiallari va buyumlari ishlab chikarshda foydalanish juda kadim zamonlardan beri ma'lum. Masalan, loyni xumdonlarda pishirib loydan turli xil kurilish buyumlari tayyorlangan, tabiiy tosh materiallaridan gips toshi va oxak toshi pi-shirib ulardan boglovchi moddalar olishni bilganlar.

Utgan asrda gidravlik boglovchi modda-portlandsement kashf etilishi va bu boglovchi moddalar asosida turli xil maksadlarga ishlatiladigan betonlarni paydo bulishi xamda oxak-kumli boglovchilarni topilishi, issiklikning bir turi bulib xisoblangan nam is-siklik ta'sirida yuqorida kursatib utilgan boglovchi moddalarga va betonlarga ishlov be-rish uchun issiklik jixozlarning paydo bulishga olib keladi.

### **Fanni urganishdagi tayanch suzлari:**

Issiklik texnikasi, texnik jixozlar, issiklik manbai, issiklik dinamikasi, xaro-rat, issiklik va ish, kinetika, issiklik sigimi, issiklik utkazuvchanlik, issiklik yutuvchanlik, entropiya, izoxor, izobar, izotermik, adiabat, suv bugi, nam xavo, issik ishlov be-rish, issik almashinuvi, massa almashinuvi, gidrodinamika, aerodinamika, yokilgi, yonishi jarayoni, issiklik generatorlari, kuritish suspenziya, material balans, diagramma, pishi-rish jarayoni, tunulli xumdon, aylanma, shaxtali xumdon, kirishish deformatsiya, namli issik ishlov berish, buglash chuqurlari, buglash kassetalari, avtoklav.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ruyxati**

- 1 Peregulov V.V., Rogovoy M.M. Teplovyе protsessы i ustavokи v texnologii stroitel'stykh izdeliy i detaley. Uchebnik dlya VUZov. M.: Stroyizdat, 1983-416 str.
- 2 Nikiforova N.M. Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie predpriyatiy predpriyatiy promышlennosti stroiteльnykh materialov i izdeliy. M.: Vysshaya shkola, 1981-271 str.

- 3 Peregudov V.V. Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie. Uchebnik dlya texniku- mov. M.: Stroyizdat, 1990-336 str.
- 4 Eremin N.F. Protsessy i apparaty v tekhnologii stroitel'nyx materialov. Uchebnik dlya VUZov. M. Vysshaya shkola, 1986-250 str.
- 5 Rogovoy M.M. Kondakova M.I. , Saganovskiy M.N. Raschety i zadachi po teplotexnicheskому oborudovaniyu predpriyatij promyshlennosti stroitel'nyx materialov. M.: Stroyizdat 1978-360 str.
- 6 Nikiforova N.M. Osnovy proektirovaniye teplovых ustavok pri proizvodstve stroitel'nyx materialov. Ucheb. posobie M. Vysshaya shkola, 1794

## **2-ma'ruza: Ishlab chiqarish korxonalarida qurilish materiallariga issiqlik va namlik ishlov berish xolati.**

**Reja:**

1. Issiklik tugrisida umumiy tushuncha
2. Issiklik uzatish turlari
3. Issiklik bajargan ish
4. Issiklik dinamikaning birinchi va ikkinchi konuni

Issiklik jismlardagi molekulalarning ilgarilanma xarakati natijasida paydo bulgan kinetik energiya bilan ulchanadi. molekulalarning ilgarilanma xarakati kancha tez bulsa issiklik xam shuncha yukori buladi. Issiklik xaroratini ulhash turli xil ulchov asbobalarida amalga oshiriladi.

Issiklikni barcha xossalari issiklik texnikasi fanida chukur urganiladi. Issiklik texnikasida issiklikdan foydalanish ikki yunalishda foydalaniлади: energetik va texnologik. Energetik yunalishda issiklikni mexanik ishda aylantirish nazarda tutilsa, texnologik yunalishda jismlarni turli xil xossalariни uzgartirish nazarda tutiladi.

Issiklik uzatish turlari 3 xil elementar kurilishdagi issiklik almashinuvidan iboratdir: issiklik utkazuvchanlik, konvertsiya va nurlanish.

Issiklik utkazuvchanlik asosan kattik jismlarga xos bulib bir zarrachaning ikkinchi zarrachaga uzatishni tushunamiz.

Issiqlik jismlardagi molekulalarning ilgarilanma harakati natijasida paydo bo'lgan kinetik energiya bilan o'lchanadi. molekulalarning ilgarilanma harakati qancha tez bo'lsa issiqlik ham shuncha yuqori bo'ladi. Issiqlik haroratini o'lhash turli xil o'lchov asbobalarida amalga oshiriladi.

Issiqlikni barcha xossalari issiqlik texnikasi fanida chuqr o'rganiladi. Issiqlik texnikasida issiqlikdan foydalanish ikki yo'naliшda foydalaniлади: energetik va texnologik. Energetik yo'naliшda issiqlikni mexanik ishda aylantirish nazarda tutilsa, texnologik yo'naliшda jismlarni turli xil xossalariни o'zgartirish nazarda tutiladi.

Issiqlik uzatish turlari 3 xil elementar qurilishdagi issiqlik almashinuvidan iboratdir: issiqlik o'tkazuvchanlik, konvertsiya va nurlanish.

Issiqlik o'tkazuvchanlik asosan qattiq jismlarga xos bo'lib bir zarrachaning ikkinchi zarrachaga uzatishni tushunamiz.

Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan xarakterlanadi va quyidagi formula bo'yicha ifodalanadi.

$$\lambda = \frac{Q \cdot a}{(t_1 - t_2) \cdot F}; \quad \frac{Vt}{m^2 \cdot {}^\circ S},$$

b a - to'siq qaliligi;

u  $t_1$  va  $t_2$  - to'siq yuzalarida  
y haroratlar  $^0S$ ; F - to'siqning  
e yuzasi,  $m^2$ .

r Konvektiv ko'rinishdagi issiqlikning ko'chishi suyuqlik va gazlarga xos  
d bo'lib, zarra- larning siljishidan hosil bo'ladi. Konvektsiya tufayli qattiq jism  
a yuzasi bilan gaz yoki suyuqlik o'tayotgan yuza o'rtasida issiqlik almashinuvi  
: sodir bo'ladi.

Q Konvektiv issiqlik almashinuvi quyidagicha ifodalaniladi:

$$- Q_c = \alpha_k(t_1 - t_2) \cdot F,$$

i  
s bu yerda:

s  $\alpha_k$  - konvektiv issiqlik almashinuv  
q koeffitsienti;  $t_1$  - qattiq jism yuza  
l harorati,  $^0S$ ;

i  $t_2$  - gaz (suyuqlik ) harorati,  $^0S$ ; radi.  
k

m F - qattiq jism yuzasi,  $m^2$ .

### i **GAZ holatining termodinamik parametrlari.**

q GAZ holatining termodinamik parametrlariga harorat, solishtirma hajm, bosim ki-

o  
r

j Harorat yuqorida eslatib o'tilgandek jism molekulاسining kinetik energiyasini bel-  
gilovchi kattalikdir. Bir xil haroratda gaz molekulalarining harakati turlicha bo'ladi.  
SHuning uchun o'rtacha kinetik energiyani oluvchi harorat «absolyut harorat»  
tushunchasi kiri- tilgan. Absolyut harorat va ideal gaz kinetik energiyasi quyidagi  
munosabat bilan ifoda- lanadi.

$$\frac{mv^2}{2} = kT ,$$

2

$$mv^2$$

bu — molekula ilgarilanma harakatining o'rtacha kinetik energiyasi;  
yerda: 2

$k$  - proporsionallik koeffitsienti;

$T$  - absolyut harorat  $T = t^\circ + 273,15$ .

Solishtirma hajm 1 kg gaz massasining egallagan hajmi tushuniladi, ya'ni

$$v = \frac{V}{m}; \text{ m}^3/\text{kg}.$$

$m$

Solishtirma hajmga teskari bo'lgan kattalik ***zichlik*** deyiladi va bilan belgilanib quyidagicha ifodalanadi.

$$\rho = \frac{m}{V}; \text{ kg/m}^3.$$

$V$


Gazni bosimi deganda idishga solingan gaz molekulalarning idish devorlariga bergen o'rtacha zarba natijalari tushuniladi. Fizika kursidan ma'lumki gazning bosimi son jihatdan molekula harakati kinetik energiyasining  $2/3$  qismiga teng, ya'ni

$$p = \frac{2}{3} n \frac{mv^2}{2},$$

bu yerda:  $n$  - hajm birligidan gazning molekulyar miqdorim - molekula massasi;

$v$  - molekula harakatining o'rtacha tezligi.  
**Gazni kengayishida bajarilgan ishlari.**

Gazni kengayishida bajargan ishni oddiy tsilindr va tsilindrga joylash tirilgan



por-shenъ harakati orqali bilishi mumkin.

R- diagramma 1-tsilindr, 2- porsheni, 3 - issiqlik manbai.

Dastlabki holatda, ya'ni issiqlik manbai va tsilindrdagi gaz haroratlari ayirmasi cheksiz kichik bo'lganda tsilindrdagi gazning kengayishi yoki siqilishi cheksiz kichik bo'ladi. Boshqacha aytganda gaz muvozanat holatda turadi. Bunday holatda porshenga qo'yilgan kuch  $F = p_1 \cdot A$ . Issiqlik manbaidagi harorat oshirilsa bu muvozanat yo'qoladi ya'ni  $p_1 \cdot A > F$  bo'ladi. Buning natijasida porsheni o'ng tomonga qarab harakat qiladi, bosim  $p_1$  dan  $p_2$  gacha kamayadi

va solishtirma hajm  $V_1$  dan  $V_2$  ga oshadi  $\Delta l$  elementar uchaskada bajarilgan elementar ish  $\Delta W$

$= p \cdot A \cdot \Delta l$  bo'ladi.  $A$  -  $\Delta l = v$  ekanligini hisobga olsak bajarilgan ish diagrammasidan abcd

elementar to'g'ri burchak yuzasiga teng bo'ladi. Gazni to'la  
 $v_2$   
bajargan ishibilan ifodalanadi.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Issiklik uzatish turlari necha xil va ularni bir-biridan farki?
2. Ideal va real gazlarni bir-biridan farki nima?
3. Gazni termodinamik parametrlerini tushuntiring?
4. Gazni bajargan ishi nimalarga boglik?

### **3ma'ruza: Har xil sharoit va haroratlarda material tarkibidagi fizik-kimyoviy o'zgarishlar. Quritish va pishirish jarayonlari**

#### **Reja:**

1. Ideal gaz qonunlari
2. Gaz aralashmasi.

XVII - XIX asrlarda atmosfera bosimiga yaqin bosimlarda gazlar o'zini qanday tutishini tekshirgan tadqiqotchilar emperik yo'l bilan bir qancha muhim qonuniyatlarni ochdi- lar.

**Boyl-Mariott** qonuni: o'zgarmas temperaturada gazning berilgan massasi uchun absolyut bosimning hajmga ko'paytmasi o'zgarmas kattalikdir.

$$rV = \text{const.} \quad (1)$$

**SHarль qonuni:** hajm va massa o'zgarmas bo'lganda gaz bosimi absolyut temperatura- larning o'zgarishiga to'g'ri proportsional ravishda o'zgaradi.

$$\frac{p_1}{p_2} = \frac{T_1}{T_2}. \quad (2)$$

Bu bog'lanishni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$r = r_0 (1 + \alpha \cdot t), \quad (3)$$

bu yerda  $p$  - gazning  $0^{\circ}\text{C}$  temperaturadagi bosimi,  $\alpha$  - gazning hajmi kengayishining temperaturaviy koeffitsienti. Bosim yetarlicha kichik bo'lganda, turli gazlar bir xil hajmi kengayish temperaturaviy koeffitsientiga ega bo'ladi. Bu koeffitsient taxminan

$$\alpha = 1/273 = 0,00366^{\circ}\text{C} - 1 \text{ ga teng.}$$

**Gey -Lyussak qonuni:** bosim va massa o'zgarmas bo'lganda gaz hajmi absolyut tempera- turalarning o'zgarishiga to'g'ri proportsional ravishda o'zgaradi:

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{T_1}{T_2} \quad (4)$$

yoki

$$V = V_0 (1 + \alpha \cdot t), \quad (5)$$

bu yerda  $V_0$  va  $V$  - gazning tegishlicha  $0$  va  $t^{\circ}\text{C}$  temperaturalardagi hajmi.

Bu qonunlardan foydalanib, ideal gazniig holat tenglamasini chiqarish mumkin: Massasi  $1 \text{ kg}$  ga teng bo'lgan biror gaz  $p_1$   $V_1$  va  $T_1$  bilan tavsiflanadigan holatdan  $p_2$ ,

$V_2$  va  $T_2$  bilan tavsiflanadigan boshqa holatga o'tadi deb faraz qilaylik. Bu o'zgarish dastlab oralik hajm  $V_1$  gacha o'zgarmas temperatura  $T_1$  da, so'ngra esa oxirgi hajm  $V_2$  gacha o'zgarmas bosim  $r_2$  sodir bo'lsin.

Boylъ - Mariott qonuniga ko'ra T=sonst

$$\text{bo'lganda: } p_1 \cdot V_1 = p_2 \cdot V^1$$

yoki

$$V^1 = V_1 \cdot p_1 / p_2$$

Gey Lyussak qonuniga ko'ra  $p=const$  bo'lganda

Topilgan ifodalarni  $V_1$  uchun taqqoslasak, quyidagini olamiz:

$$\frac{p_1 V_1}{p_2} = \frac{V_2 T_1}{T_2}$$

Bu tenglamani o'zgartirib shunday yozish mumkin:

$$\frac{p_1 V_1}{T_1} = \frac{p_2 V_2}{T_2} = \text{const} \quad \text{yoki} \quad \frac{pV}{T} = \text{const} \quad (6)$$

ya'ni gazning absolyut bosimi bilan hajmi ko'paytmasining absolyut temperaturaga nisbati o'zgarmaydi. 1 kg gaz uchun bu o'zgarmas kattalik gaz doimiysi deyiladi va R harfi bilan belgilanadi.

$$\frac{pV}{T} = R \quad \text{yoki} \quad p \cdot V = RT \quad (7)$$

Bu tenglama ideal gazning holat tenglamasi deyiladi. Bu tenglama ko'pincha uni taklif etgan olimning nomi bilan Klapeyron tenglamasi deyiladi.

Gaz doimiysining o'lchamligi quyidagicha bo'ladi. Binobarin, gaz doimiysi R, 1 kg gazning  $1^\circ$  ga isitilganda bajargan kengayish solishtirma ishidir. m kg gaz uchun holat tenglamasi quyidagicha:

$$pV = mRT \quad (8)$$

### **1 mol gaz uchun holat tenglamasi.**

Gaz holati tenglamasining uchinchi shakli bir mol gaz uchun yoziladi. SHuni eslatib o'tamizki, gazning molekulyar og'irligiga son jihatdan teng bo'lgan kilogrammlar miqdori mol, boshqacha aytganda kilogramm-molekula deyiladi yoki kilomol deb aytiladi. Masalan kislorod ( $O_2$ ) kilomol 32 kg ga, karbonat angidrid ( $CO_2$ ) kilomoli 44 kg ga teng va hokazo.

Avagadro qonuniga ko'ra bir xil temperatura va bosimdagи turli gazlarning teng hajmlarida molekulalar soni bir xil bo'ladi.

Bu ta'rifga asoslanib, bir xil temperatura va bosimlarda olingan turli gaz mollaringin hajmi o'zaro teng deb xulosa chiqarish mumkin.

Agar  $V$  - gazning solishtirma hajmi,  $\mu$  - gazning molekulyar massasi bo'lsa, u holda mol-lyar hajmi  $\mu \cdot V$  ga teng. Ideal gazlar uchun:

$$\mu \cdot V = \text{const.} \quad (9)$$

Avagadro soni ( $N_m$ ) eksperimental yo'l bilan aniqlangan  $N_m = 6,022119 \cdot 10^{26} \text{ kmol}^{-1}$  Normal sharoitlarda ( $r=760 \text{ mm sim. ust.}$  va  $t=0^\circ\text{C}$ )

$$\mu \cdot V = 22,4 \text{ m}^3/\text{kmol} \quad (10)$$

$$R = \frac{pV}{T} = \frac{101325}{273.15} V = 371 \cdot V \quad (11)$$

Solishtirma hajm qiymatini (10) tenglamadan olib (11) tenglamaga qo'yganimizdanso'ng quyidagiga ega bo'lamiz:

$$R = \frac{8314}{\mu} \quad (12)$$

$$pV = \frac{8314}{\mu} T \quad (13)$$

$$p \cdot \mu \cdot V = 8314 \cdot T \quad (14)$$

$$\mu \cdot V = V \cdot \mu \quad (15)$$

$$p \cdot V \cdot \mu = R_0 T$$

$$R_0 = \mu \cdot R \quad (16)$$

(16) tenglama bitta kilomolъ uchun ideal gazning holat tenglamasi dsb aytildi.  
 $\mu \cdot R = R_0 = 8314 \text{ J/kmol}\cdot\text{K}$  - universal gaz konstantasi deb aytildi.

(16) tenglama Klapeyron - Mendeleev tenglamasi deyiladi.

### Gazlar aralashmasi

Ish jismi ko'pincha bir necha gazlarning aralashmasidan iborat bo'ladi. Masalan, ichki yonuv dvigatellarida tarkibiga vodorod, kislorod, uglerod (II) - oksid, azot, karbonat an- gidrid va suv bug'lari kiradigan yonish mahsulotlari ish jismi hisoblanadi.

Gazlar aralashmasining barcha tarkibiy qismlari bir xil temperatura va bir xil hajmga ega, deb faraz qilaylik. Agar gazlar aralashmasi tarkibiga kiruvchi har qaysi komponent, barcha aralashma kabi, ideal gazning holat tenglamasiga bo'ysunadi deb hisoblasak, aralashmadagi ayrim komponentlarning bosimlari Dalton qonuniga bo'ysunadn: bu qonunga ko'ra gazlar aralashmasining bosimi ayrim komponentlar partsial bosimlarining yigindi- siga teng.

$$p = p_1 + p_2 + \dots + p_n \quad (17)$$

$$\text{ya'ni } p = \sum_{i=1}^n r_i,$$

bunda  $p_1 p_2 \dots p_n$  - aralashma komponentlarining partsial bosimlari.

Gazlar aralashmasidagi biror komponent aralashma temperaturasida bo'lib, bir o'zi shu aralashma egallagal hajmni to'ldirganda ko'rsatayotgan bosim ayni komponentning partsial bosimi deyiladi. Dalton qonuni ideal gazlar uchungina to'g'ri keladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Fannint maqsadi va vazifasi nimadan iborat?
2. Ishchi jismning parametrlarini aytib bering?
3. Termodiamik muvozanat nima?
4. Ideal gaz qonutnlarini ta'riflab bering?
5. Mendeleev - Klayperontenglamasi.
6. Universal gaz doimiysining mohiyati nimadan iborat?
7. Dalton qonunini ta'riflang.
8. Partsial bosim nima?
9. Aralashmaning gaz doimiysi qanday aniqlanadi?
10. Real gazlarning ideal gazlardan farqi nimada?

**4-ma'ruza:**Suv bug'i. Suv bug'i ishlab chiqarishdagi turli sohalarda issiqlik tashuvchi  
Vander-Val's ifodasi.

**Reja:**

1. Suv bugi xaqida asosiy tushunchalar
2. Suv bugi nima va uni xosil bulishidagi jarayon
3. Bug xosil bulishida  $T_s$  va  $\Delta s$  diagrammalari
4. Nam xavo tugrisida tushuncha
5. Nam xavoning hd - diagrammasi

Suv bug'i zamonaviy issiqlik energetikasining asosiy ish jismidir. Undan ko'pchiliktexnologik jarayonlarda ham foydalilanadi. SHuning uchun ham suv va suv bug'inining termo- dinamikaviy xossalarni tekshirish katta ahamiyatga ega.

Jismni suyuq holatidan gaz holatita o'tish jarayoni bug' hosil bo'lish deb aytildi. Suyuqlikning faqat erkin sirtidan va har qanday temperaturada bug' hosil bo'lish jarayoni-ga bug'lanish deyiladi.

Bug'lanishning mohiyati shundan iboratki, suyuqlik sirtidagi tezligi yuqori, ya'ni ki- netik energiyasi katta bo'lган molekulalar qo'shni molekulalarning tortishish kuchlarini yengib suyuqlikdan atrof muhitga uchib chiqadilar.

Bug'lanish suyuqlikning tabiatiga va temperaturasiga bog'liqdir. Temperatura ko'tarilishi bilan bug'lanish tezligi ortadi. Bug'lanish jarayonida suyuqlikning temperatu- rasi kamayadi, chunki suyuqlikdan tezligi yuqori bo'lган molekulalarning uchib chiqishi tu- fayli qolgan molekulalarning o'rtacha energiyasi pasayadi.

Suyuqlikka issiqlik uzatilganda uning temperaturasi ko'tarilib bug'lanish jadalla- shadi. Suyuqlikning tabiatiga va bosimiga mos temperaturada bug'lanish suyuqlikning butuhajmi bo'yicha ro'y beradi.

Natijada jadal ravshida bug' pufakchalari idish devorlariga hamda suyuqlik hajmida paydo bo'ladi va kattalashib suyuqlik sirtiga qalqib chiqib yoriladi. Bunday hodisa qaynash deyiladi. Qaynash suyuqlik sirtidagi bosimga bog'liq, ya'ni bosim ortsas, qaynash tempera- turasi ham ortadi va aksincha.

Jismni gaz holatidan suyuq holatga o'tishi kondensatsiya deb aytildi. Kondensatsiya jarayoni bug' hosil bo'lishi kabi o'zgarmas temperaturada ro'y beradi. Bug'ning kondensatsiya- lanishi natijasida hosil bo'lган suyuqlikka kondensat deyiladi.

Qattiq jismni birdaniga bug' holatga o'tish sublimatsiya deyiladi. Bug'ning qattiq holatga o'tishi esa desublimatsiya deyiladi.

Suyuqlik sirtidan qancha molekula uchib chiqib gaz holatiga o'tsa va xuddi shuncha mole- kula kondensatsiyalanib suyuqlik holatiga qaytsa, bunday xodisa tuyinish holati deb qabul qilingan, ya'ni bug' suv bilan muvozanatda bo'ladi. Suyuqlik bilan dinamik muvozanatdagi bug' tuyingan bug' deyiladi. Suyuqlikning

erkin sirti ustidagi bo'shliqni tuyintiradigan bug'ga nam bug' deyiladi. Tuyingan nam bug'da mayda suv tomchilari bo'ladi. Hosil qilingan nam bug'ga yana qo'shimcha issiqlik miqdori uzatilsa, uning tarkibidagi juda mayda suv tom-chilari bug' holatiga o'tadi va to'ingan quruq bug' hosil bo'ladi.

Nam bug'dagi quruq tuyingan bug'ning massaviy ulushiga bug'ning quruqlig darajasi deyiladi va x harfi bilan belgilanadi. Nam bug'dagi suyuqlikning massaviy ulushiga na- mlik darajasi deyiladi va u harfi bilan belgilanadi va  $u=1-x$  bo'lishi tabiiy.

Tuyinish temperaturasidagi qaynayotgan suyuqlik uchun  $x=0$ , quruq tuyingan bug' uchun esa  $x=1$ .

Demak, quruqlik darajasi 0 dan 1 gacha o'zgarishi mumkin. Tuyingan quruq bug'ga o'zgarmas bosimda yana ko'shimcha issiqlik miqdori uzatilsa, u holda uning temperaturasi ko'tariladi va u o'ta qizdirilgan bug' holatiga o'tadi.

O'ta qizdirilgan bug'ning temperaturasi va solishtirma hajmi shu bosimdag quruq tuyingan bug'nikidan yuqori bo'ladi. O'ta qizdirilgan bug'ni suyuqlik sirtida olib bo'lmaydi. O'ta qizdirilgan bug' va quruq tuyingan bug'ning shu bosimdag temperaturalar farqiga qizdirish darajasi deb aytildi.

O'ta qizdirilgan bug' tuyinmagan bo'ladi, chunki uning shu bosimdag solishtirma hajmi quruq tuyingan bug'nikidan yuqori, zichligi esa kam bo'ladi.

O'ta qizigan bug' o'zining fizikaviy xossalari bo'yicha gazlarga yaqinlashadi.


Suvni biror idishga solib uni qizdirsak suvni asta sekin isishi natijasida suv bug'lana boshlaydi va suvni harorati oshib boraveradi, ammo haroratni oshishi ma'lum miqdorda yetkandan keyin to'xtaydi. Normal sharoitda, ya'ni bosim 0,01013 MPa bo'lganda suvni harorati  $373^{\circ}\text{K}$  bo'ladi. Bu haroratda suvni holati o'zgarib bug' holatga o'tadi va bu harorat qaynash harorati  $T_k$  deb ataladi. Bosim o'zgarishi bilan qaynash harorat ham o'zgarib turadi.

Agarda suvni o'zgarmas bosim  $p=\text{const}$  holatda isitishni davom ettiraversak suv gaz holatdagi suv bug'iga aylanadi. Bunda suvni harorati o'zgarmasligicha turadi, hajmi esa oshib boraveradi. Issitishni davom ettiraversak suvni barchasi suv bug'i hosil bo'lishi davridagi haroratdan oshmagan holda bug'ga aylanadi. Bu bug' hajmni to'ldiradi va tuyingan suv bug'i deb yuritiladi. Tuyingan suv bug'inining harorati suvni qaynash haroratiga teng bo'ladi, ya'ni  $T_t=T_k$

Aytaylik, bir hissa suvning  $X$  kg bug'ga aylangan bulsin u holda uning  $X$  kg tuyingan bug'dan va  $I-X$  kg esa qaynoq suvdan iborat bo'ladi. Bu aralashma esa *nam tuyingan bug'* deb ataladi. Kaynok suvning barchasini bug'ga aylanish holati esa *quruq tuyingan bug'* deb atala-di.

Agarda  $p=\text{const}$  holatda quruq tuyingan bug'ga yana issiqlik berishni davom ettirsak, uning harorati va solishtirma hajmi ortib boradi. Bunday holatda hosil bo'lgan suv bug'i o'ta qizdirilgan bug' deb ataladi va  $T_{o'q}$  bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan misoldagi jarayonni davom ettirib 1 kg suvni  $273^0\text{K}$  bosim so- lishtirma hajm  $V_0$  deb tsilindrda harakatchan porshenъ bor deb  $T_s$  diagrammasini quramiz.



Suvni boshlang'ich holatida ya'ni  $i^1=0$  da  $S_0^{1}=0$  bo'ladi va egri chiziqning boshlanish ko- ordinatasi ( $273^0\text{K}, 0$ ) ya'ni 1 nuqtada bo'ladi.


$p=\text{const}$  holatda suvni isitish jarayoni qaynash harorati  $T_k$  gacha boradi va bu diagram- ma 1-2 oraliq bilan ifodalanadi. 2 nuqta  $R_0$  da qaynash harorati  $T_k$  ga mos keladi. Keyingi isitish esa bug' hosil bo'lish jarayonini belgilaydi va o'zgarmas izotermik jarayondan ibo- rat bo'lib, diagrammada 2-3 to'g'ri chiziq bilan ifodalanadi. Bu holda berilgan barcha issiqlik bug' hosil bo'lishiga sarf etiladi. 3 nuqtada eng so'ngi tomchi kaynok suv ham bug'ga aylanib quruq tuyingan bug' holatiga utadi. 3-4 egri chiziq keyingi isitish jarayonini ko'rsatib, o'ta qizdirilgan bug' haroratigacha boradi.

$T_s$  diagrammadagi 1-2-3-4 egri chiziqlar ostida yuzalar suvni isitishga sarflangan issiqlik miqdorini ifodalaydi. 1-2 egri chiziq tagidagi yuza suyuqlikga (suvga) berilgan issiqlik  $q^1$  ni ifodalaydi, 2-3 izotermik to'g'ri chiziq tagidagi yuza bug' hosil bo'lishiga sarflangan issiqlik  $r$  ni ifodalaydi, 3-4 egri chiziq tagidagi yuza esa bug'ni o'ta qizdirishga sarflanayotgan issiqlik  $q_{o'q}$  ni ifodalaydi.

Bug' hosil bo'lish jarayonini  $p_1 > p_2$  va  $p_1 = \text{const}$  holatda kurib chiqaylik. Bunda suvni isib qaynash harorati 2 nuqtada emas balki  $2^1$  nuqtada amalga oshadi, chunki suvni qaynash harorati oshadi. Bu holatga bug' hosil bo'lishiga sarflanayotgan issiqlik harorat oshishi hisobiga kamayadi.

K nuqtaga yetganda 2-3 izoterma yo'qoladi va bu K nuqta *kritik* nuqta deb ataladi. Bu nuqtaga qaynayotgan suv darhol quruq bug'ga aylanadi.

Suv bug'inining xossalari tekshirishda  $i_s$  diagrammasi juda muhim rolъ uynaydi. Uning  $T_s$  diagrammasidan farqi shuki, uning holatini ifodalovchi o'lchamlari: qaynatishgacha sarf bo'lgan issiqlik  $q^1$ , bug' hosil bo'lishiga sarf bo'lgan  $r$  issiqlik qaynayotgan suv entalpiyasi  $i^1$ , tuyingan quruq bug' entalpiyasi  $i^{11}$  xamda o'ta qizigan bug' en- talpiyasi i hosil etgan yuzalar emas, balki chiziqlar tashkil etadi.



Suv bug'inining diagrammasi

Diagramma pastki chegara egri chiziq ( $X=0$ ) va yuqori chegara egri chiziqdan ( $X=1$ ) iyuo- ratdir.  $S$  va  $V$  nuqtalarda bosim bir xil  $S'' - S' = r/T_t$  gorizontal bo'yicha,  $i'', r = 7$  vertikal bo'yicha  $S'' - S'$  da kattalikda o'zgarmasdir, demak  $S'$ ,  $i$  va  $i'$  larni bog'lovchi koordinatalari to'g'ri chiziq tenglamasini beradi.

$i_s$  – diagrammasi yordamida bug'ning 2 xil holatdagi parametrlarini: tuyingan nam va o'ta qizdirilgan bug'larni parametri aniqlanadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Fazaviy o'tish nima?
2. Buglanish deb nimaga aytildi?
3. Qaynash deb nimaga aytildi?
4. Qanday bug'ga to'ngan bug deb aytildi?
5. Quqlik darajasi nimani bildiradi?
6. Bug' xosil bo'lishining rh - diagrammasini tushuntiring.
7. Kritik nuktaning moxiyati nimadan iborat?
8. Bug' xosil qilish issiqligining axamiyati nimadan iborat?

**5-ma'ruza: Bug'lanish tezligi. Bug'lanish jarayonida haroratning oshib borish natijasida qaynash jarayoni. Tuyingan nam havo. Absolyut va nisbiy namlik**

#### Reja:

1. Nam havo haqida tushunchalar.
2. To'yingan nam havo.
3. Absalyut va nisbiy namlik.

Kislород, azot, karbonat angidrid va oz miqdordagi inert gazlardan (argon, neon, ge- liy, ksenon, kripton) iborat bo'lgan atmosfera havosi tarkibida qandaydir miqdorda suv bug'lari bo'ladi.

Quruq havo bilan suv bug'i aralashmasi nam havo deb aytildi. Nam havo texnikada, av- valo quritish jarayonlarida keng qo'llaniladi. Nam havo gazlar aralashmasining xususiy hollaridan biridir.

Dal'ton qonuniga muvofiq, gazlar aralashmasidagi har bir gaz o'zini shu aralashma temperaturasida aralashmaning butun hajmini egallagandek tutadi, boshqacha qilib aytgan- da, gazlar aralashmasidagi gazlarning partsial bosimlari

yig'indisi shu aralashmaning umumiy bosilariga teng. Quruq havoning partsial bosimini  $r_{havo}$  bilan, suv bug'ining par-tsial bosimini  $r_b$  va aralashmaning ya'ni nam bug'ning bosimini  $r$  bilan belgilab, Dalton qonuniga muvofiq quyidagini olamiz:

$$p = p_{havo} + p_b \quad (1)$$

Odatda nam bug' bosimi atmosfera bosimi ( $B$ ) ga teng bo'lgani uchun quyidagicha yozish mumkin:

$$B = p_{havo} + p \cdot p_b \quad (2)$$

Bug' havo aralashmasida suv bug'i qanchalik ko'p bo'lsa, aralashmada suv bug'ining partsialbosimi shunchalik yuqori bo'ladi.


Nam havodagi suv bug'iniing partsial bosimi  $p_b$ , nam havoning mazkur temperaturadagituyinish bosimidan ( $p_s$ ) yuqori bo'la olmaydi, ya'ni

$$p_b < p_s \quad (3)$$

Nam havodagi suv bug'ining maksimal partsial bosimi  $p_s$  aralashma bosimi  $r$  ga bogliqbo'lmay, faqat aralashma temperaturasiga bog'liq.

$p_b < p_s$  bo'lgan nam havoni tuyinmagan,  $p_b = p_s$  bo'lgan nam havoni esa tuyingan nam havo deb ataymiz. Tuyinmagan nam havodagi suv bug'i o'ta qizigan holatda turadi.

Agar tuyinmagan nam havo temperaturasini bosimni o'zgartirmay pasaytirsak, tuyinish holatiga erishish mumkin (1-rasm).



Bunda boshlang'ich temperurasasi  $t_1$  bo'lgan (1- rasmda 1-nuqta) o'ta qizigan suv bug'i  $t_2$  temperatu-ragacha sovitiladi.

Bu temperaturaga tuyinish holati (2-nuqta) mos keladi, temperatera yanada pasaytirilsa, havodan nam tushadi hamda bug'ning partsial bosimi kamayadi. Bunday hodisaga kundalik turushda ko'p duch kelamiz: atmosfera havosida har doim suv

bug'ining ma'lum miqdori bo'lgani uchun temperatura pasayganda havo, ko'pincha tuyingan bo'ladi, tuman va shudring tushishi shu haqda guvohlik beradi.

SHuning uchun  $p_b$  bosim p bosimga teng bo'ladigan temperatura shudring nuqtasi deb ay-tiladi ( $t_{sh}$ ).

Nam havodagi namning massaviy miqdori  $m_b$  ning quruq havoning massaviy miqdori  $m_h$  ga nisbatini havoning nam saqlami d deb ataymiz:

$$d = m_b / m_h; \text{ yoki } d = \rho_b / \rho_h; \quad (4)$$

Binobarin, d 1kg quruq havoga yoki  $(1+d)$  kg nam havoga to'g'ri keladigan nam massasidan(kilogramm hisobida) iborat.

Nam saqlami d ni quyidagicha aniqlash mumkin. 1 kg quruq havo va nam havo hajmi V dagi suv bug'i uchui holat tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$p_2 V = m_x R_x T \text{ va } p_b M = m_6 R_b T$$

Hadma-had bo'lamiz:

$$p_x/p_b = m_h R_h / m_b R_b = (m_h \cdot 287,04) / (m_b \cdot 461,6) = 0,622/d \quad (5)$$

$$(5) tenglamaga (1) -tenglamadan  $p_h$  qiymatni qo'ysak, nam saqlamini aniqlaymiz:  $d = 0,622 p_b / (p - p_b)$  \quad (6)$$

(6) tenglamadan ko'rinib turibdiki, bug'ning partsial bosimi  $r_b$  ortishi bilan nam saqlami d ko'payadi.

Nam havoning berilgan temperaturasida uning bo'lishi mumkin bo'lган maksimal nam saqlamini yuqoridagi tenglamalardan aniqlash mumkin, lekin bunda partsial bosim r o'rniga, uning maksimal qiymati, ya'ni shu temperaturadagi tuyinish bosimi p ni qo'yish ke-rak. U vaqtida

$$d_b = 0,642 p_b (p - p_b) \quad (7)$$

Bu munosabatlardan ko'rinib turibdiki, maksimal nam saqlami, birinchidan, nam havo bosimi (barometrik bosim B) ning qiymatiga, ikkinchidan nam havo temperaturasiga bogliq, chunki  $r_s$  kattalik temperaturaning qiymatiga bog'liq.

Suv bug'inining tuyinish bosimi barometrik bosimga teng bo'lganda  $d_s$  cheksizlikka ay- lanadi, bu holda nam havo quruq tuingan yoki o'ta qizigan suv bug'idan iborat bo'ladi.

Nam havoni tasvirlashda qulay bo'ladigan yana bir tushuncha - nisbiy namlik tushuncha- sini kiritamiz. Nisbiy namlik deb, nam havodagi suv bug'i partsial bosimining suv bug'inining mazkur temperaturadagi tuyinish bosimiga (ya'ni suv bug'inining shu temperaturada bo'lishi mumkin bo'lган maksimal partsial bosimga) nisbati nisbiy namlik deb aytildi.

$$\Phi F = p_b / p,$$

Nisbiy namlik, odatda foiz hisobida ifodalanadi.  $p < p_b < r_s$  bo'lgani uchun  $0 < \Phi < 100\%$  bo'ladi.

Quruq havo uchun  $\Phi = 0$ , tuingan havo uchun  $\Phi = 100\%$  bo'ladi. Atmosfera bosimida tuingan havodagi suv bug'inining partsial bosimi past bo'lganligi tufayli, suv bug'ini ideal gaz deb hisoblab, Boyle – Mariot qonuniga asosan  $p_b / p_s$  nisbatni  $\rho_b / \rho_s$  nisbat bilan almash- tiramiz:

$$\Phi = p_b / p_s, \quad (9)$$

Bu holda hisoblashdagi xato 2% dan oshmaydi. Aniq hisoblar uchun (8) formuladan foydalanish kerak.

Nisbiy namlik tushunchasidan tashqari ba'zan absolyut na-mlik tushunchasidan ham foydalaniladi. Absolyut namlik deganda nam havodagi suv bug'inining, odatda simob ustuni- ning millimetri bilan o'lchanadigan balandligi hisobida ifodalanadigan partsial bosimi  $p_s$  kattaligi tushuniladi. Ba'zan bir kub metr nam havodagi gramm bilan ifodalanadigai suv bug' massasi absolyut namlik deb aytildi.

$$\Phi = [d / (0,622 + d)](p_b / p_s) \quad (10)$$

Demak,  $p_b = p_s$  bo'lganda  $\Phi$  faqat ( $d$  ga bog'liq bo'lib, ( $d=\text{const}$  da u o'zgarmaydi.


Havodagi bug'ning holatini aniqlash uchun uning temperaturasini va partsial bosimi- ni bilish lozim. Havodagi bug'ning temperaturasi nam havo temperaturasi bilan bir xil bo'lganligi tufayli uni termometr bilan aniqlash mumkin. Buning partspal bosimini aiqlash uchun gigrometrlardan foydalaniladi. SHu ikki asbob yordamida shudring nuqtasi temperaturasi  $t_{sh}$  aniqlanadi.

SHudring nuqtasini bilgan holda, suv bug'i jadvallaridan  $t_{sh}$  ga mos partsial bosim aniqlanadi. Gigrometrlarning ko'p turlari mavjud. Hozir asosan Allyuora va Grove gigro- metri qo'llashmadi.

Bu asbobda silliqlangan idishda joylashgan havo efir bug'lanishi hisobiga soviydi. SHu sirtda shudring paydo bo'lisi  $t_{sh}$  ga erishilganini ko'rsatadi. Yuqoridagi usul bilan partsial bosimni aniqlash taxminiy bo'ladi, chunki shudringni paydo bo'lishini aniq belgi- lash kiyindir. SHuning uchun havoning nisbiy namligini va demak bug'ning partsial bosi- mini aniq hisoblash uchun psixrometr dan foydalaniladi.

Psixrometr ikkita simobli termometrdai - quruq va ho'l deb aytiladigan termometr- dan iborat. Ho'l termometrning quruq termometrdan farqi shuki, uning simobli sharchasi suv bilan ho'llangan matoga o'rabi qo'yiladi. Nam havo oqimi bu termometrlarning simobli sharchalarini yuvib o'tganda quruq termometr nam havo temperaturasini ko'rsatadi. Ho'l termometr esa o'zining simobli sharchasi o'ralgan nam matodagi suv temperaturasini bildira- di. Nam termometrni havo yuvib o'tganda ho'l mato sirtidagi suv bug'lanadi (agar nam havo tuyingan bo'lmasa). Bunda matoni yuvib o'tadigan havo qanchalik quruq bo'lsa, ya'ni havodagi bug'ning partsial bosimi qanchalik qisqa bo'lsa, suv shunchalik jadalroq bug'lanadi va nam mato temperaturasi pasaya boshlaydi.

Nam mato temperaturasi pasayganda nam matoga havoning eng yaqin qatlamlaridan issiqlik keladi. SHu tufayli muvozanat (nam mato temperaturasining o'zgarmasligi) shud- ring nuqtasi temperaturasida emas, balki biroz yuqori temperaturada qaror topadi. Bu temperatura xo'l termometr temperaturasi deb aytiladi. Quruq termometr temperaturasi  $t_q$  bilan, ho'l termometr temperaturasi  $t_h$  orasidagi ayirma havo namligiga proportional bo'ladi.  $t_q$  va  $t_h$  ni bilgan holda maxsus psixrometrik diagrammalar (2-rasm) yoki jadvallar hamda hd - diagrammalardan foydalanib, havoning nisbiy namligi aniqlanadi.



2-rasm.

## **6-ma’ruza: Issiqlik o’tkazuvchanlik. Konvektsiya.**

### **Reja**

1. Konvektiv issiklik almashinuvi
2. Nurlanishda issiklik almashinuvi
3. Issiklik ishlov berish tugrisida tushuncha.
4. Issiklik kurilmalari, material va issiklik balanslari
5. Issiklik va massa almashinuv asoslari to’g’risida tushuncha
6. Kurilishda va issik nam ishlov berishda tashqi issiq va massa almashinuvi

Issiqlik almashinuvi nazariyasi orqali issiqlikning almashinuvi va issiqlikning uzatilishi o’rganiladi.

Механик исх баярмасдан жисмлар билан атродаги мухит орасида ички энергиянинг алмашшига иssiqlik almashinuvi deb ataladi. Issiqlik almashinish xodisalari asosan uchxil yo’l bilan amalga oshadi.

1. Issiqlik o’tkazuvchanlik
2. Konvektiv issiqlik almashinuvi
3. Nurlanishda isiklik almashinuvi.

***Issiqlik o’tkazuvchanlik deb,*** модда молекулалари ва бoshqa zarralarning tartibsiz (xaotik) harakati sababli muddaning bir qismidan ikkinchi qismiga ички энергиянинг уза- tilishi jarayoniga aytildi.

***Konvektsiya deb,*** notekis isitilgan suyuqlik yoki gaz qatlamlarining og’irlik kuchi ta’sirida siljishi sababli sodir bo’ladigan issiqlik almashinuv jarayoniga aytildi. Ma-salan: binolarni isituvchi sistemalarda issiqlik tashuvchining harakati.

***Nurlanish deb,*** жисмлар ички энергиясининг нур чиқарish yo’li bilan uzatish jarayo- niga aytildi.

Issiqlik o’tkazuvchanlik yo’li bilan issiqlik almashinishi asosan qattiq jismlarda uchraydi.

***Konvektsiya - issiqlik almashinishi hamma vaqt issiqlik o’tkazuvchanlik bilan birga sodir bo’lganda bunday issiqlik almashinuviga konvektiv issiqlik almashish deb ataladi.***

Konvektiv issiqlik almashinuvi ikki xilda bo’ladi:

- A) Majburiy (sun’iy)
- B) Erkin (tabiiy)

Agarda ishchi jismlarda issiqlik almashinishi majburiy ravishda (nasoslar, ventilyatorlar, kompresorlar yordamida) sodir etilsa, bunday issiqlik almashishiga majburiy issiqlik almashish deb aytildi.

Agarda issiqlik almashish moddalar isitilganda zichligi farqiga qarab almashsa, bunday issiqlik almashishga erkin issiqlik almashish deb aytildi.

Nurlanishda issiqlik almashuvi uch pog’onada sodir bo’ladi. Jism ички энергиясининг elektoromagnit to’lqinga aylanishi, elektoromagnit to’lqinlarining atrof muhitga tarqalishi, nurlanish energiyasining jismga yutilishi.

Issiqlik almashinuvi uch turining birga sodir bo’lishiga qiyin holatdagi issiqlik almashishi deb ataladi.

Issiqlik almashishi jarayoni jismlar ichki haroratining taksimlanishiga bog'liqdir. SHuning uchun issiqlik almashishni o'rganishda haroratlar maydoni va haroratlar chearasiga ega bo'lishimiz kerak.

**1. Haroratlar maydoni.** Haroratlar (temperatura), jismlar issiqlik holatini xarakterlaydi va uning qay darajada isitilganligini aniqlaydi. Umumiy holda harorat  $X$ ,

$U, Z$  va vaqt  $\tau$  kooordinatining funktsiyasidir. Ya'ni

$$t=f(x,y,z, \tau) \quad (1)$$

Haroratlar maydoni deb, bir vaqtning o'zida harorat muhitining hamma nuqtalarga tarqalishi qiymatlarining yig'indisiga aytildi. Bu holda, agar vaqtga qarab harorat o'zgarsa, o'zgaruvchan harorat maydoni deb aytildi; Agarda harorat o'zgarmasa, vaqtga qarab o'zgarmas, harorat maydoni deb aytildi.

Bu paytda harorat faqat  $(x,z,y)$  koordinatalarining funktsiyasi bo'lib qoladi. Ya'ni

$$t_1=f_1(x,y,z); \frac{\partial t}{\partial \tau} = 0$$

Harorat bir ikki va uch koordinatning funktsiyasi bo'lishi ham mumkin. Bunda bir, ikki va uch o'lchamli haroratlar maydoni deb ataladi. Ya'ni:


$$t=f(x); \frac{\partial t}{\partial \tau} = 0 \quad \frac{\partial t}{\partial z} = 0 \quad \frac{\partial t}{\partial u} = 0.$$

$$\vdots \quad \vdots \quad \partial z$$

$$\partial \tau \quad \partial u$$

**2. Harorat chegarasi.** Har qanday harorat maydonida jism bir xil haroratli nuqtagaega bo'lishi mumkin.

Bunday holatning geometrik joyiga izotermik yuza paydo bo'ladi. Bunday holatda birvaqtning o'zida bir nuqtada ikki farqli harorat bo'lishi mumkin emas.



1-rasm. Harorat chegarasi aniqlash tasviri.

Harorat chegarasi vektor hisoblanib, izotermik yuzadan harorat oshgan tomoniga yo'naltirilgan.

3. **Issiqlik oqimi.** Izotermik yuzadan vaqt birligi ichida utayotgan issiqlik miqdori  $Q$  ga issiqlik oqimi deb aytildi. Issiqlik oqimining izotermik yuza birligi nisbatiga issiqlik oqimining zichligi  $q$  deb aytildi.

$$q = \frac{Q}{S}; \quad [Vt/m^2]; \quad (2)$$

S

Issiqlik oqimi zichligining qiymati vektor yo'nalishiga egadir.

4. Furъe qonuni. Qattiq jismlarda issiqlik o'tkazuvchanlikni tajriba orqali Furъe tomonidan quyidagi aniqlik kiritildi. Ya'ni, uzatilayotgan issiqlik miqdori vaqtga nis- batি proportional haroratning pasayishi va yuza kirkimida issiqlikning tarqalishi perpendikulyar yunalishdadir.

$$q = -\lambda \frac{\partial t}{\partial n} \quad (3)$$

Bu tenglama issiqlik o'tkazuvchanlik qonuni Furъe qonuning matematik ifodasidir.

$$Q = -\lambda S \frac{\partial t}{\partial n} \text{ yoki}$$

$\partial n$

$$q = -\lambda \frac{\partial t}{\partial n} = -\lambda \frac{\partial t}{\partial n}$$

$\partial n$

Bu yerda  $\lambda$  - issiqlik o'tkazuvchanlik qiymat. Bu qiymat moddalarning fizik xususiyat-larini xarakterlaydi va quyidagi ko'rinishda ifodalanadi.

$$\lambda = \frac{|q|}{\frac{Q}{F \cdot \tau \cdot \Delta t / l}};$$

$$\frac{F \cdot \tau \cdot \Delta t}{l}$$

Turli xil jismlar uchun issiqlik o'tkazuvchanlik qiymati, ularning zichligi, namligi haroratlariga qarab turlicha qiymatga egadir. Texnik hisoblashlarda  $\lambda$ , ( $Vt/m^0K$ ) qiymati taxminan quyidagi qiymatga egadir:

Kumush ..... 418

Toza (med) ..... 390-400

Po'lat (cho'yan)..... 45-60

SHamotli g'isht ..... 1- 4

Beton .....0,9-1,4

Asbest.....0,09-0,19

Suv.....0,55

Havo .....0,024-0,075

Qurilish materiallarida issiqlik o'tkazuvchanlik qiymati  $\lambda$  uning namligiga qarab,namlik oshishi bilan miqdori oshib boradi.

Qurilish materallari va buyumlari ishlab chiqarishda ularga issiqlik ishlov berish juda muhim ahamiyatga egadir. Issiqlik ishlov berish natijasida materiallarda qotishga, pishirishiga, ko'chishiga va boshqa ko'pgina xossalari samarali ta'sir etadi.

Issiqlik beruvchi jism (gaz, havo, bug') ning materialga ta'sir etish jarayoni *issiqlik va massa almashinuv* deb ataladi. Issiqlik va massa almashinuvi maxsus qurilmalar: xum- donlar, quritgichlar, issiq ishlov berish kameralari orqali amalga oshiriladi.

Qurilish materiallarini va buyumlariga issiqlik ishlov berishning kup usullari bor. Bulardan ikkitasi muhim ahamiyatga ega. Birinchi usulda materialdagi nam yo'qotilmay issiq beriladi, masalan beton va temirbeton buyumlarni qotish jarayoni. Bu usul issiq namishlov berish deb yuritiladi. Ikkinci usulda esa material tarkibidagi namlik issiqlik ishlov berish natijasida yo'qotiladi. Materialdan namlikni yo'qotish *quritish* deb ataladi. Quritish jarayoni yakuniy va oralik bosqich vazifalarini bajarish mumkin. Yuqori haroratda buyumlarni pishirish, kupchirish, eritish ham ikkinchi usulga kiradi.

Issiqlik ishlov berilayotgan barcha materiallar uch xil fazadagi agregat holatdan: qattiq, suyuq va gazdan iborat bo'ladi. Gazlar kimyoviy reaktsiyalar mahsullaridan, suvning bug'lanishidan yoki materialni aralashtirishda va qoliplashda qo'shilib qolgan havodan ibo- rat bo'lishligi mumkin.

Nam materiallar xossalari qarab uch turga bo'linadi:

Birinchi tur - kolloid jism. Bu jismlardan namlik yo'qotilsa ham ular elastiklik xususiyatlarini yo'qotmaydi (masalan, jelatin).

Ikkinci tur - kapilyar-g'ovakli jism. Bunday jismlardan namlik yo'qotilsa ular murtbo'lib koladi. Masalan kvarts qumi va pista ko'mir.

Uchinchi tur - kapilyar g'ovakli kolloid jism. Bularni asosiy xususiyatlaridan biri namlanganda o'lchamlari kattalashib shishadi, nam yo'qotilsa hajmi kichrayib kirishadi.

Qurilish materiallari va buyumlari tayyorlashda xom ashyolar namlanadi, quritiladi, pishiriladi, ko'pchitiladi va hokazo. Bu jarayonlarda quyidagi 3 ta energetik ro'y beradi, ya'ni materialdagi 3 xil bog'lanishga ega:

Birinchisi - namlikni material bilan kimyoviy bog'lanishi.

Ikkinchisi - namlikni material bilan fizik-kimyoviy bog'lanishi. Uchinchisi - namlikni material bilan fizik-mexanik bog'lanishi.

Har qanday materialda issiqlik ishlov berish natijasida material tarkibidagi qattiq, suyuq va gaz fazali doimiy ravishda miqdoriy jihatdan o'zgarib turadi.

Materialarga issiqlik ishlov berish uchun turli xil issiqlik qurilmalari yaratilgan. Texnologik tuzulishlari bo'yicha issiqlik beruvchi qurilmalar uzlukli (davrli) va uz- luksiz (doimiy) turlarga bo'linadi.

**Material balansi:** Fizika va kimyo fanlaridan bizga ma'lumki, issiqlik qurilmalariga yuborilgan material massasi issiqlik qurilmasidan chiqqan material mas-sasiga teng bo'lishi kerak. Amalga bu jarayon massani yo'qotish bilan amalgamashadi. Agarda issiqlik qurilmasiga yuborilgan material massasini  $\Sigma G_{yu}$  bilan, issiqlik qurilmasidan chiqqan material massasini  $\Sigma G_{ch}$  bilan belgilasak, massalar saqlanish qonuniga ko'ra  $\Sigma G_{yu} =$

$\Sigma G_{ch}$  bo'lishi kerak. Yuqorida eslatganimizdek massani yo'qolishini  $\Sigma G_y$  bilan belgilasak, yuqoridagi tenglik  $\Sigma G_{yu} = \Sigma G_{ch} + \Sigma G_y$  ko'rinishga ega bo'ladi.

Issiqlik balansi: energiyaning saqlanish qonuniga asosan, jarayon boshlanishidan oldingi energiya miqdori, jarayon tugagandan keyingi energiyaga teng bo'lishi kerak. Agara issiqlik qurilmasiga birlik vaqtida yuborilgan material issiqlik energiyasini  $Q_{mt}$  va issiqlik tashuvchi energiyasini  $Q_{mt}$  bilan va shu birlik vaqt ichida issiqlik qurilmasidan chiqqan material issiqlik energiyasini  $Q_{mch}$  va ishlatilgan issiqlik tashigichning issiqlik energiyasi miqdorini  $Q_{ich}$  bilan belgilasak energiya saqlanish qonuniga asosan

$$Q_{mt} + Q_{it} = Q_{mch} + Q_{ich}$$

bo'lishi kerak. Ammo issiqlik qurilmalaridan energiyaning atrofga tarqalishi natijasida, ma'lum qism energiya  $Q_y$  yo'qoladi. Bu holatda issiqlik balansi tenglmasi quyidagiko'rinishini oladi.

Issiqlik balansi issiqlik beruvchi qurilmalarni foydali ish koeffitsientini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.

$$Q_{mt} + Q_{it} = Q_{mch} + Q_{ich} + Q_y$$

Issiqlik va massa almashinuv ahamiyati: issiqlik tashuvchi va ashyolar orasidagi issiqlik almashinuvi issiqlik qurilmalarida muhim vazifani bajaradi. Issiqlik va suv bug'ining partsial bosimi ostida suv bug'i.

YOqilg'i tarkibadagi uglerod, vodorod, kislorod va azot yoqilg'ini organik massasini, oltingugurt kolgedoni va sulfid birikmalari bilan esa yonuvchan massani hosil qiladi. Sulfid holatidagi oltingugurt yonmaydigan kul massani hosil qiladi.

YOqilg'ini tarkibini ximiyaviy elementlar va moddalarni foizlarda hisoblanadi. YOqilg'i tarkibi yonuvchan, quruq va ishchi massalardan iborat bo'lib, ular mos ravishda yo, k, sh indekslar bilan beriladi

### **Nazorat uchun savollari**

1. Issiqlik o'tkazuvchanlik deb nimaga aytildi?
2. Konvektiv issiqlik almashinushi deganda nimani tushunasiz?
3. Konvektsiya deb nimaga aytildi?
4. Nurlanishda issiqlik almashinuvini aniqlang?

### **7-ma'ruza: O'xshashlik nazariyasi asoslari. O'xshashlik tushunchasi**

**Reja:**

1. Issiqlik o'xshashlik
2. Kinetik o'xshashlik.

Bu o'xshashlik temperatura maydonlari va issiqlik oqimlariniig o'xshashligini bil-diradi. O'xshash xodisalar ta'rifiga asosan, konvektiv issiqlik berish differentsial tenglamasidagi fizik va geometrik kattaliklar (namuna va modelb uchun) quyidagi nisbat bilan bog'liq bo'lishi kerak:

$$\alpha' = m_\alpha \alpha; \quad \chi' = m_\chi \chi; \quad \Delta t' = m_t \cdot \Delta t;$$

$$\partial t' = m_t \partial t; \quad \partial \lambda = m_e \partial \delta,$$

bu yerda  $m_\alpha$ ,  $m_\chi$ ,  $m_t$ ,  $m_e$  - o'xshashlik sonlari. Issiqlik berilishining differentsial tenglamasiga asosan modelb uchun:

$$m_\alpha \alpha = - \frac{m_\alpha}{m_l} \chi \frac{\partial t}{\partial \delta}$$

(3) va (14) tenglamalar bilan yoritilgan issiqlik almashinish jarayonlari quyidagishart bajarilganda o'xshash bo'ladi:

$$m_\alpha = \frac{m_t}{m_r} \text{ yo } \frac{m_\alpha m_e}{m_r} = 1$$

Yuqoridagi tenglamaga masshtabni tanlash yoki o'xhash sonlarni tanlash tenglamasi deyiladi.

Bu tenglamadan ko'rilib turibdiki, ikkita har qanday o'xhash sonlarni har qancha o'zgartirish mumkin, lekin uchinchi o'xhash son, shunday tanlanishi lozimki, natijada yuqoridagi shart bajarilishi lozim.

Namuna va modelъ uchun bir xil bo'lган o'lchamsiz komplekslarga o'xhash sonlar deyila- di. Ularga issiqlik uzatish fanining rivojlannishiga katta hissa ko'shgan olimlar nomi berilgan.

O'xhash sonlar ( $m_a$ ,  $m_t$ , va  $m_1$ ) qiymatlarini tenglamaga qo'yib va tenglamani chap tomo- nidagi namunaga tegishli kattaliklarni va o'ng tomoniga modelъ uchun kattaliklarni jam- lasak quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\frac{\alpha_1}{\chi} = \frac{\sigma' l'}{\chi'} = \text{idem}$$

Oxirgi ifodaga uning tarkibiga kirgan kattaliklarni birliklarini qo'ysak,  $\alpha_1/\chi$  o'lchamsiz kattalik ekanligi kelib chiqadi. Hosil bo'lган songa Nusselъ soni deyiladi.

Nusselъ soni, qattiq jism bilan suyuqlik chegarasidagi issiqlik almashishini tav-siflaydi:

### Kinetik o'xhashlik.

Konvektiv issiqlik almashinuvi suyuqlikning harakat tartibiga bogliq. Suyuqlikning gidrodinamik harakat tartibi Reynolъds soni bilan tavsiflanadi. Reynolъds soni inertsiya kuchlari bilan kovushoqlik kuchlari orasidagi nisbatni tavsiflaydi:

Namuna va modelъ uchun Reynolъds sonlari bir xil bo'lsa, u holda ularda suyuqlikning oqimi o'xhash bo'ladi.

$$\frac{w l_0}{v} = \frac{w' l'}{v'}$$

Ushbu ko'rib chiqilgan o'xhash sonlarni tanlash usulini konvektiv issiqlik almashi- nuvi differentisl tenglamalariga tadbiq etsak, quyidagi asosiy o'xhash sonlarni olish mumkin.

Pekle soni, issiqlikning konvektsiya va issiqlik o'tkazuvchanlik yo'li bilan tarqalish tezliklari nisbatini tavsiflaydi:

$$Pe = \frac{w_0 l_0}{a}$$

bu yerda  $a$  - suyuqlikning temperatura o'tkazuvchanlik koeffitsienti,  $m^2/s$ .

Eyler soni, bosim kuchlari bilan inertsiya kuchlarining nisbatini tavsiflaydi:

Grasgof soni, zichliklarning farqi tufayli suyuqlikda paydo bo'ladigan ko'tarish kuchlarining qovushoqlik kuchlariga nisbatini tavsiflaydi:

$$G_\gamma = \frac{g\beta(t_{dev} - t_c) l^2}{v^2}$$

bu yerda  $\beta$  - suyuqlik hajmiy kengayishining temperatura koeffitsienti,  $1/K$ ;  $t_{dev}$  - de- vor sirtining temperaturasi,  $^{\circ}C$ ;  $t_c$  - suyuqlik temperaturasi,  $^{\circ}C$ ;  $g$  - og'irlilik kuchi tezlanishi,  $m/s^2$ .

Arximed soni, muhitning erkin harakatlanish shartini aniqlaydi:

$$A_\gamma = \frac{\frac{\partial l^2}{\rho_0} \frac{\rho_0 - \rho}{\rho}}{v}$$

bu yerda  $\rho_0$  va  $\rho$  - turli fazalarning zichliklari,  $kg/m^3$ .

Prandtl soni, suyuqlikning fizik xossalarni tavsiflaydi:

$$R_\gamma = \frac{v}{a}$$

Suyuqliklarning Prandtl soni temperaturaga juda bog'liq bo'ladi. Masalan, temperatura 0 dan  $180^{\circ}S$  gacha ko'tarilganda (tuyinish chizig'ida) suv uchun Prandtl soni 13,7 dan 1 gacha o'zgaradi. Issiqlikni juda yaxshn o'tkazadigan suyuq metallar uchun  $P_\gamma = 0,005-0,05$  bo'ladi. Gazlar uchui  $P_\gamma = 1$  bo'ladi.

Ma'lumki,  $Pe=Re = Pg$

Nav'ye soni, suyuqlik harakat tezligini vaqt bo'yicha o'zgarishini tavsiflaydi:

$$N_0 = \frac{w\tau}{l_0}$$

bu yerda  $\tau$  - vaqt, s.

Frud soni, inertsiya kuchlari bilan og'irlilik kuchlarining nisbatini tavsiflaydi:

$$F_\gamma = \frac{gt}{\frac{g}{w^2}}$$

Fur'ye soni temperatura maydoninin o'zgarish tezligi, jismning fizik parametrlariga o'lchamlari orasidagi bog'liqlikni tavsiflaydi:

$$F_0 = \frac{at}{l_0^2}$$

Galiley soni, og'irlilik kuchi va molekulyar ishqalanish kuchlari orasidagi nisbatnitavsiflaydi:

$$G_a = \frac{gl^2}{v^2}$$

Agar o'lchamsiz sonlarga masalaning faqat bog'liq o'zgaruvchilari kiradigan bo'lsa, ular aniqlanadigan o'lchamsiz sonlar deyiladi. Agar o'lchamsiz sonlar ushbu masalaning faqat o'zgarmas kattaliklari va erkin o'zgaruvchilaridan iborat bo'lsa, u holda ular aniqlovchi sonlar deyiladi.

Quyidagi shartlar bajarilgandagina fizik kattaliklar o'xshash bo'ladi:

1. Jarayonlarning fizik tabiatini bir xil bo'lishi va yozilish shakli jihatdan bir xil bo'lgan differentials tenglamalar bilan tafsiflanishi kerak.
2. Muhitning shakli va o'lchamlarini, uning fizik xossalarni tafsiflovchi shartlar, shuningdek chegara va boshlang'ich shartlar (ulardagi o'zgarmas kattaliklarning son qiymatlaridan tashqari) hammasida bir xil bo'lishi kerak.
3. Ikkita jarayonning o'lchamsiz bir xil sonlarining son qiymatlari bir xil bo'lishi lozim.

Aniqlanadigan o'xhash son va aniqovchi sonlar o'rtasidagi bog'lanishga kriterial teng- lamalar deyiladi. Issiqlik apparatlarini hisoblashda issiqlik berish koefitsienti  $\alpha$  va gidravlik qarshilik D<sub>p</sub> aniqlanadigan kattalik hisoblanadi.

Konvektiv issiqlik almashinuvi quyidagi beshta o'xhash sonlar bilan tavsiflanadi: Nu, Eu, Pg, Gr va Re.

Nussebt soni tarkibida noma'lum bo'lgan isciqlik berish koefitsienti  $a$  turadi. Eyler sonida esa, gidravlik qarshilikni tavsiflovchi Dr qatnashadi.

SHuning uchun Nu va Eu sonlari aniqlanadigan o'xhash sonlar va Pg, Gr va Re sonlari aniqlovchi o'xhash sonlar deyiladi.

Konvektiv issiqlik almashinuvi uchun kriterial tenglamani quyidagicha ifodalashmumkin.

$$Nu = f_1(Re, Gr,$$

$$Pr) Eu = f_2(Re,$$

$$Gr, Pr)$$

O'xhash sonlar o'rtasidagi bog'liklik asosan tajriba orqali aniqlanadi.

Suyuqlikning majburiy harakatida va jadal turbulent oqimda yuqoridagi kriterialtenglama soddalashadi:

$$Nu = f_1(Re, Pr)$$

Masalan, havoning quvurda turbulent barqaror harakatidagi issiqlik almashinuvinitajribada o'rghanish asosida quyidagi kriterial bog'liklik aniqlangan.

$$Nu = 0,018 Re^{0.8}$$

Bu tenglamadan texnik hisobatlarda keng ko'lama foydalaniladi.

Suyuqlikiig erkin harakatida (majburiy konvensiya bo'lmasa) Reynolds soni o'rniga Grasgof soni kiritiladi:

$$Nu = f(G, Pr)$$

Kriterial tenglamalarii hisoblashda suyuqlikning fizik parametrlari ma'lumot jadvallardan aniqlovchi temperatura bo'yicha olinadi. Odatda bu temperatura sifatida suyuqlikning o'rtacha temperaturasi olinadi. Doirasimon quvurlar uchun aniqlovchi o'lcham sifatida uning diametri, murakkab kesimli kanallar uchun ekvivalent diametr va plitani oqim yuvib o'tayotganda uning uzunligi olinadi.

## **8-Ma’ruza: Qurilish korxonalarida qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini issiqlik bilan ishlov berish jarayoni.**

**Reja:**

1. Issiqlik ishlovi jarayonining moxiyati.
2. Qurilish korxonalarida qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini issiqlik bilan ishlov berish jarayoni.

**Tayanch so’zlar:** Issiqlik ishlovi, Kamera, Beton, Temir-beton buyumlarig.

Beton va temir-beton buyumlariga issiq-namlik ishlov berishning nazariy asoslarini, tashqi va ichki issiqlik massa almashinuvining fizikaviy va fizik-kimyoviy jarayonlari qisqa ma'lumoti keltiriladi, betonga issiq-namlik ishlov berishning asosiy usullari va bug'li ishlov berishning rejimi beriladi, topshiriqqa ko'ra buyumga issiq-namlik ishlov berishning grafigi chiziladi.

Berilgan uskunaning ishlash printsipi va konstruktiv asoslari yoziladi. Uskunaning ruxsat etilgan uzunligi, eni va balandligi bo'yicha o'lchamlari, to'siq elementlari (pol, devorlar, ora yopma yoki tom yopma), ular tayyorlangan materialning tavsifi beriladi. Bundan tashqari bu bo'limda uskunani yuklash usullari, issiqlik uzatishni tanlash va yetkazib berishning usullari, xizmat ko'rsatishda ishchi o'rirlari, issiqlik rejimini ta'minlash bo'yicha savollar yoritiladi, qurilma ishlashini boshqarish printsiplari, zaruriy parametrlar, nazorat-o'lchov asboblarini o'rnatish joylari keltiriladi.

O'ra issiq-namlik ishlov berish kamerasi. Dastlab kameraning buyumlar joylashtirilgan holdagi eskizini chizish tavsiya etiladi (agar buyumga qolipsiz ishlov berilsa, unda taglik ustida turadi). Kamerani ikkita, to'rtta va undan ko'p buyumlar bilan rejasini loyixalash mumkin. Biroq kamera maydoni shunday tanlanishi kerakki, mavjud kranning yuk ko'tarish qobiliyati kamera qopqog'ini ko'tarish uchun yetarli bo'lishi krak. Ko'pincha kameraning uzunligi va eni unda ikkita shtabelda qolip va buyumlarning joylashuvidan kelib chiqib aniqlanadi.

Kamera uzunligi –  $L_k$  formula bo'yicha aniqlanadi:

$$L_k = n \cdot L_\phi + (n + 1) \cdot a$$

bu yerda:  $L$  -qolip va buyum bilan birgalikdagi uzunligi, m

$n$  - uzunlik bo'yicha, qoliplar soni, dona ( $L_\phi > 4m$ ,  $n = 1$ )

$a \approx 0,1 - 0,2$  m -qoliplar orasi, kamera devori va qolip orasidagi masofa

Kamera eni –  $V_k$  quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$V_k = v_\phi \cdot n_1 + (n_1 + 1) \cdot v_1$$

bu yerda:

$v_\phi$  – qolipdagi buyumning eni, m;

$n_1$  – kameraning eni bo'ylab, joylashtirilgan qoliplar soni, dona ( $v_\phi > 2m$ ,  $n = 1$ )

$v_1 \approx 0,1 - 0,2$  m - qoliplar orasi, kamera devori va qolip orasidagi masofa

Kamera chuqurligi –  $N_k$  quyidagi formula orqali topiladi:

$$N_k = n_2 \cdot h_\phi + (n_2 - 1) \cdot h_1 + h_2 + h_3$$

bu yerda,  $h_\phi$  - qolipdagi bitta buyumning balandligi (qalinligi), m;

$n_2$  - kamera balandligi bo'yicha qoliplardagi buyumlarning soni, doni (har bir holat uchun individual tanlanadi, ko'pincha 4 tadan ko'p buyumlar olinadi);

$h_1$  - qoliplar o'rtasidagi vertikal bo'yicha masofa (qoliplar orasidagi prokladkalar balandligi)  $\approx 0,03-0,1$  m

$h_2$  - ostki qolip va kamera tagi orasidagi masofa,  $0,15 - 0,2$  m;

$h_3$  - yuqori qolip va kamera qopqog'i orasidagi masofa, 0,05 – 0,10 m;

Kameraning umumiy uzunligi 2,8-3 m dan oshmasligi kerak.

Kameraning foydali hajmi (buyumlar hajmi yig'indisi, kamera geometrik hajmiga mos keluvchi) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$V_n = n_2 \cdot V_i$$

bu yerda :  $h_2$  - issiqlik ishlov beruvchi kameradagi buyumlar soni;

$V_i$  - bitta buyumning hajmi,  $m^3$ .

Kamera hajmidan foydalanish koeffitsienti- $K_V$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$K_V = V_n / V_k$$

Bu yerda:  $V_k$  - kameraning butun geometrik hajmi

$$V_k = \lambda_k \cdot V_k \cdot N_k$$

Texnologik loyixalash normasiga ko'ra,  $K_V \geq 0,1$

Kasseta uskunasi. Kasseta uskunalarining o'lchamlari konkret buyumning o'lchamlari va ular sonidan kelib chiqib aniqlanadi.

Kasseta uskunalarida ishchi otseklari soni ichki devor panellari va ora yopma panellari ishlab chiqarishda 10–14, tashqi devor panellari ishlab chiqarishda 4 – 6.

Ichki devor panellari va ora yopma panellari ishlab chiqarishda issiqlik otseklari har 2 ta buyumdan so'ng joylashtiriladi, tashqi devor panellari ishlab chiqarishda esa har bitta buyumdan so'ng joylashtiriladi.

Kasseta devori va ajratuvchi shitlari turli konstruksiyalardan iborat bo'ladi, lekin eng asosiysi qalinligi – 24mm li listli po'latdan bajariladi. Parlash otseklarining qalinligi – o'rtacha 100mm ni tashkil etadi.

Kasseta uskunalarining asosiy tavsifi jadvalda (eslatma-4) keltirilgan.

Kasseta uskunasining foydali hajmi -  $V_n$  buyumning hajmiga teng,  $m^3$ .

Hajm bo'yicha kassetalardan foydalanish koeffitsienti –  $K_v$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$K_v = V_n / V_k$$

bu yerda,  $V$  - ishchi otseklarining hajm yig'indisi.

Loyixalash normasiga ko'ra

$$K_v \geq 0,85.$$

Uskunaning texnologik xisobi

a) uskuna mahsuldorligi

Uskunaning mahsuldorligi uning ishlash tsikli va ish qaytarilishining davomiyligi bilan aniqlanadi.

Uskunaning ishlash tsiklining davomiyligi –  $T_{ts}$  quyidagi formuladan topiladi:

$$T_{ts} = \tau_3 + \tau_{n,v} + \tau_n + \tau_i + \tau_o + \tau_v$$

bu yerda:  $\tau_3$  - issiqlik uskunasining ishga tushurish vaqt, soat;

$\tau_{n,v}$  - Issiqlik ishlov berilishda buyumni dastlabki ushlab turish vaqt, soat

$\tau_n$  - buyumni qizdirish vaqt, soat

$\tau_i$  - izotermik qizdirish vaqt, soat

$\tau_o$  - buyumni sovitish vaqt, soat

$\tau_v$  – buyumni uskunadan olish vaqt, soat

O'ra issiqlik ishlov berish kamerasi uchun uni to'ldirish vaqtini quyidagi ifodadanani aniqlanadi:

$$\tau_3 = T_\phi \cdot V_n,$$

bu yerda:  $T_\phi$  – bitta buyumni quyish tsikli, dona;

$V_n$  - uskunaning foydali xajmi, dona;

$n_\phi$  – ushbu uskuna uchun bir vaqtda xizmat ko'rsatuvchi quyish postlari soni.

Kurs loyixasini bajarishda quyish jixozlarining ishlab chiqarishi uzlusiz ravishda buyumlarni issiq - namlik ishloviga yetkazib berish shartini ham inobatga olish mumkin.

Natijada, uskunani to'ldirish vaqt transportda uzatish, kameraga joylashtirish va qopqog'ni yopish uchun ketgan vaqt yig'indisidan iborat.

O'ra kamerasining to'ldirilish vaqt 1ta buyum uchun 3 – 4 minut va qopqog'ni o'rnatish 2 – 3 minut qabul qilinadi.

Buyumni kameraga ortish vaqt quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\tau_v = V_n ;$$

bu yerda:  $V_n$  – uskuna foydali hajmi, dona;

$R_{kr}$  - buyumni ortishda kranning maxsuldarligi , dona/soat

Quyidagi shart qabul qilinadi, ya'ni o'ra issiq - namlik ishlov berish kamerasini ortish vaqt bo'shatish vaqtiga mos keladi,  $t_3 = \tau_v$ .

Kasseta uskunalari uchun ortish va bo'shatish vaqt quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\tau_3 = \tau_1 + \tau_2 + \tau_3$$

bu yerda:  $\tau_1$  - qoliplarni moylash vaqt, soat ( 1 ta ishchi otsek uchun o'rtacha 2 – 2,5 minut qabul qilinadi);

$\tau_2$  - qoliplarga armaturalarni o'rnatish va yig'ish ( 1 ta ishchi otsek uchun 7-8 minut );

$\tau_3$  - betonlash vaqt, soat (kasseta uskunasi uchun beton joylashtiruvchi bilan jixozlanganda 10 otsekli uchun 25-30 minut, boshqa usulda betonlashda 45 -60 minut qabul qilinadi);

$\tau_v$  - kasseta uskunasini bo'shatish (qolipdan bo'shatish va tozalash) vaqt, 1 ta ishchi otsek uchun 4 – 5 minut olinadi.

TSiklni qisqartirish maqsadida jarayonlarning 50 % ini kassetalarini moylash, tozalash va armaturalarni o'rnatishga sarflanadi. Beton yotqizgich yordamida buyumni quyishda turli kassetalar uchun armaturalash va betonlash jarayonlari birgalikda olib boriladi.

Kameralarning aylanish koeffitsienti  $K_0$ - 1sutka uchun quyidagi shart bo'yicha aniqlanadi:

$$K_0 = 24 \cdot K_v$$

bu yerda: 24 – vaqtning sutkadagi zaxirasi, soat;

$K_v$  - kameradan foydalanish koeffitsienti.

2 smenali ish uchun -  $K_v = 0,87 - 0,9$ ;

3 smenali ish uchun -  $K_v = 0,92 - 0,95$ .

Mahsulot ishlab chiqarishning intensivlashtirish uchun zamonaviy talablardan kelib chiqib va texnologik, iqtisodiy jixatdan quyish mashinasi va issitish uskunalari 3 – smena ish kuni tanlanadi.

Bitta uskunaning yillik maxsuldarligi –  $P_u$  quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_u = K_0 \cdot \varphi_g \cdot V_n \cdot K_s$$

bu yerda:  $\varphi_g$  – ishchi vaqt yillik zaxirasi sutkada, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\varphi_g = 365 - ( D_v + D_n + D_k )$$

bu yerda:  $D_v$  – 1 yilda dam olish kunlari soni ( korxonaning 5, 6 yoki 7 ishchi kunitan iborat xaftalik rejimi bo'yicha ifodalananadi);

$D_n$  - yilda bayram kunlari soni – 7 kun;

$D_k$  - kapital ta'mirlash uchun sarflanadigan kunlar soni, 10 – 24 kun;

$K_s$  - ishlab chiqarishda uzilishlarni inobatga olish koeffitsienti,  $K_s \approx 0,9$ .

Kurs loyixasida berilgan aniq topshiriqqa ko'ra butun korxona yoki issiqlik ishlab berish bo'limiga umumiy ishlab chiqarishga ko'ra uskunalar soni –  $N$  aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ifoda qo'llaniladi:

$$N = P_g,$$

bu yerda:  $P_g$  – topshiriq bo'yicha issiqlik uskunalarining yillik maxsuldarligi, dona buyum yoki  $1 \text{ m}^3$  beton.

Ba'zan o'qituvchi bilan kelishib  $N$ -o'rniga  $P_g$  va  $P_u$  (uskuna o'lchamlarini inobatga olib) ishlatiladi.

Texnologik loyixalash normasiga ko'ra tsexda joylashtirilgan har 10 ta kamera uchun 1 ta zaxira kamera tanlanadi.

b) issiqlik ishlov berishda qatnashuvchi materiallar soni xisobi

Material xisobini bajarishdan maqsad, issiqlik ishlov berish jarayoniga ishtirot etuvchi qattiq va suyuq fazalar miqdorini aniqlashdan iborat.

Material xisobi bitta kamera uchun ma'lum ish jarayonida bajariladi.

Xisob – kitob bazasi sifatida ma'lum muddatda (tsikl, soat) qayta – ishlanuvchi material miqdori ( $1 \text{ m}^3$ , 1 ta buyum) qabul qilinadi.

Issiqlik ishlov berishda umumiy material hisobi quyidagilardan kelib chiqib bajariladi:

Miqdori, kg : tsement -  $\hat{G}_{ts} = TS \cdot V_b$ ,

to'ldiruvchi –  $\hat{G}_3 = 3 \cdot V_b$ ,

suv -  $\hat{G}_v = V \cdot V_b$ ,

armatura -  $\hat{G}_a = A \cdot V_b$ ,

po'lat qolip -  $\hat{G}_\phi = M \cdot V_b$ ,

bu yerda:  $TS$ ,  $3$ ,  $V$ ,  $A$  –  $1 \text{ m}^3$  beton olish uchun sarflanadigan tsement, to'ldiruvchi, suv va armatura massasi;

$M$  –  $1 \text{ m}^3$  beton uchun po'lat qolip massasi.

Kattalik –  $M$  buyumning asosiy turi, konfiguratsiyasi, geometrik o'lchamlaridan kelib chiqadi va amaliyotda keng diapazonda olinadi.

Kurs loyixasida, o'ra kameralarida issiqlik-namlik ishlov beriluvchi buyumlarga  $1 \text{ m}^3$  beton uchun hisoblashda qolip og'irligini 1200 kg deb,  $1 \text{ m}^3$  beton uchun poddonlarga 700 kg deb qabul qilinadi.

Kasseta uskunasi uchun ham  $M$  – kattaligi bir xil bo'lmay, qizdirishning printsiplari va konstruktiv yechimidan kelib chiqiladi. Xisob ishlarida  $1 \text{ m}^3$  beton uchun  $M \approx 300 \text{ kg}$  qabul qilish mumkin.

Issiqlik - texnikasi xisobi. Issiqlik-texnikasi xisobi buyumni qayta ishslashda sarflanadigan issiqlik miqdorini aniqlash maqsadida bajariladi. Buning uchun kameraning issiqlik balansi tuziladi va u esa bir dona maxsulot uchun solishtirma issiqlik sarfini, maksimal soatdag'i issiqlik sarfini va boshqa parametrlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Bu xisob ishlari asosida, par uzatuvchi va uni nazorat etuvchi qurilmadan keluvchi talab etilgan par miqdori aniqlanadi.

Uskunalarining issiqlik texnikasi xisobi bitta kameraning ishlash tsikli bo'yicha bajariladi, bunda qizdirish va izotermik ushlab turish uchun aloxida-aloxida bajariladi.

**Issiqlik sarfi.** Hisoblashda asosiy kattaliklar hisoblanadi:

$$\sum_1^6 Q_{cap\phi} = Q_{lc} + Q_{le} + Q_{la} + Q_{lm} + Q_{l7} + Q_{ln} \quad (83)$$

Keltirilgan kattaliklar balansi quyidagi ifoda bo'yicha bajariladi:

I – 1. Betonni quruq qismi massa bilan keltirilgan issiqlik:

$$Q_{1c} = G_s S_s t_c$$

Bu yerda:  $G_s = (G_{ts} + G_3)$ ,

$t_1$  – materiallarning boshlang'ich xarorati (tsexdag'i yil fasliga bog'liq xolda xaroratdan kelib chiqib – asosan o'rtacha  $20^{\circ}\text{S}$  olinadi).

$G$  – issiqlik balansi bazasiga keluvchi asosiy tashkil etuvchining massasi, kg;

$S$  – material issiqlik sig'imi (kdj/kg.grad). ilovada keltirilgan.

$t$  – mos keluvchi xarorat,  $^{\circ}\text{S}$ .

I – 2. Singan suv xisobiga kelgan, issiqlik:

$$Q_{1v} = G_v \cdot S_v + t_v$$

I – 3. Armatura issiqligi:

$$Q_{1a} = G_a \cdot S_a \cdot t_a$$

I – 4. Qolip po'lati issiqligi:

$$Q_{1m} = G_m \cdot S_m \cdot t_m$$

I – 5. TSement ekzotermasi issiqligi:

$$Q_{1ekz} = q_{ekz} \cdot G_{ts} \cdot G_{ts}$$

bu yerda:  $q_{ekz}$  – 1 kg tsement ekzoterminiysi.

$$q_{ekz} = 0,0023 \cdot Q_{ekz} \cdot 28 (\text{V/TS})^{0,44} \cdot t_{sr} \cdot \tau_n$$

bu yerda:  $Q_{ekz} \cdot 28$  – tsementning 28 – sutka davomida normalsharoitda qotishida ajraladigan issiqlik.

$Q_{ekz} \cdot 28 (\text{V/TS})^{0,44}$  – ilova 7,8 dan olinadi.

$t_{sr}$  – qizdirish jarayonida o'rtacha xarorat

$$t_{sr} = 0,5 (t_1 + t_2)$$

bu yerda:  $t_1, t_2$  - jarayondagi boshlang'ich va oxirgi xaroratga mos keladi.

I – 6 . Par yordamida keladigan issiqlik:

$$Q_{1n} = G_{1n} \cdot j_n$$

bu yerda:  $j_n$  – par entalpiyasi (issiqlik tarkibi), kdj/kg (ilova – 6).

$Q_{1n}$  – noma'lum izlanuvchi kattalik.

**Issiqlik sarfi.** Issiqlik balansi sarfiga quyidagilar mansubdir:

$$\sum_1^9 Q_{sarf} = Q_{2s} + Q_{isp} + Q_{2v} + Q_{2a} + Q_{2m} + Q_{2akk} + Q_{20.s} + Q_{2kond} + Q_{2v_{bilib}}$$

II – 1 .Betonning quruq qismini qizdirish uchun sarflanadigan issiqlik:

$$Q_{2s} = G_s \cdot t_s$$

II – 2. Singan suvning bir qismini parlanishi uchun ketgan issiqlik:

$$Q \cdot \dot{W}_i (2493 + 1,97 t_{sr})$$

bu yerda:  $\dot{W}_i$  – namunaviy o'lchash (tarozida) natijasida anilanadi: asosan o'ra kameralarida zinch betonlarni namlik ishlovida ular massasining 1 %ni tashkil etadi ( $\dot{W}_i = 0,01 \cdot \gamma_b \cdot V_n$  ), kassetada namlik ishlovida esa 5 % ).

II – 3. Buyumlarni qizdirish jarayoni yakunida qolgan va suvni issitishga sarflangan issiqlik:

$$Q_{2v} = G_{2v} \cdot S_v \cdot t_v$$

bu yerda :

$$G_{2v} = G_v - \dot{W}_i.$$

II – 4. Armatura qizdirishga ketadigan issiqlik:

$$Q_{2a} = G_a \cdot S_a \cdot t_a$$

II – 5. Qolip metalini qizdirishga ketadigan issiqlik:

$$Q_{2m} = Q_m \cdot S_m \cdot t_m$$

II – 6. Qizdirish yakunida material elementlarini o'rab turuvchi uchun sarflangan issiqlik.

O'ra kamerasi.Umumiy ko'rinishda:

$$Q_{2akk.} = 7.2\lambda_i \overline{F}_i(t_{cp} - t_1) \sqrt{\frac{\tau_n}{a_i} \pi}$$

Devorni qizdirishga:

$$Q_{cm.akk.} = 7.2\lambda_{cm} \overline{F}_{cm}(t_{cp} - t_1) \sqrt{\frac{\tau_n}{a_{cm}} \pi}$$

Polni qizdirishga:

$$Q_{no.nakk.} = 7.2\lambda_{no.n} \overline{F}_{no.n}(t_{cp} - t_1) \sqrt{\frac{\tau_n}{a_{no.n}} \pi}$$

Qopqog'ni qizdirishga:

$$Q_{kp.akk.} = 7.2\lambda_{kp} \overline{F}_{kp}(t_{cp} - t_1) \sqrt{\frac{\tau_n}{a_{kp}} \pi}$$

$$Q_{2akk.} = Q_{st.akk.} + Q_{pol.akk.} + Q_{kr.akk.}$$

bu yerda:  $F$  – to'siq maydoniga mos keluvchi yuza,  $m^2$  ;

$\lambda$  - issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti,  $Vt/(m \cdot {}^{\circ}s)$

a - issiqlik o'tkazish koeffitsienti,  $m^2$  soat - to'suvchi materiallarga asosan ilova – 5 dan tanlanadi.

b) Kasseta. Konstruktiv asoslariga ko'ra kasseta uskunasi uchun-  $Q_{akk.}$  . Qolip metalini qizdirish uchun sarflanadigan issiqlikni aniqlash kerakdir. Kassetaning boshqa konstruktsiyasi uchun  $Q_{2m}$  dan 10 % issiqlik sarflanadi, u xolda :

$$Q_{2akk.} = 0,1 Q_{2m}$$

II – 7. Kamera to'sig'i atrofidagi muhit uchun sarflangan issiqlik:

$$Q_{2o.str.} = 3,6 \sum T_i \cdot a_i \cdot \Delta t_i$$

bu yerda :  $T_i$  - to'siq yuzasi bo'lib, undan issiqlik yo'qoladi,  $m^2$ ;

$a_i$  – kamera yasalgan materialning issiklik o'tkazuvchanlik koeffitsienti,  $Vt/m \cdot {}^{\circ}s$ .

$\Delta t_i$  - kamera ichki muxitida va xavosining xarorat farqi,  ${}^{\circ}s$ .

II – 8. Par kondensatida eltuvchi issiqlik.

$$Q_{2kond.} = G_{kond.} \cdot i_{kond..}$$

Kondensat entalpiyasi –  $i_{kond} \approx 4,19 t_{er}$ , ga teng, kondensat miqdori -  $G_{kond} \approx 0,75 G_n$ , kg.

G – 9. Kamera issiqlik eltuvchilari va boshqa choklaridan par xavoli muxim -  $Q_{vib}$  . dan sarflanadigan issiqlik , birinchi etapda barcha issiqlik sarfi yig'indisining 10 – 20 % ni tashkil etadi:

$$Q_{2\text{vib.}} = 0,1 \div 0,2 \sum Q_{\text{rasx.}}$$

Issiqlik balansining birinchi etapida berilgan issiqlik va sarflangan issiqlik yig'indisini o'zaro tenglashtirish natijasida bu etap uchun issiqlik (par) miqdorini aniqlaymiz.

Issiqlik balansi 2 – chi etapi xuddi shu tartibda bo'ladi.

Birinchi va ikkinchi etaplar uchun par sarfi yig'indisi issiq-namlik ishlab beruvchi buyumlarni miqdoriga taqsimlangan bo'lib, kameralar ishlashining – parning solishtirma sarfining iqtisodiy ko'rsatkichlari anglash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalari. Ukuv kulkanma TAKI. Toshkent 2012.

### **9-10 ma'ruza:Quritishning moxiyati. Quritish uskunalari. Oquvchan materiallar va shamlarni quritish uskunalari.**

#### **Reja:**

1. Quritish jarayonining nazariy asoslari.
2. Quritish uskunalari. Oquvchan materiallar va shamlarni quritish uskunalari.

**Tayanch so'zlar:** Quritish jarayoni, Oquvchan materiallar, SHlamlarni quritish. Quritish – materialdan fizik – mexanik va fizik – kimyoviy namlikni yukotishdir.


Namlik bilan materialning o'zaro bog'liqligining shakllari:

- Kimyoviy - nisbatan mustaxkam, aniq belgilangan miqdorda mavjud bo'ladi, yuqori haroratlari jarayonlarda yo'kotiladi.
- Fizik –kimyoviy bog'liklik- mustaxkamligi nam, moddaning tuz qobikli kislotalarida bo'ladi, 200° S gacha bo'lган haroratda yo'qotiladi.
- Fizik- mexanik bog'liklik- nisbatan kuchsiz, modda g'ovaklari, kapilyarlarida anik bo'lмаган miqdorda bo'ladi, 105-150° S gacha bo'lган haroratda yo'qotiladi.

Quritish maqsadi:

- Hamma sopol mahsulotlar ma'lum mustaxkamlikka erishish uchun quritiladi.
- Hamma issiqlik ximoya mahsulotlari mustaxkamlikka erishish uchun tayyor mahsulot omboriga yuborishdan oldin kuritiladi.
- Namlikni kamaytirish uchun hamma sochiluvchan materiallar (masalan, beton tuldiruvchilari) kuritiladi.
- Sochiluvchan materiallar maydalinishdan olddin elektr energiyasi safini kamaytirish uchun kuritiladi.

Quritish jarayoni grafigi



$$G = G_c + W$$

G- nam material vazni,  $G_c$  -quruq material vazni, materialning nisbiy namligi:  
 $W=W/G \cdot 100\%$

Materialning nisbiy namligi:

$$\omega = W/G_c \cdot 100\%$$

Tartibidagi namlik:

$$U_c = W_i/G_{ci}; \text{ kg/kg}$$

Boshlangich harorati to, tarkibidagi namligi  $U_0$ , Quritish tezligi go bulagn material muxit harorati const bo'lgan gaz muxitiga kiritiladi. Quritish tezligini namlik miqdori belgilaydi, namlik vakt birligida bug'lanadi.

$\tau_1$ - material kizdirilishi, bunda harorat  $t_1$  gacha oshadi.  $U_1$  gacha namlik tushib ketadi, Quritish tezligi  $g_1$  gacha oshadi.

$\tau_2$ -Quritishning birinchi davri,  $t=t_{mat}=\text{const}$ , tarkibidagi namlik kritik kattalik bo'ladi, Quritish tezligi doimiy bo'ladi.

$\tau_3$  - material Quritishni ing ikkinchi davri, bunda material harorati keskin oshadi va atrof - muxit haroratiga yetadi. Ramlik teng kattalikkacha tezlik  $= > 0$  gacha tushadi, Quritishninig ikkinchi davri quritish jarayonini tugallaydi.

### Sochiluvchan, bo'lakli materiallar va quritish qurilmalari


Quritish uskunalarini sinflanishi ish tartibi bo'yicha:

davriy haroratli quritgichlar; to'xtovsiz harakatdagi quritgichlar; ishlov beriladigan material turi : sochiluvchan; oquvchan va donali, varaqsimon mahsulotlar;

Konstruktsiyasi bo'yicha: sachratuvchan osilgan holda bosim ostida havo oqimi vositasida quritish; barabanli; tunelli; kantaktli; quritish maydalagichli.

Sochiluvchan va bulakli materiallar uchun quritgichlar.

1.Barabanli quritgichlar – o'z o'qi atrofida aylanuvchi gorizont o'qiga  $4-5^0$  qiya, g'ovakli barabandir.




**18-pacM.**

- 1) aylanayotgan baraban ishchi bushligi;
- 2) tayanch bandajlari ;
- 3 ) vintli shesternya;
- 4) rolikli tayanch;
- 5) kamera oldi joyi;
- 6) zichlash xalqalar;
- 7-9 – tayyor mahsulot konveyeri;
- 8) tsiklonlar;
- 12) puflaydigan ventilyator;
- 13) Yokilg'i yokish forsunka yoki gorelkasi;
- 14)ishkorli yopish joyi;
- 15) surib oluvchi ventilyator.


Tutun, gaz va xom ashyo orasidagi issiqlik almashinishini yaxshilash uchun bararbanning ichki bo'shlig'i quyidagi issiqlik almashinuv uskunalari bilan ta'minlanadi.

1. Qaytarma- belkurakli sistema yirik bo'lakli materiallar uchun qo'llaniladi, baraban diametri oshganda gaz havo aralashmasining yoyilishi sodir bo'ladi.




**19-pacM**

2. Sektorli sistema kam sochiluvchan katta zichlikli materiallar uchun qo'llaniladi.




**20-pacM**

3. Yopiq o'chirish sistemasi materialning yoyilishga moyil yupqa va fraktsiyalari uchun qo'llaniladi.




4. Oquvchan materiallar(shlamlar)ni qurutishda halqali pardalarda qo'llaniladi. Halqali pardalarda bir vaqtning o'zida issiqlik uzatuvchi va maydalovchi agregat bo'lib xizmat qiladi.




22-пачм

sxemasi

a)tug'ri oqim



b)karama-karshi oqim



23-пачм


Quritish agentidan keluvchi harorat qarama -qarshi oqimda,tug'ri oqimdagiga nisbatan past bo'ladi, demak qarama -qarshi oqimda issiqlik energiyasini nisbatan to'liq ishlatalish mumkin. Material qarama-qarshi oqimda tug'ri oqimdagiga qaraganda ko'prok kiziydi. Hamma materiallarni ham qarama- qarshi oqim bilan quritib bo'lmaydi. Tug'ri oqim bilan gipsli tosh va loy quritiladi. CHunki materialning yuqori harorati gipsli toshni ajralib ketishiga, loyni degidratatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Barabanli quritkichlarda issiqlik sarfi 4000-6000 kDj/kg namlik bug'lanishini tashkil qiladi. Barabanli quritgich ichida material turish vakti kuyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$T = \frac{d}{2} \cdot 60$$

Kaynagan qatlamda quritgich

Quritish uchun mayda fraktsiyali sochiluvchan materiallar qo'llaniladi. Quritgichlarni alohida xususiyatlari quritish va sinflanish fraktsiyalar bo'yicha sodir bo'ladi.




24-расм. Қайнаған қатламда қуритгич

- 1) puflaydigan ventilyator;
- 2) yokilg'i yokish gorelkasi;
- 3) yokilg'i yokish pechi;
- 4) aralashtirish kamerasi;
- 5) quritish kamerasi bug'doyli panjarasi tagiga yonuvchi gazlarni keltirish;
- 6) quritish kamerasi ishchi hajmi;
- 7) bug'doyli panjara;
- 8) material uzaytirish oqimi joyi;
- 9) tayyor mahsulot artish joyi;
- 10) tsiklonlar;
- 11) tayyor mahsulot konveyerlari ;
- 12) konveyerli o'ra;
- 13) so'rvuchи ventilyator;
- 14) yopgich.

Puflaydigan ventilyator kuvvatini oshirish uchun quritgichlar elektr energiyasining katta sarfini talab qiladi. Puflaydigan ventilyator quvvatini pasaytirish uchun bug'doysimon panjaraga vibrator ulanadi, bu vibrator qushimcha qatnaydigan qatlama hosil kiladi. Bunday quritgichlar vibro qaynaydigan qatlamlı quritgichlar deyiladi.

Oquvchan materialarni shlam va suspenziyalarni quritish uchun mo'ljallangan quritgichlar.

- 1) kontaktli quritgichlar;




25-расм

- 2) ishchi basseyн;
- 3) o'z uqi atrofida aylanuvchi barabanlar;
- 4) yumshoq varaqsimon po'latdan yasalgan pichoqlar.

Bu quritgichlarning asosiy yutug'i ixtiyoriy tashuvchini qo'llash mumkin (bug', issik suv), chunki issiqlik tashuvchi quritilayotgan material bilan bevosita kontaktga kiritishmaydi.

Suspenziyalar uchun minorali turdagи qurilmalari




26-расм. Суспензиялар учун минорали турдаги қурилиш қурилмалари

A - tuguni sachratishi uchun markazdan qochuvchi disk

- 1) disk korpusi;
- 2) disk lakenkasi;
- 3) disk qopqogi;
- 4) suspenziya sig'ish belkuraklari;
- 5) disk likopchasiga suspenziya uzatish;
- 6) ventilyator bosimi ostidagi issiq tutunli gazlarni uzatish;
- 7) qurilish kamerasini ichki minorasi;
- 8) tayyor mahsulotni tushirish yopish joyi;
- 9) tayyor mahsulot konverlari;
- 10)tsiklonlar;

- 11) so'rvuchi ventilyator;
- 12) puflaydigan ventilyator.

SHakllangan mahsulotlar uchun quritish uskunalari



**27-расм.Шаклланган маҳсулотлар учун  
қуритиш ускуналари**

- 1) kamerali quritgichlar;
- 2) quritish uskunasi;
- 3) issiqlik himoya devori;
- 4) shakllangan mahsulot taglighleri;
- 5) quritish agentligi;
- 6) quritish kanallari.


#### Quritish agentini chiqarish kanallari

Balandligi 3,5 m bo'lgan kamerali quritgichlar 10 ta qator yuklashga mo'ljallangan. Kamera uzunligi 10,15m ni tashkil qiladi. 20,30 donadan bloklarga birikadi va quritish agentligi ta'minotiga ega.

Kamerali quritgichlar - davriy harakatdagi quritgichlar bo'lib quritgichlarning butun bloki birdaniga yuklanadi. Quritish agenti kameraga kirib, devor bo'yicha yuqoriga ko'tariladi. Mahsulotni qizdiradi, keyin sovib, havo yo'li markazi orqali chikariladi. Quritish tezligini tekislash uchun kameraning urta qismi cho'kish zichligiga ega bo'ladi.

Kamerani quritgichlarda g'ishtning qurish vaqtini 2-3 sutkani tashkil qiladi. Quritish tugagandan so'ng hamma kameralar mahsulotlardan tozalanadi, mahsulotlar bilan yuklanadi, tsikl takrorlanadi.

Tunelli quritgichlar. To'xtovsiz harakatli quritgich tunel ko'rinishda bo'ladi. Uning bir tomonidan mahsulot yuklanadi, ikkinchi tomonidan mahsulot tushiriladi. Tunel uzunligi 10 m dan 100 m gacha bo'lishi mumkin, tunel eni yo'llar soniga bog'lik. Tunel balandligi mahsulot o'lchagich qavatlar soniga bog'lik. Mahsulotlarni ketma-ket joylashtirganda tunel balandligi 1-2 m ga teng. Mahsulotllar ikki qavat qilib joylashtirganda tunel balandligi 2,5-3 m ga teng.




**28-расм. Қуритиши агентини чиқарыш каналлари**

- 1) tunelli quritgich ishchi kamerasi;
- 2) quritgich agentini keltirish uchun kanal;
- 3) shibir- surgich;
- 4) quritish agentini chiqarish uchun kanal;
- 5) itargichlar;
- 6) devor issiqlik himoyasi;
- 7) mahsulotlar yuklash tagligi;
- 8) shtabelli yotqizgich;
- 9) konventrli tagchali sadka;
- 10) vertikal xolatdagi tagliklar.

Shtabelli yotqizish mahsulot mustahkamligi yetarli bo'lganda qo'llaniladi. SHundagina ularni ustma - ust taxlash mumkin. Mahsulot mustaxkamligi kichik bo'lganda tengchali yotqizish mumkin bo'ladi.

Shtabelli yotqizish quyidagicha bo'lish kerak:

- 1) zich, tunel ishchi xajmini sinash uchun;
- 2) mustaxkam, vagentkalar itarilagnda buzilmasligi uchun;
- 3) gazni bir tekisda utkazish kerak;



**30 а-расм. Варақсимон маҳсулотлар учун қуриткичлар**

- 1) ishlangan quritish agentini chikarish uchun havo utkazgichlar;
- 2) ventilyatorlar;
- 3) kuritilayotgan agentni qizdirish kaloriferlyari;
- 4) kameraga kuritiladigan agentni uzatish havo utkazgichlari;
- 5) tayyor mahsulotni harakatlanishi uchun profilaktik vositalar;
- 6) qatlamsimon mahsulotlar;
- 7) quritish kamerasini qushimcha isitish registirlari.

Qatlamsimon mahsulotlar deb - katta tashqi yuzali va kichik qalinlikka ega bo’lgan mahsulotlarga aytiladi: quruq gips, yog’och tolali plitalar, yog’och chiqindili plitalar. Bunday mahsulotlar quritish uskunasida yoriqlar hosil qilmasdan butun yuzasi buylab bir tekisda qizdirish imkonin beradi. 6 qavatli quritgich tunel tipidagi to’xtovsiz harakat qiluvchi uskuna bo’lib, tunel uzunligi 6-7 m, eni 3,5m, balandligi 3,7 m ga teng. Tunel uzunligi buyicha 3ga bo’linadi: qizdirish; birlamchi quritish; quritishning ikkinchi davri.

Birinchi qarama-qarshi oqim bo'yicha, ikkinchi va uchinchi tug'ri oqim bo'yicha ishlaydi. Qatlamlı mahsulotlar har bir kavatga yuklash ko'rikchasi vositasida uzatiladi va transportyor lentalarida harakatlanadi. Quritish kamerasi oxiridagi yuklash qismida ishlov berilgan mahsulotlar ventilyator tomonidan tanlab olinadi. Qizdirish uchun kaloriferga uzatiladi. Kizdirish oxiridagi har bir qavat taqsimlagich havo yullariga o'tkaziladi. Kaloriferdagи tanlash, qizdirish va quritgichga uzatish ikkinchi va uchinchi uchun bir xildir. Quritish kamerasida mahsulotlar bo'lish vaqtiga to'g'ri keladi, bu vaqt quritish grafigida aniqlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunlari. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

## **11-ma'ruzalar: Kuydirishning nazariy asoslari. TSement klinkerining kuydirish jarayoni**

1. Kuydirishning nazariy asoslari.
2. TSement olish uchun xom ashylar tarkibi.

Tayanch so'zlar: Kuydirish, TSement, Xom ashyo, Alit, Belit, Selit.

Portlandsement bu klinkerni mayda kilib tuyib olingan maxsulotdir. Klinker xom ashyo aralashmasini ( $75\% \text{ CaSO}_3$  – oxaktosh va  $25\%$  gil tuprok) pishgunicha kizdirib, tarkibida kaltsiy silikat ( $70\ldots80\%$ ), alyuminat va alyumoferrit fazalari ( $20\ldots30\%$ ) xosil bulgandagi donador maxsulotdir. Maydalab tuyish vaktida klinkerga  $3\ldots5\%$  mikdorida gips kushiladi.

TSementga suv kushib aralashtirilgan vaktda tarkibidagi gips suvda eriydi. TSementni suv bilan uzaro birikish jarayonida (gidratatsiya vaktida) gips uch kaltsiyli alyuminat bilan boglanib  $3\text{CaO} * \text{Al}_2\text{O}_3 * 3\text{CaSO}_4 * 31\text{N}_2\text{O}$  – gidrosulfoalyuminat kaltsiy deb ataladigan yukori sulsfatl Kurinishga ega bulgan, tabiy etringitga uxshash mineralga aylanadi. Gidrosulfoalyuminatni xosil bulishi tsementni kotishini 3-5 soatga sekinlashtirishga imkon beradi.

Xom ashyo. Portlandsement olish uchun tarkibida kaltsiy karbonat va alyumosilikati kup bulgan xom ashyo ishlataladi. Bularga oxaktosh yoki bur va giltuprok jinslari va tarkibida karbonat va alyumosilikati kup bulgan oxakli mergellar kiradi.

Uzbekistondagi tsement zavodlarida xom ashyo sifatida asosan oxaktosh va giltuprok ishlataladi.

Klinkerning kimyoviy tarkibi, massa buyicha % xisobida kuyidagichadir:

$\text{SiO}_2$  –  $20\ldots24$ ;  $\text{Al}_2\text{O}_3$  –  $4\ldots7$ ;  $\text{Fe}_2\text{O}_4$  –  $2\ldots6$ ;  $\text{CaO}$  –  $62\ldots68$ .

Ularni umumiyligi  $95\ldots97\%$  bulishi kerak.

Ilgari aytilganida gidravlik boglovchi moddalar xam xavoda, xam suvda kotish xususiyatiga egadir. Bularga portlandsement va uning turlari, xamda gidravlik oxak kiradi. Bulardan tashkari shlaklar kollar, tabiiy tog jins va moddalari asosida olingan bir kancha gidravlik boglovchi moddalar xam kiradi.

Bu boglovchi moddalar tarkibida kaltsiy silikat, kaltsiy alyuminat va kaltsiy ferritlarni borligi, ularga gidravlik xossalalarini beradi.

Portlandsement ishlab chikarish.

Portlandsement ishlab chikarish texnologiyasi asosan xom ashyo tayyorlash, uni kuydirib pishirish (klinker olish) va tuyib kukun shakliga keltirishdan iborat. Portlandsement ishlab chikarishni ikki xil usuli mavjud – xul va kuruk. Xul usulda xom ashylar maydalangandan sung, ularni tegirmonlarda suv bilan birga tuyiladi. Bunda

tarkibida 35...45% suv bulgan okuvchan massa – shlam xosil buladi. Kuruk usulda xom ashyo kiritilib, sung tuyiladi.

Portlandsementni xul usul buyicha ishlab chikarayotganda asosiy texnologik operatsiyalarni kay tartibda bajarish sxemasi kuyidagicha buladi:

Kuruk usulda pishirish uchun xul usulga karaganda yokilgan 30...40% kam sarflanadi. TSement ishlab chikarishda, ma'lumki tsement narxini 28-30% yokilgan narxi tashkil kiladi. Bundash tashkari, kuruk usulda tsement ishlab chikarishda kuvvati 6000...10000 t/sutkaga teng bulgan pechlar kurish imkonи bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.

2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.

3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalar. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

## **12-ma'ruzalar: TSement klinkerining kuydirish jarayoni**

Reja:

1. Xo'l va quruq usulda tsement ishlab chiqarish texnologiyasi.

2. TSement klinkerini kuydirish jarayoni. Xom ashyoni tayyorlash.

Tayanch so'zlar: Xo'l va quruq usul, TSement klinkeri, Xom ashyo, Maydalash, Kuritish, Pishirish.

Karъerdan keltirilgan xom ashyo yirikligi 5 mm gacha kilib maydalanadi. Kattik jinslar tosh maydalagich mashinalarida, yumshoklari esa (tuproq, bur) suv bilan maxsus xovuzda korishtirib maydalanadi.

Xovuzda xosil bulgan shlam deb ataluvchi kotmoksimon butka kuvur orkali tsilindr shaklidagi aylanma tegirmonga yuboriladi.

Pulat yoki chuyon sharchalar solingan tegirmon xar dakikada 28 marta aylanadi va natijada undagi 35-45% gacha bulgan shlam mayda kilib tuyiladi. Tuyilgan shlamning kimyoviy tarkibini tugrilash uchun uni uzatuvchi kuvurlar orkali shlam saklagich xovuzlarga yuboriladi va oksidlar mikdori laboratoriyyada aniklanadi.

Pishirish. Tayyorlangan xom ashyo materiallari aylanma pechlarda pishiriladi. Pechъ kattik pulat listlardan yigilgan uzun tsilindr bulib, uning ichki kismi utga chidamli material bilan koplangan. TSilindr uzunligi 185...230 m, diametri 5-7m. Aylanma pechъ maxsus tayanchlarga bir tomonga nishab (4°) kilib urnatiladi. Aylanish tezligi dakikasiga 1-2,5 aylanishga teng.

Xom ashyo namligi 34-40% bulgan shlam sifatida pechning yukori kismiga tushadi. Uning nishab tomonidan esa bosim ostida issiklik manbaidan olanga yuboriladi. Pechning tuxtovsiz aylanishi xisobiga xom ashyo asta-sekin yukori xarorat tomon siljiydi.

Asosiy fizik-kimyoviy jarayon aylanma pechda kuydirish vaktida ruy beradi. Bu jarayonlarni kurib utamiz.

Kuritish kismida.  $70\ldots200^\circ\text{S}$  xaroratda xom ashyo kuritiladi, aylanma pechda asta sekin siljib mayda-mayda donalarga aylanadi va u kizib tarkibidagi gigroskopik namlik parlanib chikib ketadi.

Isitish kismida.  $200\ldots700^\circ\text{S}$  xaroratda xom ashydagi organik aralashmalar yonadi, gil tuprok minerallaridagi kimyoviy boglangan suv parlanib chikib ketib suvsiz kaolinit –  $\text{Al}_2\text{O}_3 * 2\text{SiO}_2$  xosil buladi.

Parchalanish (dekarbonizatsiya) kismida.  $700\ldots1100^\circ\text{S}$  xaroratda kaltsiy va magniy karbonatlar  $\text{SaO}$ ,  $\text{MgO}$  va  $\text{SO}_2$  ga ajraladi, giltuprokdagi alyumosilikatlar  $\text{SiO}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va  $\text{Fe}_2\text{O}_4$  ga ajraladi. Xosil bulgan kattik xolatdagи kaltsiy oksid kimyoviy boglanib, past asosli silikatlar –  $2\text{SaO} * \text{SiO}_2$ , kaltsiy alyuminat va kaltsiy ferrit  $2\text{SaO} * \text{Fe}_2\text{O}_4$  larni xosil kiladi.

Ekzotermik jarayonlar kismida.  $1100 \ldots 1300^\circ\text{S}$  xaroratda kuyidagi birikmalar xosil buladi: uchkaltsiyli alyuminat  $3\text{SaO} * \text{Al}_2\text{O}_3$ , turt kaltsiyli alyumoferit  $4\text{CaO} * \text{Al}_2\text{O}_3 * \text{Fe}_2\text{O}_4$ , lekin kaltsiy oksidning bir kismi ozod boglanmagan xolda koladi. Bu davrda donachalar tulik xosil bulib ulguradi.

Kuydirish kismida.  $1300\ldots1450^\circ\text{S}$  xaroratda aralashma bir oz eriydi. Bunda  $3\text{CaO} * \text{Al}_2\text{O}_3$ ;  $4\text{CaO} * \text{Al}_2\text{O}_3 * \text{Fe}_2\text{O}_4$ ;  $\text{MgO}$  va tez eruvchi kushimcha aralashmalar eriydi.  $2\text{CaO} * \text{SiO}_2$  va  $\text{CaO}$  eritmada aralashib, uzaro kimyoviy birikadi va klinkerning asosiy minerali  $3\text{CaO} * \text{SiO}_2$  ni xosil kiladi.

Sovutish kismida. Klinkerni xarorati  $1000^\circ\text{S}$  gacha tushiriladi, klinkerni tarkibi, tuzilishi turgun xolga keladi.

Klinker maxsussovutgichlarda tezlik bilan sovutiladi, bu esa yirik kristallar xosil bulishini oldini oladi, kaysiki tayyor maxsulotning suvgaga chidamliliginini pasaytirib yuborishi mumkin.

Maydalash. Klinker omborlarda (1...2 xafta) saklangandan sung, unga ikki molekula suvli gips kushib maydalab tuyiladi. Xosil bulgan tayyor portlandsementni saklash uchun siloslarga va kuriish inshootlariga junatiladi.

Kukun shaklidagi xom ashyo tsiklonli kuritgichlarga kelib tushadi, u yerda chikib ketayotgan issik gazlar bilan isitiladi va dekarbonizatorga junatiladi.  $\text{SaSO}_3$  ajralgandan sung pechlarga uzatiladi va klinker xosil bulish jarayoni davom etadi.

Issiklik – yokilgi sarfini iktisod kilish borasida kuruk usul ancha samaralirok xisoblanadi.

Klinkerning tarkibi.

TSement tarkibidagi oksidlar pishirish jarayonida kuyidagi asosiy birikmalarga aylanadi (5-chi jadval).

Jadval 5

#### Portlandsement klinkerning mineralogik tarkibi

| Mineralni nomi                      | Yozilish formulasi   | Mikdori, % |
|-------------------------------------|--|------------|
| Uch kaltsiyli silikat (alit)        | $3\text{SaO} * \text{SiO}_2(\text{C}_3\text{S})$                                   | 40...60    |
| Ikki kaltsiyli silikat (belit)      | $2\text{CaO} * \text{SiO}_2(\text{C}_2\text{S})$                                   | 14...40    |
| Uch kaltsiyli alyuminat             | $3\text{CaO} * \text{Al}_2\text{O}_3(\text{C}_3\text{A})$                          | 5...15     |
| Turt kaltsiyli alyumoferit (tselit) | $4\text{CaO} * \text{Al}_2\text{O}_3 * \text{Fe}_2\text{O}_3(\text{C}_4\text{AF})$ | 10...20    |

Izox: kavslarda klinker minerallari formulasining kiskartirilgan ifodasi berilgan.

Uzaro birikmasidan erkin xolatda kolgan  $\text{SaO}$  tsement tarkibida 1% dan oshmasligi kerak. Aks xolda uta kuygan  $\text{SaO}$  kotgan tsementda kristallanib, unda darzlar xosil kiladi.

Uch kaltsiyli silikat ( $S_3S$ ) tsementning mustaxkamligini oshiradi, kuyuklanish va kotish jarayonini esa tezlatadi; ikki kaltsiyli silikat ( $S_2S$ ) tsementning kotish jarayonini sekinlashtiradi; uch kaltsiyli alyuminat ( $S_3A$ ) tez kuyuklanish va kotish xususiyatiga ega; turt kaltsiyli alyumoferrit uzidan urtacha issiklik ajratib chikaradi, mustaxkamligi buyicha alit va belit mustaxkamligi urtasidadir.

Agar tsement klinkeri tarkibida  $S_3S$  kup bulsa – alitli,  $S_2S$  kup bulsa – belitli,  $S_3A$  kup bulganda esa alyuminatli (yoki tsementli) deb ataladi. Bular dan tashkari, klinker tarkibida oz mikdorda  $MgO$ ,  $Na_2O$  va  $K_2O$  lar uchraydi.

Kotishi. TSementni suv bilan korishtirgandan keyin unda gidrolizlanish (suvda parchalanish) va gidratatsiyalanish (suvni biriktirish) deb ataluvchi murakkab fizikkimyoviy uzgarishlar boshlanadi.

Akademik A.A.Baykov tsementning kotish jarayonini uchta – erish davri, kolloid xolatga utish davri va kristallanish davrlariga buldi. Oxirgisi tsement xamiri mustaxkamligining usishi bilan ifodalanadi.

Gidratatsiya vaktida portlandtsement klinkeri minerallari suv bilan kuyidagicha boglanadi:

$$3CaO \cdot SiO_2 + (n+1)H_2O \rightarrow 2CaO \cdot SiO_2 \cdot nH_2O + Ca(OH)_2;$$
$$2CaO \cdot SiO_2 \cdot nH_2O \rightarrow 2CaO \cdot SiO_2 \cdot nH_2O;$$
$$3CaO \cdot Al_2O_3 + 6H_2O = 3CaO \cdot Al_2O_3 \cdot 6H_2O;$$
$$4CaO \cdot Al_2O_3 \cdot Fe_2O_3 + nH_2O = 3CaO \cdot Al_2O_3 \cdot 6H_2O + CaO \cdot Fe_2O_3 \cdot (n-6)H_2O.$$

Erish davri. 1 soatdan 3 soatgacha bulgan vaktida tsement zarrachalari suv bilan xullanadi va ustki kismidan boshlab erish boshlaydi; vakt utishi bilan tuyigan eritma xosil buladi.

Kolloidatsiya davrida eritmadiagi gidratli yangi xosilalar tuyinishi ortib boradi, ularni suvda erishi juda kamdir. Xosil bulgan eritma yangi xosilalar uta tuyigan xolatda buladi. Gidratli yangi xosilalar mayda kolloid zarrachalar – submikrokristallar – eritmadan ajralib tsement gelini xosil kiladi. Gellarning kup mikdorda xosil bulishi tsement xamirini kuyuklanishiga olib keladi. Bu tsement bilan suvni aralashtirgandan taxminan 3...5 soatdan sung ruy beradi. Gelъ yelimsimon yopishkoklik xususiyatiga ega bulib, u tsement zarrachalarini yoki tuldirgichlar bulgan takdirda ularni xam uzaro yopishtiradi. Natijada tsement xamiri kuyuklashadi va uz plastikligini yukotib, asta-sekin kota boshlaydi.

TSement kanchalik mayda tuyilsa va kotish jarayonidagi xarorat yukori bulsa, uning kotishi shuncha tezlashadi.

Kristallanish davrida tsementni suv bilan birikishi (gidratatsiya) davom etadi, xosil bulgan gelъ kristall usimtalarga aylanadi. Kristallarni mikdori va xosilalar bilan yuzasi ortib boradi, bu esa tsement toshini mustaxkamligini ortishiga olib keladi. TSement anik mikdordagi suv (tsement massasidan 25-30%) bilan kimyoviy birikish xususiyatiga ega. Xamma kolgan suv suyuk xolatda koladi, betonni kurishi bilan suv parlanadi, natijada tsement toshi tarkibida mayda-mayda govaklar xosil buladi, bu esa tsement toshini mustaxkamligini va chidamligini pasayishiga olib keladi.

Portlandtsementni kotish jarayoni, uni tashkil etuvchilarni suvda erishi kiyin bulganligi uchun, uzok muddat davom etadi (oylar va yillar).

Birok vakt utishi jarayonida mustaxkamlikni ortishi sekinlashadi. SHuning uchun tsementni sifatini, 28 sutka kotishi natijasida olgan mustaxkamligi buyicha baxolanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunlari. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.


### 13-ma'ruza: Bug' bilan ishlov beri rejimi.

#### Reja:

1. Issiqlik-namlik bilan ishlov berish.
2. Bug' yordamida qotishni tezlashtirish.
3. Bug' bilan ishlov berish.


**Tayanch so'zlar:** Issiqlik-namlik, Bug', Normal atmosfera.

Issiqlik-namlik bilan ishlov berish usullari bug'lash jarayoni ba'zi bosqichlarining uzunligi va izotermik qizitish harorati bilan xarakterlanadi. Betonga issiqlik-namlik bilan ishlov berish uning qurilish-texnik xususiyatlari, tsement va issiqlik quvvati sarfi bilan bevosita bog'liqdir. Umumiyligida bug'lash tsikli 4 davrga bo'linadi: dastlabki bosqich – buyumga shakl berilgandan boshlab kameradagi harorat osha boshlagan vaqtga qadar; kameradagi harorat oshgan vaqt; izotermik qizitish – belgilangan eng yuqori haroratda ushlab turiladigan vaqt; sovutish davri – kameradagi haroratning pasayish vaqt. Qotish rejimi alohida davrlarning umumiyligida miqdorini bildiradi. Bug'lash rejimi ma'lum cheklardan kelib chiqqan holda talab etilgan kriteriyaga qarab belgilanadi. Bunday kriteriya xarajatlarning kam bo'lishi, mahsulot tannarxini kamaytirish, tsement sarfining kam bo'lishi va hokozo bo'lishi mumkin. Bug'lash vaqtida keltirilgan xarajatlarning eng kam miqdoriga bug'lash boshlangandan so'ng tahminan 6-8 soatdan so'ng erishiladi. Biroq bunda tsement sarfi oshadi (4.1-rasm). Misol uchun, kassetalarda M 400 betondan ishlangan buyumni bug'lash vaqtiga 10 soatdan 6 soatga kamaytirilganda 400 markali portlandtsement sarfi 30%, 500 markali tsementniki esa 26 % oshgan.



4.2-rasm. S/TS=0,45 bo'lgan beton mustahkamligining izotermik ishlov berish vaqtiga qarab o'zgarishi (rejim: 2+3+5+2 soat, 80°С)  
1 – oddiy tezqotuvchi portlandtsement; 2 – 400 markali oddiy

portlandtsement; 3–400 markali SHPTS (shlakoportlandtsement); 4 – 300markali oddiy SHPTS



4.3-rasm. Portlandtsement asosidagi beton mustahkamligini oshib borishi

a- $t=100^{\circ}\text{S}$ ; b- $t=80^{\circ}\text{S}$ ; b- $t=60^{\circ}\text{C}$

1 –beton qorishmasining bikirligi 100 s; 2 – shuning o’zi, 30-60 s; 3 – konusning cho’kishi 3 sm

Issiq bilan ishlov berishdan oldin buyumni ma’lum vaqt davomida ushlab turish betonga issiqni qabul qilish imkonini beradigan zarur strukturani hosil qiladi. Dastlabki ushlab turish vaqtining qancha bo’lishi betonni dastlabki qotish tezligiga ta’sir qiluvchi barcha omillarga bog’liq bo’ladi. Betonning dastlabki qotish tempi qancha yuqori bo’lsa uni dastlabki ushlab turish vaqtini ham shunchalik kam bo’lishi mumkin. Bu vaqt 1-2 soatdan 4-8 soatgacha bo’ladi. Qotishni tezlashtiruvchilar qo’shilganda dastlabki ushlab turish vaqtini ham kamaytirish mumkin. Kamerada haroratni oshirish tezligi doimiy va o’zgaruvchan bo’lishi mumkin. Birinchi holatda haroratning ko’tarilish soatiga 30 darajadan, ikkinchi holatda esa soatiga 20 darajadan oshiq bo’lmasligi kerak. Ba’zi holatlarda betonni dastlabki ushlab turish maqsadga muvofiq bo’lmaydi yoki uni amalga oshirish qiyin bo’ladi va u haroratli-cho’kish darzlarini hosil qiladi. Bunday sharoitda harorat sekin asta oshib boradigan rejimlar qo’llaniladi. Bunday rejimning mohiyati shundaki, beton mustahkamligi oshib borishi bilan harorat ham oshiriladi. Masalan, birinchi soatda – 10 daraja/soat, ikkinchi soatda - 15 daraja/soat va hokzo.

Betonni dastlabki mustahkamligiga qarab haroratni oshirish tezligi

| Бетоннинг<br>(сиқилгандаги)<br>дастлабки<br>мустаҳкамлиги,<br>МПа | Камерада<br>ҳароратнинг<br>ошиб бориш<br>тезлиги,<br>даражасоат | Бетоннинг<br>(сиқилгандаги)<br>дастлабки<br>мустаҳкамлиги,<br>МПа | Камерада<br>ҳароратнинг<br>ошиб бориш<br>тезлиги,<br>даражасоат |
|---|---|---|---|
| 0,1-0,2   | 10-15   | 0,4-0,5   | 25-25   |
| 0,2-0,4   | 15-25   | 0,5-0,6<br>0,6  | 35-45<br>45-60  |

6-jadvalda betonning siqilgan vaqtidagi dastlabki mustahkamligiga qarab kamerada haroratni ko'tarib borish tezligi ko'rsatilgan. Har qanday holatda ham haroratni soatiga  $60^{\circ}\text{S}$  dan oshirish tavsiya etilmaydi. Haroratni sekin asta yoki bosqichma-bosqich ko'tarib borish rejimi tsement sarfini ko'paytirmasdan beton qotishini 2-3 soatga kamaytirish imkonini beradi va bu holat buyum tannarxini tushiradi. Monolit konstruktsiyalarni ishlatish keng tarqalgan sharoitda beton qorishmalarini dastlab elektr bilan qizitish usuli keng tarqalmoqda. Zavod sharoitidagi ishlab chiqarishda bug' bilan qizdirish ko'proq qo'llaniladi.

Dastlabki qizdirish issiqlik bilan ishlov berish tsiklini 2-3 soatga kamaytiradi. Yirik panelli qurilish sharoitida qizdirilgan qorishmani ishlatish qoliplarga ishlatiladigan metallni  $2\text{-}3\text{kg/m}^3$  kamaytiradi va buyum tannarxini kamaytiradi. Beton qorishmasi odatda  $85\text{-}95^{\circ}\text{S}$  qizdiraladi. Qorishma harorati  $60\text{-}65^{\circ}\text{S}$  bo'lganda betonning qotish tezligi keskin kamayadi. Biroq beton qorishmasini qizdirish energiya quvvat manbaini oshirish va betonni aralashtiruvchi moslama konstruktsiyasini murakkablashtirishni talab etadi. Harorat o'sishi bilan beton qorishmasini tashish va qoliplarga solish vaqtida uning harorati tushishi tezlashadi.

SHuning uchun ba'zi holatda qorishmani past haroratda qizdirish tavsiya etiladi. Beton mustahkamligi intensiv oshib boradigan issiqlik namlik bilan ishlov berish jarayonining asosiy bosqichi izotermik qizdirish hisoblanadi (4 va 5-rasmlar). 7-jadvalda issiqlik-namlik bilan ishlov berish vaqt, beton markasi va nazorat namunalarini sinab ko'rib muddatiga qarab  $400\text{-}500$  markali portlandtsement va shlakoportlandtsementli og'ir beton mustahkamligining oshib borishi ko'rsatilgan. Kamerada issiqlik yaxshi izolyatsiyalangan sharoitda 2-4 soat ushlab turilgandan so'ng bug' jo'natishni to'xtatish mumkin va bunda kameradagi haroratning tushishi soatiga  $4\text{-}6^{\circ}\text{S}$  dan oshmaydi. Issiqlik bilan ishlov berishni qisqartirish va tsement sarfini kamaytirish uchun kamerada ortiqcha bosim bo'lishi va havo nisbiy namligining oshib borishi yaxshi ta'sir qiladi.

Issiqlik-namlik bilan ishlov berilgan og'ir beton mustahkamligining  
oshishi

| Лойхавий<br>мустахкамлик 28<br>кунлик<br>холатидаги | Таҳлилий<br>олинган СД<br>кўрсаткич | Иссиқлик -<br>намлик билан<br>ишлов беришни<br>умумий цикли | Иссиқлик - намлик билан ишлов<br>берилгач лойихада белгиланганига<br>нисбатан бетон мустахкамлиги, % |        |         |         |
|---|-------------------------------------|---|--|--------|---------|---------|
|   |                                     |   | 0,5<br>соат  | 4 соат | 12 соат | 24 соат |
| M200  | 1,5-1,3                             | 5   | 20-30  | 30-40  | 34-44   | 38-48   |
|   |                                     | 7   | 33-43  | 40-50  | 43-53   | 48-58   |
|   |                                     | 9   | 41-51  | 47-57  | 50-60   | 55-65   |
|   |                                     | 11  | 47-57  | 52-62  | 55-65   | 60-70   |
|   |                                     | 13  | 52-62  | 56-66  | 60-70   | 62-72   |
|   |                                     | 16  | 55-65  | 58-68  | 62-72   | 64-74   |
| M300  | 2-1,7                               | 20  | 57-67  | 60-70  | 63-73   | 65-75   |
|   |                                     | 5   | 28-38  | 35-45  | 38-48   | 41-51   |
|   |                                     | 7   | 38-48  | 45-55  | 48-58   | 50-60   |
|   |                                     | 9   | 47-57  | 52-62  | 55-65   | 58-68   |
|   |                                     | 11  | 52-62  | 57-67  | 60-70   | 63-73   |
|   |                                     | 13  | 56-66  | 60-70  | 64-74   | 66-76   |
|   |                                     | 16  | 60-70  | 63-73  | 66-76   | 68-78   |
|   |                                     | 20  | 62-72  | 65-75  | 68-78   | 70-80   |

Sovuqqa chidamliligi yuqori bo'lishi talab etilgan buyumlarga bug'lashni yumshoqroq rejimi tavsiya etiladi: dastlab ushlab turish 5-8 soat, kamerada haroratning oshishi esa soatiga 10-15 °S dan oshiq bo'lmasligi kerak; maksimal mustahkamlikka yetgunga qadar izotermik tutib turish 80°S oshmasligi lozim; haroratni tartibga solingan holda buyum yuzasi suv bilansovutib turiladi.

Dastlabki kuchlanish yo'qolishining oldini olish uchun harorat o'zgarishi va izotermik qizitishning maksimal harorati har biri uchun 65 va 80°S dan oshmasligi va beton issiqlik bilan ishlov berilishdan oldin 02,-0,6 MPa mustahkamlikka yetgunga qadar ushlab turilishi kerak. Qisish kuchini uzatish vaqtida betonni Sovutish meyori 7-jadvalda keltirilgandan oshmasligi kerak.

#### Siquvchi kuchni uzatish vaqtida betonni Sovutish chegarasi

| Арматура   | Бетон<br>маркаси       | $\gamma = \frac{L_H}{L_y}$ коэффициент холатида рухсат<br>этиладиган совутиш, °C |          |          |          |
|--|------------------------|--|----------|----------|----------|
|  |                        | 2  | 4        | 6        | 8        |
| Етти симли эшилган арқонлар, мустахкамли симли арматура Қиздириб прокатланган стерженли арматура | M300-M500<br>M200-M400 | 10<br>15   | 15<br>19 | 20<br>21 | 25<br>25 |

$L_H$  – armaturani qizdiriladigan qismining uzunligi;  $L_Y$  – stend tirkagichlari orasidagi armaturaning umumiy uzunligi Konstruktsion issiqni saqlovchi yengil beton buyumlarga ishlov berilganda rejimga qo'shimcha talab qilib, oldindan belgilangan jo'natish namligini ta'minlash qo'yiladi. SHu maqsadda isitish turli isitgichlar asosidagi kameralarda, harorat  $125-150^{\circ}\text{S}$  bo'lган sharoitda amalga oshiriladi. Issiqlik bilan ishlov berishning bug'siz usullari bug'lashdagiga nisbatan namlikni 2 marta kamaytiradi.

Mustahkamligi yuqori bo'lган yengil betonlar uchun, jo'natishda namlik talablari qo'yilmagani uchun, quruq rejimlarni ishlatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Issiqni saqlovchi yengil betonlarga issiqlik bilan ishlov berish rejimi belgilanganda talab etilgan markadagi beton bilan yengil to'ldiruvchi mustahkamligi o'rtasidagi nisbatni hisobga olish kerak bo'ladi. G'ovak to'diruvchining mustahkamligi qancha yuqori va uning betondagi ulushi qancha kam bo'lsa yengil betonning qotishdagi mustahkamligini oshish tezligi shuncha yuqori bo'ladi. Belgilangan mustahkamlikka erishish uchun yengil beton og'ir betondan ko'ra kamroq vaqt issiqlik bilan ishlanadi.

Nazorat savollar:

- 1.Bug' bilan betonni kotirish xaqida gapirib bering.
- 2.Bug' bilan ishlov berish vaqtlarini aytib bering.
- 3.Bo'g' bilan ishlov berish qanday o'tadi.
- 4.Issiqlik-namlik bilan ishlov berish usullari.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalar. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

#### **14-ma'ruza: Qotishni tezlashtirish usullari.**


**Reja:**

1. Issiqlik-namlik bilan ishlov berish.
2. Bug' yordamida qotishni tezlashtirish.
3. Bug' bilan ishlov berish.


**Tayanch so'zlar:** Issiqlik-namlik, Bug', Normal atmosfera.

Issiqlik-namlik bilan ishlov berish usullari bug'lash jarayoni ba'zi bosqichlarining uzunligi va izotermik qizitish harorati bilan xarakterlanadi. Betonga issiqlik-namlik bilan ishlov berish uning qurilish-texnik xususiyatlari, tsement va issiqlik quvvati sarfi bilan bevosita bog'liqdir. Umumiyligida bug'lash tsikli 4 davrga bo'linadi: dastlabki bosqich – buyumga shakl berilgandan boshlab kameradagi harorat osha boshlagan vaqtga qadar; kameradagi harorat oshgan vaqt; izotermik qizitish – belgilangan eng yuqori haroratda ushlab turiladigan vaqt; sovutish davri – kameradagi haroratning pasayish vaqt. Qotish rejimi alohida davrlarning umumiy saotdagi miqdorini bildiradi. Bug'lash rejimi ma'lum cheklardan kelib chiqqan holda talab etilgan kriteriyaga qarab belgilanadi. Bunday kriteriya xarajatlarning kam bo'lishi, mahsulot tannarxini kamaytirish, tsement sarfining

kam bo'lishi va hokzo bo'lishi mumkin. Bug'lash vaqtida keltirilgan xarajatlarning eng kam miqdoriga bug'lash boshlangandan so'ng tahminan 6-8 soatdan so'ng erishiladi. Biroq bunda tsement sarfi oshadi (4.1-rasm). Misol uchun, kassetalarda M 400 betondan ishlangan buyumni bug'lash vaqtiga 10 soatdan 6 soatga kamaytirilganda 400 markali portlandtsement sarfi 30%, 500 markali tsementniki esa 26 % oshgan.



4.2-rasm. S/TS=0,45 bo'lgan beton mustahkamligining izotermik ishlov berish vaqtiga qarab o'zgarishi (rejim: 2+3+5+2 soat, 80°C)  
 1 – oddiy tezqotuvchi portlandtsement; 2 – 400 markali oddiy portlandtsement; 3 – 400 markali SHPTS (shlakoportlandtsement); 4 – 300 markali oddiy SHPTS



4.3-rasm. Portlandtsement asosidagi beton mustahkamligini oshib borishi

$$a-t=100^{\circ}\text{C}; b-t=80^{\circ}\text{C}; c-t=60^{\circ}\text{C}$$

1 – beton qorishmasining bikirligi 100 s; 2 – shuning o'zi, 30-60 s; 3 – konusning cho'kishi 3 sm

Issiq bilan ishlov berishdan oldin buyumni ma'lum vaqt davomida ushlab turish betonga issiqni qabul qilish imkonini beradigan zarur strukturani hosil qiladi. Dastlabki ushlab turish vaqtining qancha bo'lishi

betonni dastlabki qotish tezligiga ta'sir qiluvchi barcha omillarga bog'liq bo'ladi. Betonning dastlabki qotish tempi qancha yuqori bo'lsa uni dastlabki ushlab turish vaqtini ham shunchalik kam bo'lishi mumkin. Bu vaqt 1-2 soatdan 4-8 soatgacha bo'ladi. Qotishni tezlashtiruvchilar qo'shilganda dastlabki ushlab turish vaqtini ham kamaytirish mumkin. Kamerada haroratni oshirish tezligi doimiy va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Birinchi holatda haroratning ko'tarilish soatiga 30 darajadan, ikkinchi holatda esa soatiga 20 darajadan oshiq bo'lmasligi kerak. Ba'zi holatlarda betonni dastlabki ushlab turish maqsadga muvofiq bo'lmaydi yoki uni amalga oshirish qiyin bo'ladi va u haroratli-cho'kish darzlarini hosil qiladi. Bunday sharoitda harorat sekin asta oshib boradigan rejimlar qo'llaniladi. Bunday rejimning mohiyati shundaki, beton mustahkamligi oshib borishi bilan harorat ham oshiriladi. Masalan, birinchi soatda – 10 daraja/soat, ikkinchi soatda - 15 daraja/soat va hokozo.

Betonni dastlabki mustahkamligiga qarab haroratni oshirish tezligi

| <b>Бетоннинг<br/>(сиқилгандаги)<br/>дастлабки<br/>мустаҳкамлиги,<br/>МПа</b> | <b>Камерада<br/>хароратнинг<br/>ошиб бориш<br/>тезлиги,<br/>даражасоат</b> | <b>Бетоннинг<br/>(сиқилгандаги)<br/>дастлабки<br/>мустаҳкамлиги,<br/>МПа</b> | <b>Камерада<br/>ҳароратнинг<br/>ошиб бориш<br/>тезлиги,<br/>даражасоат</b> |
|--|--|--|--|
| <b>0,1-0,2</b>   | <b>10-15</b>   | <b>0,4-0,5</b>   | <b>25-25</b>   |
| <b>0,2-0,4</b>   | <b>15-25</b>   | <b>0,5-0,6</b>   | <b>35-45</b>   |
|  |  | <b>0,6</b>   | <b>45-60</b>   |

6-jadvalda betonning siqilgan vaqtdagi dastlabki mustahkamligiga qarab kamerada haroratni ko'tarib borish tezligi ko'rsatilgan. Har qanday holatda ham haroratni soatiga  $60^{\circ}\text{S}$  dan oshirish tavsiya etilmaydi. Haroratni sekin asta yoki bosqichma-bosqich ko'tarib borish rejimi tsement sarfini ko'paytirmasdan beton qotishini 2-3 soatga kamaytirish imkonini beradi va bu holat buyum tannarxini tushiradi. Monolit konstruktysiylarini ishlatish keng tarqalgan sharoitda beton qorishmalarini dastlab elektr bilan qizitish usuli keng tarqalmoqda. Zavod sharoitidagi ishlab chiqarishda bug' bilan qizdirish ko'proq qo'llaniladi.

Dastlabki qizdirish issiqlik bilan ishlov berish tsiklini 2- 3 soatga kamaytiradi. Yirik panelli qurilish sharoitida qizdirilgan qorishmani ishlatish qoliplarga ishlatiladigan metallni  $2-3\text{kg/m}^3$  kamaytiradi va buyum tannarxini kamaytiradi. Beton qorishmasi odatda  $85-95^{\circ}\text{S}$  qizdiraladi. Qorishma harorati  $60-65^{\circ}\text{S}$  bo'lganda betonning qotish tezligi keskin kamayadi. Biroq beton qorishmasini qizdirish energiya quvvat manbaini oshirish va betonni aralashtiruvchi moslama konstruktysiylarini murakkablashtirishni talab etadi. Harorat o'sishi bilan beton qorishmasini tashish va qoliplarga solish vaqtida uning harorati tushishi tezlashadi.

SHuning uchun ba'zi holatda qorishmani past haroratda qizdirish tavsiya etiladi. Beton mustahkamligi intensiv oshib boradigan issiqlik namlik bilan ishlov berish jarayonining asosiy bosqichi izotermik qizdirish hisoblanadi (4 va 5-rasmlar). 7-jadvalda issiqlik-namlik bilan ishlov berish vaqtini, beton markasi va nazorat namunalarini sinab ko'rib muddatiga qarab 400-500 markali portlandtsement va shlakoportlandtsementli og'ir beton mustahkamligining oshib borishi ko'rsatilgan. Kamerada issiqlik yaxshi izolyatsiyalangan sharoitda 2-4 soat ushlab turilgandan so'ng bug' jo'natishni to'xtatish

mumkin va bunda kameradagi haroratning tushishi soatiga 4-6°S dan oshmaydi. Issiqlik bilan ishlov berishni qisqartirish va tsement sarfini kamaytirish uchun kamerada ortiqcha bosim bo'lishi va havo nisbiy namligining oshib borishi yaxshi ta'sir qiladi.

Issiqlik-namlik bilan ishlov berilgan og'ir beton mustahkamligining  
oshishi

| Лойихавий<br>мустахкамлик 28<br>кунлик<br>холатидаги | Тахлилий<br>олинган С/Ц<br>кўрсаткич | Иссиқлик -<br>намлик билан<br>ишлов беринши<br>умумий прили | Иссиқлик - намлик билан ишлов берилгач лойихада белгиланганига<br>нисбатан бетон мустахкамлиги, % |        |         |         |
|--|--------------------------------------|---|---|--------|---------|---------|
|  |                                      |   | 0,5<br>соат   | 4 соат | 12 соат | 24 соат |
| M200   | 1,5-1,3                              | 5   | 20-30   | 30-40  | 34-44   | 38-48   |
|  |                                      | 7   | 33-43   | 40-50  | 43-53   | 48-58   |
|  |                                      | 9   | 41-51   | 47-57  | 50-60   | 55-65   |
|  |                                      | 11  | 47-57   | 52-62  | 55-65   | 60-70   |
|  |                                      | 13  | 52-62   | 56-66  | 60-70   | 62-72   |
|  |                                      | 16  | 55-65   | 58-68  | 62-72   | 64-74   |
|  |                                      | 20  | 57-67   | 60-70  | 63-73   | 65-75   |
| M300   | 2-1,7                                | 5   | 28-38   | 35-45  | 38-48   | 41-51   |
|  |                                      | 7   | 38-48   | 45-55  | 48-58   | 50-60   |
|  |                                      | 9   | 47-57   | 52-62  | 55-65   | 58-68   |
|  |                                      | 11  | 52-62   | 57-67  | 60-70   | 63-73   |
|  |                                      | 13  | 56-66   | 60-70  | 64-74   | 66-76   |
|  |                                      | 16  | 60-70   | 63-73  | 66-76   | 68-78   |
|  |                                      | 20  | 62-72   | 65-75  | 68-78   | 70-80   |

Sovuqqa chidamliligi yuqori bo'lishi talab etilgan buyumlarga bug'lashni yumshoqroq rejimi tavsiya etiladi: dastlab ushlab turish 5-8 soat, kamerada haroratning oshishi esa soatiga 10-15 °S dan oshiq bo'lmasligi kerak; maksimal mustahkamlikka yetgunga qadar izotermik tutib turish 80°S oshmasligi lozim; haroratni tartibga solingan holda buyum yuzasi suv bilansovutib turiladi.

Dastlabki kuchlanish yo'qolishining oldini olish uchun harorat o'zgarishi va izotermik qizitishning maksimal harorati har biri uchun 65 va 80°S dan oshmasligi va beton issiqlik bilan ishlov berilishdan oldin 02,-0,6 MPa mustahkamlikka yetgunga qadar ushlab turilishi kerak. Qisish kuchini uzatish vaqtida betonni sovutish meyori 7-jadvalda keltirilgandan oshmasligi kerak.

Siquvchi kuchni uzatish vaqtida betonni sovutish chegarasi

| Арматура  | Бетон маркаси          | $\gamma = \frac{L_H}{L_Y}$ коэффициент ҳолатида рухсат этиладиган совутиш, °C |          |          |          |
|---|------------------------|---|----------|----------|----------|
|   |                        | 2   | 4        | 6        | 8        |
| Етти симли эшилган арқонлар, юқори мустахкамли симли арматура<br>Киздириб прокатланган стерженли арматура | M300-M500<br>M200-M400 | 10<br>15  | 15<br>19 | 20<br>21 | 25<br>25 |

$L_H$  – armaturani qizdiriladigan qismining uzunligi;  $L_Y$  – stend tirkagichlari orasidagi armaturaning umumiyligi. Konstruktsion issiqni saqlovchi yengil beton buyumlarga ishlov berilganda rejimga qo'shimcha talab qilib, oldindan belgilangan jo'natish namligini ta'minlash qo'yiladi. SHu maqsadda isitish turli isitgichlar asosidagi kameralarda, harorat 125-150 °S bo'lgan sharoitda amalga oshiriladi. Issiqlik bilan ishlov berishning bug'siz usullari bug'lashdagiga nisbatan namlikni 2 marta kamaytiradi.

Mustahkamligi yuqori bo'lган yengil betonlar uchun, jo'natishda namlik talablari qo'yilmagan uchun, quruq rejimlarni ishlatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Issiqni saqlovchi yengil betonlarga issiqlik bilan ishlov berish rejimi belgilanganda talab etilgan markadagi beton bilan yengil to'ldiruvchi mustahkamligi o'rtaisdagi nisbatni hisobga olish kerak bo'ladi. G'ovak to'diruvchining mustahkamligi qancha yuqori va uning betondagi ulushi qancha kam bo'lsa yengil betonning qotishdagi mustahkamligini oshish tezligi shuncha yuqori bo'ladi. Belgilangan mustahkamlikka erishish uchun yengil beton og'ir betondan ko'ra kamroq vaqt issiq bilan ishlanadi.

Nazorat savollar:

- 1.Bug' bilan betonni kotirish xaqida gapirib bering.
- 2.Bug' bilan ishlov berish vaqtlarini aytib bering.
- 3.Bo'g' bilan ishlov berish qanday o'tadi.
- 4.Issiqlik-namlik bilan ishlov berish usullari.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.: [Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalar. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

## **1-ma’ruza: Yoqilg’i. Yoqilg’i haqida umumiy tushunchalar**

### **Reja:**

1. YOqilgi turi va uni yokish. YOqilgi turlari va uning xossalari. YOqilgi tarkiba
2. YOqilgini yonish jarayoni va xisobi
3. YOnish jarayonida issiklik balansi va xarorat

Kurilish materiallari, buyumlari va kurilmalarini ishlab chikarishda issiklik ishlov berish muxim axamiyatga egadir bunda issiklik kurilmalarining issiklik berishda yokilgining yonishdan xosil bulgan tutun gazlar, issik xavo, suv, yog, suv bugi asosiy issiklik beruvchi manba bulib xizmat kiladi. Kurilish buyumlaridan biri bulgan sopol buyum- larni pishirish uchun issiklik beruvchi asosiy manba tutun gazlar xisoblanadi. Tutun gaz- lar yokilgini yokish natijasida olinadi.

YOnuvchi moddalarning kislород bilan birikib issiklik va yoruglik berish xususiyatiga ega bulgan moddalar *yokilgi* deb ataladi. Ammo barcha yonuvchi moddalarni yokilgi deb xisob- lab bulmaydi, masalan organik birikmalardan atseton, benzol, spirt va boshkalar, chunki bu-lar xech kachon yonilgi bulib xisoblanmaydi.

Sanoat xumdonlarida va issiklik generatorlarida yokilgini arzon turlaridan foyda- laniladi. Bunday yokilgilar *texnologik yokilgilar* deb xisoblanadi.

Barcha texnologik yokilgilar kelib chikishiga kura ikki turga bulinadi: tabiiy va sun’iy. Tabiiy yokilgilar tabiatda bevosita uchraydi va tugridan tugri yokilgi sifatida ishlatiladi. Tabiiy yokilgini kayta ishlash natijasida sun’iy yokilgilar olinadi. Agregat xolatiga kura yokilgilar kattik, suyuk va gaz xolatida bulinadi. Barcha yokilgilarning asosiy ximiyaviy tarkibi uglerod, vodorod, kislород va azotdan iboratdir. Bulardan tashkariyokilgi tarkibida oltingugurt, kul va namlikka xam buladi.

YOqilgi sifatida ishlatiladigan moddalarni sinflanishi kuyidagi jadvalda tulik keltirilgandir.

### **YOqilgilarini sinflanishi**

| Kelib chikishiga kura | Agregatlar  |                   | xolatiga kura                                      |
|-----------------------|---|-------------------|--|
|                       | Kattik  | suyuk             |  |
| Tabiiy                | YOgoch, torf, yonuvchan, slanetslar, antrogit, tosh kumir,kungir ku-mir |                   | Tabiiy   |
| Sun’iy                | Koks, yokilgi brikelari chang-simon yokilgilar                          | Mazut solyar yogi | Domnali, kovsli, veftli, stanerli generator gazlar |

YOqilgining asosiy xossalari yonuvchanlik, yonish xarorati, alanganing xarorati. Me- xanik mustaxkamligi, uz-uzidan yonishda mayilligi kiradi.

YOnilgining yonish issikligi issiklik energiyasi mikdori bilan ulchanadi va Q xarfi bilan belgilanadi.

YOkilgining alangalanish xarorati yonish manbai olingandan keyin xam yokilgining yonishi davom etishni ifodalaydi. YOkilgi tarkibidan yonuvchan uchuvchan gazlar kamayishi bi- lan alangalanish xarorati xam oshib boradi.

Kulni yonish xarorati kattik yonlgining asosiy xossalaridan asosiy xossalaridan bi- ri bulib xisoblanadi. Kulning yonish xarorati buyicha turt guruxga bulinadi: oson yonuvchi, yonish xarorati 1433K gacha, urtacha yonuvchan, yonish xarorati 1433-1623K, kiyin yonuvchan, yonish xarorati 1623-1773K va urta bardoshli, yonish xarorati 1733K dan yukori.

Yonilgining mexanik mustaxkamligi kattik yonilgilarga mos bulib, maxtali, aylanma va boshka turdag'i xumdonlarda 8-10 metr kalinlikdagi katlamni bosimi natijasida mayda- lanib ketishni xarakterlaydi.

Yoqilgining uz-uzidan yonishga moyilligi yokilgini tashishi va saklashda muxim axami- yatga ega. Kattik yokilgilarni saklashda ularning xavoda yemirilishi, xavodagi kislorod bi- lan birikib yonishi xususiyatlariga egadir.

YOnganda ko'p miqdorda issiqlik chiqadigan, tevarak atrofdagilarga zararli ta'sir qilmaydigan, issiqlik olish uchun ishlatalishi maksadga muvofiq xamda iqtisodiy jixat- dan foydali bo'lган barcha moddalardan yoqilgi sifatida foydalanish mumkin. Elektr, me- xanik va issiqlik energiyasini olishni asosiy manbai organik yoqilgi hisoblanadi. Hozirgi vaktda yer yuzmda ishlab chikarilayotgan va iste'mol kilinayotgan energiyaning 70% ni organik yoqilgining kimyoviy energiyasi xisobidan va faqat 30% gina suv, shamol, quyosh va atom energiyasidan foydalanish xisobidan olinadi.

Organik yoqilgi energiya manbai bo'lishi bilan bir katorda, u kimyo sanoati uchun mu- xim xom-ashyo xisoblanadi. Organik yoqilg'ilarni qayta ishslash natijasida ko'plab muhim kimyoviy maxsulotlar olinadi. Kazib olingan joyi va ishlatalishiga ko'ra maxalliy yokilgi (torf va slanets) va tashib keltiriladigan yoqilgilar bo'ladi.

YOqilgi tarkibi organik va mineral moddalardan iborat bo'ladi. Organik moddalarga- uglerod (S), vodorod (N), kislorod ( $O_2$ ), azot ( $N_2$ ) va oltinguturt (S) kiradi. Bu kimyoviy ele- mentlar va ular birikmalarining mikdori turli xil yoqilgida turlicha bo'ladi. Masalan, neft' va uning maxsulotlari tarkibi asosan uglerod va vodoroddan tashkil topgan.

YOqilgi tarkibiga yonuvchan elementlar, namlik va yoqilganda kulga o'tadigan minerallarkiradi. YOqilg'ini tarkibi kimyoviy elementlarning massaviy foiz miqdori, namligi va kul miqdori bilan tavsiflanadi.

Qattiq va suyuq yokilgining elementar tarkibini kuyidagicha yozish mumkin:  
 $S+N+S+O+N+A+W=100\%$


YOqilg'inining yonuvchan kismiga uglerod, vodorod va oltingugurt kiradi. YOkilgining yon- maydigan kismiga esa, azot, kislorod, namlik W va yoqilg'i yonganda kulga aylanadigai mine- ral moddalar A kiradi. YOkilgining tarkibi ishchi, kuruq, yonuvchan va organik massalarga ajratiladi. Har bir massa tarkibiga mos

ravishda quyidagidek indekslar beriladi: ishchi i; quruq - q; yonuvchan - yo; va organik- o;

YOqilgi iste'molchiga qaysi xolda berilsa va yondirilsa, shu xolda yoqilgiga ishchi yoqilg'i massasi va elementar tarkibi esa, mos ravishda ishchi massa va ish tarkibi deyiladi. Ishchi massaning elementar tarkibini quyidagicha yozish mumkin.

**Kattiq yoqilgining yonishi.** Kattiq yoqilg'ini yonish jarayoni ketma - ket keladigan kuyidagi bosqichlardan tashkil topgan qizdirish, namlikni bug'lanishi, uchuvchan moddalar- ni ajralishi va koksning hosil bo'lishi, uchuvchan moddalar va koksni yonishi.

Bu bosqichlardan asosiysi, koksni, ya'ni uglerodni yonishi xisoblanadi. Bundan tashqari koksni yonishi qolgan bosqichlarga qaraganda ko'prok davom etadi (yonish vaqtining 90% gacha) va xuddi shu bosqich qolganlari uchun issiqlik sharoitini yaratadi. YOnish bosqichigacha bo'lgan bosqichlar uchun issiqlik sarflanadi. Bu sarflar yonish issiqligining 20 - 25 % gacha bo'lishi mumkin. YOnish to'liq va to'liqmas (chala) bo'ladi. YOqilg'ining yonuvchan elementlari kislород bilan kuyidagicha reaktsiyaga kirishib yonsa, bunday yonish to'liq yonish deyiladi:




bunda Q - yonish vaktida ajralib chiqkan issiqlik miqdori. Bu reaktsiya kilomollarda quyidagicha yoziladi.



yoki



tenglamadan ko'rinish turibdiki, 1 kg utlerodni to'liq yonishi uchun 8/3 kg kislород за- rur bo'ladi. Reaktsiya natijasida 11/3 kg SO<sub>2</sub> xosil bo'ladi va 34,1 MJ issiqlik ajralib chiqadi. Vodorodning yonishi:




yoki




Bu reaktsiyada 1 kg N<sub>2</sub> yonishi uchun 8 kg kislorod zarur bo'ladi, reaktsiya natijasida 9 kgsuv bug'i xosil bo'ladi va 121 MJ/kg issiqlik ajralib chiqadi.

Oltingugurtning yonishi:




yoki




1 kg oltingugurt yonganda 1 kg kislorod sarflanadi. Reaktsiya natijasida esa 2 kg SO<sub>2</sub> hoclil bo'ladi va 9,04 MJ issiqlik ajraladi.

YOnish maxsulotlari ichida yonuvchan elementlar va yonmagan yoqilgi zarralari qolganbo'lsa, bunday yonish to'likmas (chala) yonish deyiladi.

Uglerodning chala yonishi:




yoki



ya'ni 1 kg uglerod chala yolganda  $\frac{1}{2}$  kg kislorod sarflanadi, reaktsiya natijasida esa  $7/3$  kg SO hosil bo'ladi va 10,3 MJ issiqlik ajralib chiqadi.

Hosil bo'lgan utlerod oksidi yonadi:



yoki




ya'ni 1 kg SO yonishi uchun  $4/7$  kg kislorod sarflanadi, reaktsiya natijasida esa  $11/7$  kg SO<sub>2</sub> xosil bo'ladi va 5,1 MJ issiqlik ajraladi.

YOqilg'i to'liq yonganda uglerod, vodorod va oltingugurtning yonishida olinishi mumkin bo'lgan barcha issiqlik chiqadi. YOnish maxsulotlarida yoka yonmaydigan moddalargina: karbo-nat angidrid SO<sub>2</sub>, suv bug'lari N<sub>2</sub>O va oltingugurt angidrid SO qoladi.

YOnuvchi elementlar chala oksidlanganda yonish maxsulotlari bilan birga ko'p mikdorda utlerod (II)-oksid SO, vodorod N<sub>2</sub>, metan SN<sub>4</sub> va yona oladigan boshqa uglevodorodli birik-malar ham chiqib ketadi.

Xozirgi zamon o'txona texnikasida qattiq yoqilg'ini yoqishning asosan to'rt xil usuli - qatlamlili, qaynayotgan qatlamlili, mash'alali va uyurmali yonish usullaridan foydalaniladi (1

- rasm).



1-rasm. Qattiq yoqilgi o'txonalarini tasnifi: a) qatlamlili usul; b) qaynayotgan qatlamliusul; c) mash'alali usul; d) uyurmali usul.

YOnayotgan qatlamlili tuzilishini ko'rib chiqish yonish jarayonini chuqurroq o'rghanish imko-nini beradi (1 - rasm)

Qatlamlili yonish - bu yoqilg'ini panjarali o'tdonda qatlamlab yoqish usulidir.

**2-3-ma'ruza: Davriy ravishda ishlaydigan issiqlik materiallarida beton qotish jarayonini tezlashtirish. CHuqurlik kameralarining tuzilishi va ishlash printsipi.**

**Reja:**

1. Issiqlik kameralarida beton qotish jarayonini tezlashtirish.


## 2. CHuqurlik kameralarining tuzilishi va ishlash printsipi.

**Tayanch so'zlar:** Yonilg'i, Issiqlik kameralari, Beton qotish jarayonini.

Buyumni qizdirish jarayonini avtomatlashtirishdan maqsad, belgilangan issiqlik va namlik darajasini saqlab yuqori sifatlimahsulot olishga erishishdir. Yig'ma temir-beton ishlab chiqariladigan zavodlarda issiqlik bilan ishlov berishni asosiy o'lchamlari masofadan avtomat orqali nazorat qilinadi. SHuningdek, haroart mahsus dastur yordamida lozim darajada saqlab turiladi. Beton qotishini tezlashtirish moslamalarini avtomat yoki yarim avtomat tartibda boshqarish tizimlari ham ishlatilayapti. Yarim avtomat usulida bug' havoli muhit kerakli haroratgacha qiziydi biroq muhitning qanday qizishi belgilanmaydi va zaruratga qarab o'zgaradi. Davriy ishlaydigan yarim avtomat moslamalar haroratni kerakli darajada o'zgartirib turishi uchun bug' bilan ta'minlash tizimiga diafragma va harorat regulyatorlari o'rnatiladi. Izotermik saqlash darajasiga yetganda regulyatorlar haroratni zarur darajada saqlab turadi.

Bunday usulda qizish vaqtida bug' kameraning boshlanish vaqtidagi harorati hisobga olmasdan beriladi.

Issiqliq bilan ishlov berishni avtomatik tartibga solib turish uchun issiqlik beruvchining harorati yoki kondensat haroratini kerakli darajada saqlaydigan moslamalar ishlatiladi. CHuqursimon kameralarda avtomat tartibga solish haroratni kerakli darajada saqlovchi dasturiy moslamalar PRTE-2M(2.30-rasm) yoki ERP-61 ishlatiladi. PRTE-2M regulyatorining ba'zi asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iboratdir: haroratni o'zgartirish oralig'i- 0-100 °S; haroratni ko'rsatish aniqligi ±2,5%; sezuvchanligi- 0,5°S dan kam emas; eng ko'p tartibga solish vaqt- 24 soat; ishlash quvvati- 30 Vt. Regulyatorda kerakli harorat rejimiga qarab tayyorlanadigan kopir bo'ladi. Buyumga bug'ni ma'lum bosimda berib, haroratni kerakli darajada ushlab turib ishlov beriladi. Umumiyligda bug' magistraliga bevosita ishlovchi klapan o'rnatiladi. Harorat rejimi o'zgarishi hollarini ma'lum qilish uchun 397 signalizator qo'yiladi. Bosim pasayganda signalizator regulyatorni elektr quvvatidan uzib qo'yadi va bir vaqtning o'zida kamera ishlamay turgan vaqtini hisobga oluvchi o'lchagich ishga tushadi. Har bir bug'lash chuquridagi harorat o'zgarish rejimi elektron ko'priq diagrammasiga yoziladi. CHuqur kameralarning umumiyligda bug' iste'mol qilishi holatini hisobga olish uchun maxsus moslamalar ishlatiladi.



rasm. PRTE-2M rusumli dasturiy boshqaruvli avtomatika sistemasining printsipli sxemasi

1-boshqaruvi organi; 2-dasturiy boshqaruvchi; 3-avtomatik muqobillashgan ko'priki; 4-datchiklar; 5-bosimni boshqaruvchi

CHuqur kameralarni avtomatlashirganda asosiy tartibga soluvchi qism bo'lib elektrmagnit usulida ishlovchi ventil xizmat qiladi. Ichkaridagi harorat belgilanganidan  $2-2,5^{\circ}\text{S}$  og'ganda dastur ventilni ishga tushiradi. Nazorat savollari

1. Issiqqliq bilan ishlov berish.
2. Buyumni qizdirish jarayoni.
3. Davriy ishlaydigan yarim avtomat.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.: [Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalar. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

#### **4-ma'ruba: Uzluksiz ravishda ishlaydigan vertikal kameralarda betonning qotish jarayonini tezlashtirish. Vertikal kameralalar tuzilishi.**


##### **Reja:**

1. Issiqqlik kameralarda beton qotish jarayonini tezlashtirish.
2. Gorizontal va tonnel kameralarni ishlash printsipi.

**Tayanch so'zlar:** Issiqqlik kameralari, Gorizontal va tonnel kameralar.


Konveyer usulida temir-beton buyumlar ishlab chiqarish uzluksiz moslamalarda amalga oshiriladi. Bularga misol qilib tunnel va vertikal kameralarni keltirish mumkin. Tunnelli kamera gorizontal tunnel ko'rinishida bo'lib unga qo'yilgan relslarda buyum ortilgan vagonetkalar qatnab turadi, buyum ko'targichlar yordamida olinadi va

tushiriladi. Vagonetkalar bir postdan ikkinchisiga turtgichlar yordamida harakatlanadi. Tunnelli kameralar bir yoki ikki yarusli bo'ladi. Ko'p yarusli kameralar ishlab chiqarish maydonlarni sezilarli darajada tejash imkonini beradi. CHunki uning har bir yarusida bitta vagonetkalar poezdiga ortilgan buyum issiqlik ishlov berishdan o'tadi. Isituvchi sifatida bug' yoki caloriferda qizitilgan bug' havoli aralashmasi hizmat qilishi mumkin. Kamera uchta zonaga bo'linadi: haroratni ko'tarish bo'limi, izotermik qizitish va sovutish bo'limi. Har bir zona bir-biridan issiq havoli to'siq yordamida ajratilgan. Kameradagi isitish jihozlari haroratni  $90^{\circ}\text{S}$  gacha ko'tarish va zonalardagi haroratni talab etilgan meyorda saqlab turish imkonini beradi. Kameralarga issiqlik registr va perfoquvurlar bilan yuboriladi. O'tkur bug' isitish zonasining boshlanishi va izotermik qizitish zonasining oxiriga beriladi. Isituvchi sifatida issiq havodan foydalanilganda issiq havo isitish zonasining o'rtaidan so'rib olinadi va venilyator yordamida isitish zonasining boshi va oxiriga jo'natiladi. Kaloriferlar bilan havo  $110-155^{\circ}\text{S}$  gacha qizdiriladi. Tunnel kameralarining asosiy kamchiliklari uning chetidan issiqlarning ko'p yo'qolishidir. Issiq bug' havoli aralashmaning tsexga kirishi va sovuq havoni tortish uchun kameraga havoli to'siqlar o'rnatiladi.



rasm. Uzluksiz ishlaydigan vertikal kamera

1 - kamera to'sig'i; 2- poddonga qo'yilgan buyum; 3-bug' yetkazib beruvchi perfoquvur; 4-etkazib beruvchi aravacha; 5-ko'targich stol



7-rasm. Vertikal kamerali tashqi devor panellari tayyorlovchi konveyer texnologik liniya chizmasi

1 -qoliplarni tozalash va moylash joyi; 2-keramik plita yotqizish; 3-armatura o'rnatish; 4-beton yotqizish va zichlash; 5-tekislash joyi; 6-o'zi yuradigan arava; 7-vertikal kamera; 8-buyum solingan qolip; 9-

gidroko'targich; 10-uzatgich arava; 11-opalubkadan tushirish; 12-g'ildirakli konveyer

Tirqishli kamera tunnelli kameraning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ularning balandligi enidan 4-6 marta kichik bo'ladi. Bunday kameralarning afzal tomoni, ularning chetidan issiqlik kam yo'qoladi. Tirqishli kameralarga bug' bilan ta'minlash va elektr bilan qizdirish moslalari o'rnatiladi. So'ngi usul asosan keramzit beton buyumlar uchun ishlatiladi.

Vertikal yoki minorasimon kameralarda vagonetka- qoliplarga solingan buyum oldin turli isitish zonalaridan yuqoriga ko'tariladi va so'ng pastga tushirilib kameradan tashqariga chiqariladi. Vertikal kameralarda issiqning turli balandlikda tabiiy turlicha tarqalishidan foydalaniladi. Bug' bir maromda bo'ladigan kameraning eng yuqori qismida harorat  $100^{\circ}\text{S}$  da ushlab turiladi. Kameraning pastki qismida bug' havoli aralashma bo'lib harorat  $30-35^{\circ}\text{S}$  dan oshmaydi. Ko'p qavatli tunnelli kameralarga nisbatan vertikal kameralarning afzalligi – ularning hajmi 5-6 marta kam bo'ladi va kam joy egallaydi. Ularning o'ziga xos xususiyati, boshqa kameralarga nisbatan bug' sarfi kam bo'ladi ( $100-120 \text{ kg/m}^3$ ).

Nazorat savollar:

- 1.Tunelli kameralar.
- 2.Tunelli kameralarning boshqa kameralardan farqi.
3. Kameradagi isitish jihozlari harorati.
- 4.Vertikal kamera.
5. Vertikal kameralarda issiqning balandligi

**5-Ma'ruza: Silikat betonlarni yuqori bosim va temperatura yordamida qotishini tezlashtirish. Avtoklavlarni tuzilishi va ishlash printsipi. Vertikal kasseta qurilmalaridan foydalanish. Beton qorishmasini isitish.**

**Reja:**

1. Silikat betonlarni yuqori bosim va temperatura yordamida qotishini tezlashtirish.
2. Avtoklavlarni tuzilish va ishlash printsipi.

**Tayanch so'zlar:** Silikat betonlar, Avtoklav, Betonga issiqlik ishlov berish.

Avtoklav usuli betonga issiqlik ishlov berishning boshqa bir ko'rinishi bo'lib, u beton qotishini tezlashtirish uchun ishlatiladi. Bug'lash usulidan farqli ravishda avtoklavlarda betonning qotishi  $0,9-1,3 \text{ MPa}$  bosimdag'i va  $175-191^{\circ}\text{S}$  to'yintirilgan bug' sharoitida yuz beradi. Oxirgi vaqtarda suv bug'inining harorati  $200-225^{\circ}\text{S}$  ga ko'tarishning samardorligi tasdiqlangan. Haroratni oshirish uchun suv bug'i o'rniga qizdirilgan par va bug' gazli muhitdan foydalanish mumkin. Bizning sharoitda avtoklav usulidan yacheykali beton tayyorlashda keng foydalaniladi. Og'ir avtoklav betonlardan ham buyum va konstruktsiyalar tayyorlanadi. Avtoklav usulining asosiy afzalligi – tsement o'rniga ancha arzon mahalliy bog'lovchi vositalar va turli xom ashyoni, shuningdek sanoat chiqindilarini ishlatish mumkinligidir. Avtoklav usulida ishlov berish

natijasida bog'lovchilar gidratatsiyasi tezlashish sababli betonning qotishi tezlashadi va bundan tashqari, yangi tsementlovchi moddalar – kaltsiy va magniy gidrosilikatlari hosil bo'ladi. Harorat yuqori bo'lgan va bug' bosimi baland sharoitda ushbu birikmalarning sintezi hosil bo'ladi va boshqa holatlarda ular bir-biri bilan birikmaydi. Ko'pincha ohak-kremnezyomli bog'lochilar avtoklav usulida ishlovdan o'tadi. SHuningdek, ohak-shlak, ohak-kul va boshqa kimyoviy faol moddalar avtoklav texnologiyasi bilan ishlanadi. Sxemaga binoan avtoklav ishlov berishning beshta bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi bosqichda bug' berilib avtoklavdagi harorat  $100^{\circ}\text{S}$  ga yetkaziladi. Bu davrda buyumning harorati bug' haroratidan past bo'lgani uchun issiqlik almashish buyum yuzasida kondensat hosil bo'lishi vositasida amalga oshadi. Muhit bilan buyum harorati orasidagi farq  $30-50^{\circ}\text{S}$  ga yetishi zararli natijalarga olib kelishi mumkin. Ikkinchi bosqich avtoklavdagi bosim oshganda, ya'ni  $t > 100^{\circ}\text{S}$  bo'lishi bilan boshlanadi. Bosim oshganda issiqlik almashinishi tezlashadi va buyumni barcha qismi qiziydi. Uchinchi bosqichda buyum ma'lum harorat va bosimda ushlab turiladi. Ushlab turish vaqt 30-60 daqiqaga yetganda buyumni barcha qismidagi harorat bir hil bo'ladi.

Ushlab turish vaqt bosim oshishi bilan kamaytiriladi. To'rtinchi bosqichda bosim kamaya boshlaydi. Bu vaqtda buyum harorati muhit haroratidan baland bo'ladi va shu bois material g'ovaklarida bug' hosil bo'ladi. Bu bosqichda buyumda darz paydo bo'lishi mumkin va bunga yo'l qo'ymaslik uchun avtoklavdagi bosimni imkon qadar sekin kamaytirish kerak. Beshinchi bosqichda buyum harorati  $100^{\circ}\text{S}$  dan meyordagi haroratga qadar tushiriladi. Bunda ham harorat buyumda mikrodarzlar hosil bo'lmaydigan darajada tushirilishi kerak. Ohak va portlandtsement asosidagi bog'lovchilar ishlatilganda izotermik ushlab turishdagi optimal bosim  $1,2-1,6 \text{ MPa}$  hisoblanadi. Sanoat chiqindilari, masalan, nefelin shlami ishlatilganda optimal bosim  $1,6-2 \text{ MPa}$  bo'ladi. Avtoklav ishlov berishning muddati bug' bosimiga bog'liq bo'ladi. Bosim past sharoitda ( $\leq 0,9 \text{ MPa}$ ) izotermik tutib turish muddatining oshirilishi buyum mustahkamligini oshirish imkonini beradi. Bosim yuqori bo'lgan sharoitda esa natija aksincha bo'lishi mumkin. 6-jadvalda yacheykali beton uchun tavsiya etilgan avtoklav ishlov berish rejimlari ko'rsatilgan. Avtoklavdan bug'lash haroratini pasaytiruvchi havoni chiqarish uchun avtoklavga bug' purkaladi. Oxirgi vaqtarda avtoklavdagi harorat va bosimni oldindan havo jo'natmasdan, germetik avtoklavga boyitilgan bug' jo'natish bilan tez ko'tarish taklif etilayapti.


Izotermik ushlab turishning 3-4 soatidayoq harorat bilan to'yintirilgan bug' bosimi orasidagi to'la muvofiqlikka erishiladi. Taklif etilayotgan usul qolipsiz yangi tayyorlangan yoki ochiq qolipdagи buyumni bug'langanda ayniqsa samarali bo'ladi. Haroratning tez ko'tarilishi va avtoklavdagi ortiqcha bosim harorat ta'sirini oshiradi va buyumni barcha yuzasi bir hil qizib beton mustahkamligi ortadi. Bu usul bug'lash rejimini 2-3 soatga kamaytirish imkonini beradi, betonning mustahqamligi,sovuuqqa chidamliligi ortadi, suvshimuvchanligi  $15-20\%$ ga kamayadi. Bosim kamayishi muddatini qisqartirish va bosim kamaygandan so'ng buyum namligini kamaytirish uchun avtoklav muhitini 1-2 soat davomida  $50-60 \text{ MPa}$  ga qadar vakuumlash tavsiya etiladi.

Avtoklav (8-rasm) gorizontal tsilindr shaklidagi gorizontal, payvandlangan idish ko'rinishida, yechiladigan qopqoqli bo'ladi. Avtoklavlar diametri 2,6 va 3,6 m va

uzunligi 20-30 m o'lchamda chiqariladi. Qopqog'i maxsus moslamalar yordamida germetik yopiladi (9-rasm). TSexning joylashish shakliga qarab berk yoki o'tkazuvchi avtoklavlar ishlatiladi.


### Yacheykali betondan tayyorlangan buyumlarga avtoklav ishlov berish tartibi

| Буюм түри   | Давомийлик вақти, соат |                                |                                      |                    |           |
|---|------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|--------------------|-----------|
|   | Иситиш ва бүг пуркаш   | Босимни и 0,8 МПа гача күтариш | 0,8 МПа босим шароитид а ушлаб туриш | Босимни камайтириш | Вакуумлаш |
| Ташқи деворга ишлатиладиган буюмлар   | 0,7-1,5                | 1,5                            | 6-10                                 | 1,5-2              | 0,5-1,5   |
| Горизонтал бүлакларга ажратиш йўли билан тайёрланган буюмлар                                      | 0,7-1,5                | 1,5                            | 5-14                                 | 1,5-2              | 1-1,5     |
| Вертикал бүлакларга ажратиш йўли билан тайёрланган буюмлар  | 0,7-1,5                | 1,5                            | 5-9                                  | 1,5-2              | 1-1,5     |
| Зичлиги 800-1200 кг/м <sup>3</sup> бўлган ички деворлар учун ишлатиладиган ячейкали бетон буюмлар | 0,7-1,5                | 1,5                            | 9-10                                 | 2-3                | 1-1,5     |
| Зичлиги 300-400 кг/м <sup>3</sup> бўлган иссиқни сақловчи буюмлар                                 | 0,7-1,5                | 1,5                            | 5-9                                  | 1,5-2              | 1-1,5     |




rasm. Avtoklavlar

a – berk ko'rinishli; b – o'tkazuvchi; 1-qopqoq; 2-qopqoqni ko'tarish va tushirish mexanizmi; 3-manometr; 4-saqlovchi klapan; 5-korpus; 6, 7, 8-bug'ni chiqaruvchi, bug'ni kirituvchi va kondensatsiyalovchi magistral



rasm. Bayonet yopqichli avtoklav

1 - flanets; 2-flanetsning turtib chiqqan joyi; 3-qopqoq; 4-reduktor dastagi; 5-qopqoq moslamasi; 6-tishli sektor;



rasm. Avtoklavdagi bug' o'tkazgichlar sxemasi

1-bug' beruvchi magistral; 2-bug'ni o'tkazuvchi magistral; 3-bug'ni chiqaruvchi magistral; 4-kondensat magistrali

Nazorat savollar:

- 1.Avtoklav nima.
- 2.Avtoklav ishslash printsipi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Maximova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maximova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalar. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

**6-ma'ruza: Avtoklavlarning tuzilishi va ishslash printsipi. Kontakt usulida issiqlik uzatish yordamida beton qotish jarayonini tezlatish usuli. Vertikal kasseta qurilmalarida kontakt usulida beton qotishini tezlatish.**

1. Kontakt usulida beton qotish jarayonini tezlatish.
2. Vertikal kasseta qurilmalarida beton qotishini tezlatish.


## Tayanch so'zlar: Kontakt usuli, Vertikal kasseta, beton qotishini tezlatish.

Kontakt usulida buyum qalin, o'tkazmas qilib ishlangan devorga taqab qizdiriladi. Bunday usul asosan kassetali qurilmalarda qo'llaniladi. SHakli yassi va murrakab buyumlar tayyorlashga mo'ljallangan vertikal kassetali qurilmalar ayniqsa keng tarqalgan (11-rasm). Kassetali qurilmalarda isituvchi sifatida bug', qaynoq suv, kondensiyalanmaydigan gaz, petrolatum va shunga o'xshash vositalardan foydalanish mumkin. Bug' bo'lmalaring konstruktsiyasi betonni harorat  $95-100^{\circ}\text{S}$  bo'lgan sharoitda qizdirish imkoniyatini beradi va natijada jarayon vaqtini sezilarli darajada qisqaradi. Qolipli bo'lmalarda beton qorishmasini qizdirish vaqtini kamaytirish uchun yuqori bosimdagи bug' bilan qizdirish usuli qo'llaniladi. Bunday sharoitda isitish bo'lmalaring konstruktsiyasi 0,8-1,2 MPa bosimda ishlashga mo'ljallangan bo'lishi kerak.



rasm. Mexanizatsiyalashgan kassetali qurilma

1 -stanina; 2-ajratuvchi devor; 3-panelni qoliplash bo'lmasi; 4-bug' bo'lmasi; 5-tutib turuvchi tirkak; 6-chetki ihotalangan devor; 7-kassetani qisuvchi mexanizm; 8-yurgazuvchi mexanizm; 8-tutib turuvchi vint



rasm. Havo so'rib chiqariladigan kassetani bug' bilan ta'minlash chizmasi


*1 -bo'lmalarga bug' yetkazib beruvchi quvur; 2-berkituvchi ventil; 3-kassetaga bug' yetkazib beruvchi quvur; 4-asosiy bug' ventili; 5- kassetaning issiq bo'lmasi; 6-injektorga bug' yetkazib beruvchi quvur; 7-retsirkulyatsiya quvuri; 8-retsirkulyatsiya quvuri ventili; 9-havo chiqaruvchi ventil; 10-injektor; 11-aylanma quvur ventili; 12-aylanma quvur; 13-retsirkulyatsiya-so'rish tizimi; 14-isitish bo'lmalariiga bug'ni taqsimlash tizimi; 15-purkagich*

Betonni yuqori haroratda qizdirish uchun isitish bo'lmalariida yoqiladigan gazdan, suyuq isitish vositalari va isitish moslamalaridan chiqayotgan gazlardan foydalaniladi. Gaz bilan qizdirilganda isitish bo'lmasidagi harorat baland ushlab turilishi kerak. Buyum suyuq yuqori haroratli isituvchilar bilan qizdirilganda harorat keskin oshishiga erishiladi. Qizitish bo'lmalariidan petrolatum chiqarish kollektoriga quyiladi va so'ng bakka to'planadi. Petrolatum quvurlarda to'xtovsiz aylanib turadi, harorat  $95-100^{\circ}\text{S}$  ga yetganda isituvchi kasseta tashqarisidagi quvurlarda aylana boshlaydi. Temir-beton buyumlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan kasseta texnolgiyasining qator afzallik va kamchiliklari bor. Buyum kassetalarda tayyorlanganda yig'ma detallarning aniqligi yuqori bo'lishiga erishiladi, beton yuzasi tekis bo'ladi.

Betonni kontakt usulida qizdirish natijasi uning mustahkamligi ochiq qolipdagiga qaraganda 10-20% oshiq bo'ladi. Kassetadagi betonni ochiq yuzasi kam bo'lgani uchun harorat tez ko'tarilishiga erishiladi ( $60-70^{\circ}\text{S}$ ). Kassetadagi buyumni oldin ushlab turmasdan qizdirish mumkin va beton harorati kassetali moslamalarda  $100^{\circ}\text{S}$  ga yetadiva bu ko'rsatkich chuqur shakldagi kameralarda  $85-90^{\circ}\text{S}$  dan oshmaydi. Biroq kassetada tayyorlangan betonning mustahkamligi turli balandlikda turlicha bo'ladi. Bu holat isitish tartibi qisqa bo'lganda aynilsa aniq bilinadi. Mustahkamlikning turlicha bo'lishi isitish intensivligi turlichaliligi bilan izohlanadi. Bug' kiradigan joyga yaqin zonalar tezroq qiziydi. Kassetali usulning yana bir kamchiligi qoliplar uchun metallning ko'p ishlatilishi, kassetalarni tozalash va moylashning noqulayligi, qo'zg'oluvchanligi yuqori bo'lgan beton qorishmasini ishlatish zarurligi kiradi. Kassetalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun qator hollarda ikki bosqichli qizitish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi bosqichda buyum yetarli darajada mustahkamlikka erishgunga qadar kasetalarda 5-7 soat qizdiriladi va uning mustahkamligi 5-7,5 MPa ga yetkaziladi.

Ikkinci bosqichda beton chuqurli kamera yoki issiq tutadigan stellajlarda jo'natiladigan darajada qotgunga qadar qotadi. Qizdirishni tezlatish va isitish bo'lmalariida haroratni bir xilda taqsimlash uchun ejektorlardan va bug'ni purkagichlar orqali intensiv yuborish usullaridan foydalaniladi. Buyumni kontakt usulida qizdirish moslamalariga gorizontal termoformalar ham kiradi. Vertikal termoformalardan farqli ravishda ularda buyum yuzasi bir tekis qiziydi. G'ovakli to'ldiruvchilar asosida tayyorlangan yengil betonli devor panellari termoformalarda haroratni 2-3 soat davomida ko'tarish, izotermik tutib turish 3-5 soat davomida  $90-95^{\circ}\text{S}$  da bo'lishi tavsiya etiladi.

Qo'zg'oluvchan gorizontal termoformalarda yirik panelli konstruktsiyalarni qizdirish uchun paketlar tayyorlanadi. Termoforma paketini tayyorlash uchun maxsus paketlovchi moslama ishlatiladi (13-rasm).




rasm. Termoformalni paketlovchi moslama

1-ajratuvchilar; 2-termoformalar; 3-estakada; 4-uzatuvchi vagonetka;  
5-bug'ni jo'natuvchi avtomatik klapanlar; 6-qo'zg'oluvchan ko'tarish stoli;  
7-bug'ni taqsimlash; 8-avtomat tizim mexanizmi ijrochisi


Issiqlik bilan ishlov berish vaqtida paketda isitish muhiti har bir buyum uchun ratsional darajaga keltiriladi. Isitish boshlanganda kerakli bosim bo'ladi, isitish boshida nisbiy namlik 50-60% va qizidirish vaqtida 90-95% bo'ladi. Buyum paketlarda qizdirilganda issiqlik ikki tomondan beriladi. Paketda qizidirilgan buyumlarning mustahkamligi, atmosfera bosimida ishlov berilganiga nisbatan 20-25% oshadi va uning boshqa xususiyatlari ham oshadi. Bunday usul konveyerlarda va asosan yirik panelli qurilishlar uchun buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Texnologik liniya tarkibiga termoqolipli paketlovchilar, qoliplarni tozalash va moylash postlari, qoliplash poslari kiradi.

Bu usul asosan alohida statsionar qoliplarda devorlariga biriktirilgan vibratorlar yordamida beton qorishmasini zichlash uchun qo'llaniladi. Ayrim hollarda zichlash vibrouyg'otuvchilar bilan jihozlangan harakatlanuvchi qoliplarda ro'y beradi. Vertikal vibroqoliplarda trubalar, ventilyatsion bloklar, yashash joylari uchun sanitar-texnik kabinalar, binolarning hajmli elementlari, zinapoyalar, karniz bloklari, balkalar, ichki devorlar panellari, to'siqlarni tayyorlash ratsional hisoblanadi. Bu usul o'lchamlarning yuqori darajada aniqligi, mahsulotlarning qirralarining to'ppa-to'g'riliqi va yon tomonlarining silliqligi bilan farqlanadi. Vertikal vibroqoliplar gorizontal qoliplarga nisbatan ancha murakkab konstruktsiyaga ega, ularda bitta asosiy qoliplanuvchi tesiklik o'rniga kamida ikkitasi mavjud bo'ladi. Bu teksiliklar ikkala vertikal tekis va profilli devorlar yordamida hosil etiladi. Murakkab profilli va quyuq armaturalangan vertikal qoliplarda mahsulotlarni qoliplashda hamma kesimlari bo'ylab bir xil zich tuzilmali betonni hosil qilish qiyin bo'ladi. Bu hollarda qorishma qolipga osilib qo'yiladigan vibratorlar yordamida zichlashtiriladi.



rasm. Kasseta moslamasining sxemasi

1 – ustun, 2 – bo’linmalar, 3 – tortqilar (tyaga), 4 – gioprivod, 5 - tirkaklar




rasm. Kasseta qolipining bo’luvchi listlariga

vibrouyg’otuvchilarni yon tomondan o’rnatilish sxemasi

1 – vibrouyg’otuvchi; 2 – bo’luvchi list; 3 – bug’ bo’linmasi; 4 - maxsulot


O’zaro juft joylashgan otseklarda bir mahsulotni ikkinchisidan ajratib turuvchi ajratuvchi list o’rnatilgan. Otseklarda mahsulotga issiqlik yo’li bilan ishlov berganda bug’larni uzatish uchun yo’lakcha bo’ladi. Moslamalarda 10-12 donagacha mahsulotlar qoliplanadi.



rasm. Yakka tartibdag'i vibroqoliplar


1 – vibrator; 2 – kardan val(o'q)i; 3 – qolipning borti; 4 – maxsulot; 5 – qolipning asosi (poddon); 6 – elektrodvigatelъ; 7 – balka; 8 – amortizator; 9 – dyurit muftasi; 10 – elektrodvigatelъ plitasi; 11 – kronshteyn

Vibrouyg'otuvchilar ajratuvchi devorlarning bortlariga biriktiriladi, ammo ularni ajratuvchi listlarning yuqori qismiga biriktirish ancha samarali (14-rasm) va bu kam harakatlanadigan qorishmalarni ishlatish imkonini beradi. Turli profilli balkalar yakqaqoliplarda tayyorlanadi (15-rasm), bunda tashqi vibratorlar ishlatiladi. Yakka vibroqoliplarning turlaridan biri – blok-xonalar tayyorlanadigan moslamalar. Pastki plitali hajmli bloklar «stakan» turdag'i moslamalarda, yuqori qismi esa – «qalpoq» turdag'i moslamalarda qoliplanadi (16-rasm). Ko'chuvchan sirponuvchi vibroqoliplar (17-rasm) qoliplanadigan mahsulotlar bo'ylab beto'xtov (yoxud izchil) ko'chib yuradigan vibrouyg'otuvchi bilan jihozlangan qolip elementdan iborat; qoliplash jarayonida zudlik bilan qoliplarni yechish amalga oshiriladi.



rasm. "Qalpoq" turidagi xajmiy-qoliplash moslamasi

1 – poydevor ramasi; 2 – serdechnikni yo'naltiruvchi; 3, 5 – serdechniklar; 4 – pnevmoyuk; 6, 7 – mos xoldagi bo'ylama va ko'ndalang shitlar



rasm. Harakatlanuvchi vibroqolipning sxemasi


1 – elektrodvigatelъ; 2 – sinxronizator; 3 – bunker; 4 – vibrosektsiyalar; 5 – vibrobloklar; 6 – stabilizatorlar; 7 – prujinali osqi(podveska)

Tashqi titratishda 40-60sm qalinlikdagi mahsulotlar uchun mahsulotning ust qismiga perpendikulyar 50 Gts chastotasiga ega garmonik 308 chayqalishni qo'llash ancha samarali hisoblanadi. 4-8sm qalinlikdagi quyuq armaturalangan konstruktsiyalarni qoliplashda 66 Gts dan ortiq chastota maqsadga muvofiq bo'ladi. SMJ-93A, 2750/1A, 2750/2A, 2750/3A va 2750/4A yakka vibroqoliplar yordamida vibrogidropresslash usuli bilan 5 m uzunlikdagi bosimli trubalar tayyorlanadi. Bu texnologiya qolip o'zagiga kiydirilgan rezina g'ilofga suv bosimi ostida 8 MPa ichki radial bosim bilan qotish vaqtida betonni siqilishini nazarda tutadi. O'chak kengayib qolipga tortuvsiz joylashtirilgan spiralli armaturani cho'zadi, bu esa gidropresslash jarayonida tashqi qolipni kengayishiga imkon beradi. Tashqi qolip prujinalar bilan boltlar yordamida bog'langan ikki yoxud to'rta qismlardan tashkil topadi.

Qolipga qorishmani zichlashtirish uchun VP-5 pnevmatik vibratorlar o'rnatiladi. Ustki vibrozichlashtirish yig'ma temir-beton sanoatida keng tarqalgan, chunki u mahsulotlarni qoliplash jarayonini butunlay mexanizatsiyalash imkonini beradi. Vibrouzaytiruvchi moslamalarini qo'llash ancha samarali hisoblanadi. Vibrouzatgich qorishmani qolipga joylashtirish va uni vibratsiya ta'siri ostida zichlashtirish jarayonlarini uyg'unlashtiradi. Qoliplash jarayoni ustki vibratsiyaning mahsulotning ustki qismiga ta'siri natijasida kechadi. Vibrouzatgich moslama agregatning titrovchi bunkerida qorishmani oldindan zichlashtirishni va so'ngra qorishma bilan qolip va titratuvchi qolip shakllantiruvchi o'rtasidagi bo'shliqlarni to'dirish imkonini beradi. Qolip va ishchi organ qoliplashda nisbiy ko'chuvchanlikka ega bo'ladi. Vibrouzatgich

gorizontal va vertikal yoxud egri qoliplashda qo'llaniladi. Vertikal sxema ko'chuvchan shitlarda mahsulotlarni tayyorlashda qo'llaniladi. 30-60 s bikirlikdagi beton qorishmasi titrovchi bunkerdan tinimsiz ravishda pastga tushadi, bunda konstruktsiya ham bir tomonidan, ham boshqa tomonidan qoliplanishi mumkin.

Bu usul hajmli elementlarni qoliplashda qo'llaniladi. O'zak vibrouyg'otgich bilan jihozlangan bo'ladi. Keng sathli konstruktsiyalarni tayyorlashda uning qoliplovchi yuza ostiga qorishmaning teng va tekis hamda tez uzatilishi uchun vibrobunkerga tutash chizig'i gorizontga 45 gradus burchak bo'yicha egilishi zarur. Vertikal vibrouuzatgich moslamalarning o'lchamlari vibrobunker hajmiga  $v_b$  qarab belgilanadi.  $v_b$  qoliplanadigan mahsulot hajmi  $v_{mahs}$ . Dan 1,2-1,3 marotaba katta bo'lishi kerak, tinimsiz to'ldirganda esa  $v_b = 0,5v_{mahs}$ . (1,25-1,3). Vibrobunker tirqishining balandligi, sm da quyidagiga teng:  $h_m = 12 + h_b$ . 2387U va 3488, stabilizator bilan jihozlangan vibrouuzatgich moslamasi 15-20 s bikirlikdagi qorishmalardan tayyorlanadigan mahsulotni beto'xtov qoliplaganda qo'llanadi. Bunday moslamalar lentali oziqlantiruvchi statsionar bunkerlar bilan komplektlanishi, shuningdek beton yotkizichlarda o'rnatilishi mumkin. SMJ-475 vibrouuzatgich moslamasi mahsulot enini tartibga soluvchi ilgichlar bilan jihozlangan va qoliplash yakunida qorishmani uzatishni to'xtatadi. Vertikal qoliplash 1385 tipdagi vibrouuzatgich moslamasi kasseta-konveyer liniya tarkibiga kiradi. Har bir tsiklda tayyorlangan qolip qoliplash postiga kelib tushadi. SMJ-40 va KJB-82 vibrouuzatgich moslamalari trubalarni qoliplashga mo'ljallangan. Qorishmani joylash jarayonida, qolip qorishma bilan to'ldirilishi va zichlanishi darjasasi bo'yicha vibro'zak qolipa nisbatan siljiyi.



rasm. SMJ-227 rusumli qoliplash mashinasining sxemasi  
1 – karetka (aravacha); 2 – vibrovkladish (bo'shliq xosil qiluvchilar); 3 – yo'naltiruvchi karetkalar

Ichki vibrozichlashtirish. Ichki vibrozichlashtirishda pnevmatik chuqurli vibratorlar qo'llaniladi. CHuqurli vibratorlar asosan mexanizatsiyalashtirilgan ishlab chiqarishda va qalin armaturalangan mahsulotlarni zichlashtirish uchun yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi. Vibrovladishli moslamalar ikki tomoni ochiq teshiklarga ega bo'lgan mahsulotlarni tayyorlashda qo'llaniladi. Vibrokladishlar muayyan konfiguratsiyadagi qattiq metall korobkalar bo'lib, ularning ichida 96,5 Gts chayqalish chastotali vibratorlar yoxud debalans vallar biriktirilgan bo'ladi. Bevosita zichlashtiriladigan qorishmalarni ichki vibrozichlashtirishda vibroimpul'slarni uzatish hajmli va tashqi vibrozichlashtirishlarga nisbatan energiya sarflanishini pasaytirish imkonini beradi. Vibroo'zakchalar bo'shliqli mahsulotlarni qoliplash uchun ko'plab moslamalarda qo'llaniladi (masalan, SMJ-24, SMJ-227).

Moslamalar vibrovkladish-bo'shliq hosil etuvchilarni qolipga kiritish va ularni yangi quyilgan betondan chiqarib olish mexanizmlari bilan jihozlangan. Ichki titratish 30-45 Gts dagi chastotada vibrovkladishlar bilan olib boriladi. Vibrouyg'otuvchilarning chayqalishlari beton qorishmasining kontaktli yuziga normal bo'lgan tarkibiy qismga ega bo'lishi lozim. Zichlashtirish qatlamining maksimal qalinligi tsilindir qolipda 200 mm va bo'shliq hosil qiluvchi to'g'ri burchakli qolipda 300 mm ni tashkil etadi. Gorizontal holatda konstruktsiyalarni qoliplashda 0,015 MPa dan ko'p bo'lмаган statistik bosimli vibroyukni qo'lash maqsadga muvofiq. Titratish davomiyligi yuksiz 20-40 s va yuk bilan titratish 1,5-3 min 3000 min<sup>-1</sup> chastotada. 4000-4500 min<sup>-1</sup> chastotada zichlashtirish vaqt 1,5-2 marta kamayadi.

Nazorat savollar:

1. Kontakt usulida beton kotirish xaqida gapirib bering.
2. Ustki vibrozichlashtirish.
3. Vertikal kasseta qurilma.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalari. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

## **7-ma'ruza: Beton qorishmasini isitish yordamida issiq qoliplash usulida qotish jarayonini tezlashtirish. Termos usulini moxiyati. Termoqoliplarda beton qotish jarayonini tezlashtirish**

**Reja:**

1. Termoqolip tuzilishi.
2. Termoqoliplarda kotish jarayoni.


**Tayanch so'zlar:** Termoqolip, Termoqoliplarda kotish jarayoni, Qizitish.

Qizitish bo'lmalardan petrolatum chiqarish kollektoriga quyiladi va so'ng bakka to'planadi. Petrolatum quvurlarda to'xtovsiz aylanib turadi, harorat 95-100°С ga

yetganda isituvchi kasseta tashqarisidagi quvurlarda aylana boshlaydi. Temir-beton buyumlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan kasseta texnolgiyasining qator afzallik va kamchiliklari bor. Buyum kassetalarda tayyorlanganda yig'ma detallarning aniqligi yuqori bo'lishiga erishiladi, beton yuzasi tekis bo'ladi. Betonni kontakt usulida qizdirish natijasi uning mustahkamligi ochiq qolipdagiga qaraganda 10-20% oshiq bo'ladi. Kassetadagi betonni ochiq yuzasi kam bo'lgani uchun harorat tez ko'tarilishiga erishiladi ( $60-70^{\circ}\text{S}$ ). Kassetadagi buyumni oldin ushlab turmasdan qizdirish mumkin va beton harorati kassetali moslamalarda  $100^{\circ}\text{S}$  ga yetadiva bu ko'rsatkich chuqur shakldagi kameralarda  $85-90^{\circ}\text{S}$  dan oshmaydi. Biroq kassetada tayyorlangan betoning mustahkamligi turli balandlikda turlicha bo'ladi. Bu holat isitish tartibi qisqa bo'lganda ayniqsa aniq bilinadi.

Mustahkamlikning turlicha bo'lishi isitish intensivligi turlichaliligi bilan izohlanadi. Bug' kiradigan joyga yaqin zonalar tezroq qiziydi. Kassetali usulning yana bir kamchiligi qoliplar uchun metallning ko'p ishlatilishi, kassetalarni tozalash va moylashning noqulayligi, qo'zg'oluvchanligi yuqori bo'lgan beton qorishmasini ishlatish zarurligi kiradi. Kassetalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun qator hollarda ikki bosqichli qizitish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi bosqichda buyum yetarli darajada mustahkamlikka erishgunga qadar kasetalarda 5-7 soat qizdiriladi va uning mustahkamligi 5-7,5 MPa ga yetkaziladi. Ikkinci bosqichda beton chuqurli kamera yoki issiq tutadigan stellajlarda jo'natiladigan darajada qotgunga qadar qotadi. Qizdirishni tezlatish va isitish bo'limalarida haroratni bir xilda taqsimlash uchun ejektorlardan va bug'ni purkagichlar orqali intensiv yuborish usullaridan foydalaniladi. Buyumni kontakt usulida qizdirish moslamalariga gorizontal termoformalar ham kiradi. Vertikal termoformalardan farqli ravishda ularda buyum yuzasi bir tekis qiziydi.

G'ovakli to'ldiruvchilar asosida tayyorlangan yengil betonli devor panellari termoformalarda haroratni 2-3 soat davomida ko'tarish, izotermik tutib turish 3-5 soat davomida  $90-95^{\circ}\text{S}$  da bo'lishi tavsiya etiladi. Qo'zg'oluvchan gorizontal termoformalarda yirik panelli konstruktsiyalarni qizdirish uchun paketlar tayyorlanadi. Termoforma paketini tayyorlash uchun maxsus paketlovchi moslama ishlatiladi (13-rasm).



rasm. Termoformalarni paketlovchi moslama  
1-ajratuvchilar; 2-termoformalar; 3-estakada; 4-uzatuvchi vagonetka;  
5-bug'ni jo'natuvchi avtomatik klapanlar; 6-qo'zg'oluvchan ko'tarish stoli;  
7-bug'ni taqsimlash; 8-avtomat tizim mexanizmi ijrochisi

Issiqlik bilan ishlov berish vaqtida paketda isitish muhiti har bir buyum uchun ratsional darajaga keltiriladi. Isitish boshlanganda kerakli bosim bo'ladi, isitish boshida nisbiy namlik 50-60% va qizidirsh vaqtida 90-95% bo'ladi. Buyum paketlarda qizdirilganda issiqlik ikki tomondan beriladi. Paketda qizidirilgan buyumlarning mustahkamligi, atmosfera bosimida ishlov berilganiga nisbatan 20-25% oshadi va uning boshqa xususiyatlari ham oshadi. Bunday usul konveyerlarda va asosan yirik panelli qurilishlar uchun buyumlar tayyorlashda ishlataladi. Texnologik liniya tarkibiga termoqolipli paketlovchilar, qoliplarni tozalash va moylash postlari, qoliplash poslari kiradi.

Bu usul asosan alohida statsionar qoliplarda devorlariga biriktirilgan vibratorlar yordamida beton qorishmasini zichlash uchun qo'llaniladi. Ayrim hollarda zichlash vibrouyg'otuvchilar bilan jihozlangan harakatlanuvchi qoliplarda ro'y beradi. Vertikal vibroqoliplarda trubalar, ventilyatsion bloklar, yashash joylari uchun sanitар-texnik kabinalar, binolarning hajmli elementlari, zinapoyalar, karniz bloklari, balkalar, ichki devorlar panellari, to'siqlarni tayyorlash ratsional hisoblanadi. Bu usul o'lchamlarning yuqori darajada aniqligi, mahsulotlarning qirralarining to'ppa-to'g'riliqi va yon tomonlarining silliqligi bilan farqlanadi. Vertikal vibroqoliplar gorizontal qoliplarga nisbatan ancha murakkab konstruktsiyaga ega, ularda bitta asosiy qoliplanuvchi tesiklik o'rniga kamida ikkitasi mavjud bo'ladi. Bu teksiliklar ikkala vertikal tekis va profilli devorlar yordamida hosil etiladi. Murakkab profilli va quyuq armaturalangan vertikal qoliplarda mahsulotlarni qoliplashda hamma kesimlari bo'ylab bir xil zich tuzilmali betonni hosil qilish qiyin bo'ladi. Bu hollarda qorishma qolipga osilib qo'yiladigan vibratorlar yordamida zichlashtiriladi.

Nazorat savollar:

1. Petrolatum nima.
2. Termoqolip xaqida so'zlang.
3. Termaforma paketi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. Peregudov V. V. «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:Stroyizdat, 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalari. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

**MA’RUZA VA AMALIY MASHG’ULOTLARNING  
TEXNOLOGIK MODEL VA XARITALARI**

## 1-ma'vzu: Quritishning moxiyati

Quritish agregati tavsifnomalari.

Reja:


1. Quritish jarayoni
2. Quritish maksadi

Quritish – materialdan fizik – mexanik va fizik – kimyoviy

namlikni yukotishdir. Namlik bilan materialning o'zaro bog'liqligining shakllari:

- Kimyoviy - nisbatan mustaxkam, anik belgilapngan miqdorda mavjud bo'ladi, yuqori haroratli jarayonlarda yo'kotiladi.
- Fizik –kimyoviy bog'liklik- mustaxkamligi nam , moddaning tuz kobikli kislotalarida bo'ladi, 200 S gacha bo'lgan haroratda yukotiladi.
- Fizik- mexanik bog'liklik- nisbatan kuchsiz, modda govaklari,kapilyarlarida anik bo'lмаган miqdorda bo'ladi,105-150 S gacha bo'lgan haroratda yukotiladi.
- Hamma sopol mahsulotlar ma'lum mustaxkamlikka erishish uchun kuritiladi.
- Xamma issiqlik ximoya mahsulotlari mustaxkamlikka erishish uchun tayyor mahsulot omboriga yuborishdan oldin kuritiladi.
- Namlikni kamaytirish uchun xamma sochiluvchan materiallar (masalan, beton tuldiruvchilari) kuritiladi.
- Sochiluvchan materiallar maydalanishdan oldin elektr energiyasi safini kamaytirish uchun kuritiladi.

Quritish jarayoni grafigi



$$G = G_c + W \quad (68)$$

G- nam material vazni,  $G_c$  -quruq material vazni,materialning nisbiy namligi:

$$W=W/G \cdot 100\% \quad (69)$$

Materialning nisbiy namligi:

$$\omega=W/G_c \cdot 100\% \quad (70)$$

Tartibidagi namlik:

$$U_c = W_i/G_{ci}; \text{ kg/kg} \quad (71)$$

Boshlangich harorati to, tarkibidagi namligi  $U_0$ , Quritish tezligi go bulagn material muxit harorati const bo'lgan gaz muxitiga kiritiladi. Quritish tezligini namlik miqdori belgilaydi, namlik vakt birligida bug'lanadi.

$\tau_1$ - material kizdirilishi, bunda harorat  $t_1$  gacha oshadi.  $U_1$  gacha namlik tushib ketadi, Quritish tezligi  $g_1$  gacha oshadi.

$\tau_2$ -Quritishning birinchi davri,  $t=t_{mat}=\text{const}$ , tarkibidagi namlik kritik kattalik bo'ladi, Quritish tezligi doimiy bo'ladi.

$\tau_3$  - material Quritishni ing ikkinchi davri, bunda material harorati keskin oshadi va atrof - muxit haroratiga yetadi. Ramlik teng kattalikkacha tezlik  $= > 0$  gacha tushadi, Quritishninig ikkinchi davri quritish jarayonini tugallaydi.

### **Ma'ruzani mustahkamlash uchun savollar**

1. Quritish.
2. Quritish maksadi.
3. Quritish jarayoni grafigi.
4. Nam material vazni.
5. Materialning nisbiy namligi.
6. Material Quritishniing ikkinchi davri.

**3 – ilova**

### **Ma'ruzaning uslubiy ta'minoti**

1. N.A.Maxmudova. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie:- Toshkent, TAQI. 2005
2. Peregudov. V. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie:- Moskva, "Stroyizdat" 1990.

### **2-mavzu: Keramik xom ashyo materiallarni quritish va kuydirish jarayonlari.**

Reja:

1. Keramik materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi.
2. Keramik xom ashyomateriallarni quritish va kuydirish jarayonlari.

Tayanch so'zlar: Keramik materiallar, kuydirish jarayonlari, quritish.

Kar'erdan keltirilgan xom ashyo yirikligi 5 mm gacha qilib maydalanadi. Qattiq jinslar tosh maydalagich mashinalarida, yumshoqlari esa (tuproq, bo'r) suv bilan maxsus xovuzda qorishtirib maydalanadi.

Xovuzda xosil bo'lgan shlam deb ataluvchi qotmoqsimon bo'tqa quvur orqali tsilindr shaklidagi aylanma tegirmonga yuboriladi.

Po'lat yoki cho'yan sharchalar solingan tegirmon xar daqiqada 28 marta aylanadi va natijada undagi 35-45% gacha bo'lgan shlam mayda qilib tuyiladi. Tuyilgan shlamning kimyoviy tarkibini to'g'rakash uchun uni uzatuvchi quvurlar orqali shlam saqlagich xovuzlarga yuboriladi va oksidlar miqdori laboratoriyyada aniqlanadi.

Pishirish. Tayyorlangan xom ashyo materiallari aylanma pechlarda pishiriladi. Pech' qattiq pulat listlardan yig'ilgan uzun tsilindr bo'lib, uning ichki qismi o'tga chidamli material bilan qoplangan. TSilindr uzunligi 185...230 m, diametri 5-7m. Aylanma pech' maxsus tayanchlarga bir tomonga nishab ( $4^{\circ}$ ) qilib o'rnatiladi. Aylanish tezligi daqiqasiga 1-2,5 aylanishga teng.

Xom ashyo namligi 34-40% bo'lgan shlam sifatida pechning yuqori qismiga tushadi. Uning nishab tomonidan esa bosim ostida issiqlik manbaidan olanga yuboriladi. Pechning tuxtovsiz aylanishi xisobiga xom ashyo asta-sekin yuqori harorat tomon siljiydi.

Asosiy fizik-kimyoviy jarayon aylanma pechda kuydirish vaqtida ro'y beradi. Bu jarayonlarni qurib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maxmudova N.A., YUnusov J.YA. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalari. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

### **3-mavzu: CHuqurlik kameralarining tuzilishi va ishlash printsipi**


#### **Reja**

1. Buyumlarni qizdirish jarayonlari
2. Issiqliq bilan ishlov berish

Buyumni qizdirish jarayonini avtomatlashtirishdan maqsad, belgilangan issiqlik va namlik darajasini saqlab yuqori sifatlimahsulot olishga erishishdir. Yig'ma temir-beton ishlab chiqariladigan zavodlarda issiqlik bilan ishlov berishni asosiy o'lchamlari masofadan avtomat orqali nazorat qilinadi. SHuningdek, haroart mahsus dastur yordamida lozim darajada saqlab turiladi. Beton qotishini tezlashtirish moslamalarini avtomat yoki yarim avtomat tartibda boshqarish tizimlari ham ishlatilayapti. Yarim avtomat usulida bug' havoli muhit kerakli haroratgacha qiziydi biroq muhitning qanday qizishi belgilanmaydi va zaruratga qarab o'zgaradi. Davriy ishlaydigan yarim avtomat moslamalar haroratni kerakli darajada o'zgartirib turishi uchun bug' bilan ta'minlash tizimiga diafragma va harorat regulyatorlari o'rnatiladi. Izotermik saqlash darajasiga yetganda regulyatorlar haroratni zarur darajada saqlab turadi.

Bunday usulda qizish vaqtida bug' kameraning boshlanish vaqtidagi harorati hisobga olmasdan beriladi.

Issiqliq bilan ishlov berishni avtomatik tartibga solib turish uchun issiqlik beruvchining harorati yoki kondensat haroratini kerakli darajada saqlaydigan moslamalar ishlatiladi. CHuqursimon kameralarda avtomat tartibga solish haroratni kerakli darajada saqlovchi dasturiy moslamalar PRTE-2M(2.30-rasm) yoki ERP-61 ishlatiladi. PRTE-2M regulyatorining ba'zi asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iboratdir: haroratni o'zgartirish oralig'i- 0-100 °S; haroratni ko'rsatish aniqligi  $\pm 2,5\%$ ; sezuvchanligi- 0,5°S dan kam emas; eng ko'p tartibga solish vaqt- 24 soat; ishlash quvvati- 30 Vt. Regulyatorda kerakli harorat rejimiga qarab tayyorlanadigan kopir bo'ladi. Buyumga bug'ni ma'lum bosimda berib, haroratni kerakli darajada ushlab turib ishlov beriladi. Umumiyligda bug' magistraliga bevosita ishlovchi klapan o'rnatiladi. Harorat rejimi o'zgarishi hollarini ma'lum qilish uchun 397 signalizator qo'yiladi. Bosim pasayganda signalizator regulyatorni elektr quvvatidan uzib qo'yadi va bir vaqtning o'zida kamera ishlamay turgan vaqtini hisobga oluvchi o'lchagich ishga tushadi. Har bir bug'lash chuquridagi harorat o'zgarish rejimi elektron ko'prik diagrammasiga yoziladi. CHuqur kameralarning umumiyligda bug' iste'mol qilishi holatini hisobga olish uchun maxsus moslamalar ishlatiladi.



rasm. PRTE-2M rusumli dasturiy boshqaruvi avtomatika sistemasining printsipli sxemasi

1-boshqaruvi organi; 2-dasturiy boshqaruvcisi; 3-avtomatik muqobillashgan ko'prik; 4-datchiklar; 5-bosimni boshqaruvcisi

CHuqur kameralarni avtomatlashirganda asosiy tartibga soluvchi qism bo'lib elektrmagnit usulida ishlovchi ventil xizmat qiladi. Ichkaridagi harorat belgilanganidan 2-2,5 °S og'ganda dastur ventilni ishga tushiradi.

Nazorat savollari

1. Issiqliq bilan ishlov berish.
2. Buyumni qizdirish jarayoni.
3. Davriy ishlaydigan yarim avtomat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunlari. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.


**4-mavzu: Davriy ravishda ishlaydigan issiqlik kameralarda beton qotish jarayonini tezlashtirish.**

**Reja:**

1. Issiqlik kameralarda beton qotish jarayonini tezlashtirish.
2. Gorizontal va tonnel kameralarni ishlash printsipi.


**Tayanch so'zlar:** Issiqlik kameralari, Gorizontal va tonnel kameralar.

Konveyer usulida temir-beton buyumlar ishlab chiqarish uzlusiz moslamalarda amalga oshiriladi. Bularga misol qilib tunnel va vertikal kameralarni keltirish mumkin. Tunnelli kamera gorizontal tunnel ko'rinishida bo'lib unga qo'yilgan reislarda buyum ortilgan vagonetkalar qatnab turadi, buyum ko'targichlar yordamida olinadi va tushiriladi. Vagonetkalar bir postdan ikkinchisiga turtgichlar yordamida harakatlanadi. Tunnelli kameralar bir yoki ikki yarusli bo'ladi. Ko'p yarusli kameralar ishlab chiqarish maydonlarni sezilarli darajada tejash imkonini beradi. CHunki uning har bir yarusida bitta vagonetkalar poezdiga ortilgan buyum issiqlik ishlov berishdan o'tadi. Isituvchi sifatida bug' yoki kaloriferda qizitilgan bug' havoli aralashmasi hizmat qilishi mumkin. Kamera uchta zonaga bo'linadi: haroratni ko'tarish bo'limi, izotermik qizitish va sovutish bo'limi. Har bir zona bir-biridan issiq havoli to'siq yordamida ajratilgan. Kameradagi isitish jihozlari haroratni  $90^{\circ}\text{S}$  gacha ko'tarish va zonalardagi haroratni talab etilgan meyorda saqlab turish imkonini beradi. Kameralarga issiqlik registr va perfoquvurlar bilan yuboriladi. O'tkur bug' isitish zonasining boshlanishi va izotermik qizitish zonasining oxiriga beriladi. Isituvchi sifatida issiq havodan foydalanilganda issiq havo isitish zonasining o'rtasidan so'rib olinadi va venilyator yordamida isitish zonasining boshi va oxiriga jo'natiladi. Kaloriferlar bilan havo  $110-155^{\circ}\text{S}$  gacha qizdiriladi. Tunnel kameralarining asosiy kamchiliklari uning chetidan issiqlarning ko'p yo'qolishidir. Issiq bug' havoli aralashmaning tsexga kirishi va sovuq havoni tortish uchun kameraga havoli to'siqlar o'rnatiladi.



rasm. Uzluksiz ishlaydigan vertikal kamera

1 - kamera to'sig'i; 2- poddonga qo'yilgan buyum; 3-bug' yetkazib beruvchi perfoquvur; 4-etkazib beruvchi aravacha; 5-ko'targich stol



7-rasm. Vertikal kamerali tashqi devor panellari tayyorlovchi konveyer texnologik liniya chizmasi

1 -qoliplarni tozalash va moylash joyi; 2-keramik plita yotqizish; 3-armatura o'rnatish; 4-beton yotqizish va zichlash; 5-tekislash joyi; 6-o'zi yuradigan arava; 7-vertikal kamera; 8-buyum solingan qolip; 9-gidroko'targich; 10-uzatgich arava; 11-opalubkadan tushirish; 12-g'ildirakli konveyer

Tirqishli kamera tunnelli kameraning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ularning balandligi enidan 4-6 marta kichik bo'ladi. Bunday kameralarning afzal tomoni, ularning chetidan issiqlik kam yo'qoladi. Tirqishli kameralarga bug' bilan ta'minlash va elektr bilan qizdirish moslalari o'rnatiladi. So'ngi usul asosan keramzit beton buyumlar uchun ishlatiladi.

Nazorat savollar:

- 1.Tunelli kameralar.
- 2.Tunelli kameralarning boshqa kameralardan farqi.
3. Kameradagi isitish jihozlari harorati.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.

2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.
3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunaları. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

### **5-mavzu: Uzluksiz ravishda ishlaydigan issiqlik va vertikal kameralarda betonning qotish jarayonini tezlashtirish.**

#### **Reja:**

1. Vertikal kameralarda betonning qotish jarayonini tezlashtirish.
2. Vertikal kameralarni tuzilishi

Vertikal yoki minorasimon kameralarda vagonetka- qoliplarga solingan buyum oldin turli isitish zonalaridan yuqoriga ko'tariladi va so'ng pastga tushirilib kameradan tashqariga chiqariladi. Vertikal kameralarda issiqning turli balandlikda tabiiy turlicha tarqalishidan foydalilaniladi. Bug' bir maromda bo'ladiqan kameraning eng yuqori qismida harorat  $100^{\circ}\text{S}$  da ushlab turiladi. Kameraning pastki qismida bug' havoli aralashma bo'lib harorat  $30-35^{\circ}\text{S}$  dan oshmaydi. Ko'p qavatli tunnelli kameralarga nisbatan vertikal kameralarning afzalligi – ularning hajmi 5-6 marta kam bo'ladi va kam joy egallaydi. Ularning o'ziga xos xususiyati, boshqa kameralarga nisbatan bug' sarfi kam bo'ladi ( $100-120 \text{ kg/m}^3$ ).

#### **Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

- Xar kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, xurmat bildirishi kerak.
- Xar kim faol, berilgan topshiriqga ma'suliyat bilan qaragan xolda ishlashi kerak.
- Xar kim zarur xolda yordam so'rashi lozim
- Xar kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.
- Xar kim gurux ishi natijasini baxolashda ishtirok etishi shart.

#### **Kichik guruxlar uchun topshiriqlar:**

##### **1-gurux uchun topshiriq**

Vertikal kameralar tuzilishi

##### **2-gurux uchun topshiriq**

Vertikal kameralarda issiqning balandligi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maxmudova N.A., Yunusov J.Ya. Uchebnoe posobie. Teplotexnika i teplotexnicheskie oborudovanie. TASI. Tashkent 2005.
2. [Peregudov V. V.](#) «Teplotexnika i teplotexnicheskoe oborudovanie» M.:[Stroyizdat](#), 1990.

3. Maxmudova N. A. Issiklik texnikasi va issiklik texnikasi uskunalarini. Ukuv kullanma TAKI. Toshkent 2012.

### **6-mavzu: Kasseta usulini hisoblash**

Kasseta uskunasi. Kasseta uskunalarining o'lchamlari konkret buyumning o'lchamlari va ular sonidan kelib chiqib aniqlanadi.

Kasseta uskunalarida ishchi otseklari soni ichki devor panellari va ora yopma panellari ishlab chiqarishda 10–14, tashqi devor panellari ishlab chiqarishda 4 – 6.

Ichki devor panellari va ora yopma panellari ishlab chiqarishda issiqlik otseklari har 2 ta buyumdan so'ng joylashtiriladi, tashqi devor panellari ishlab chiqarishda esa har bitta buyumdan so'ng joylashtiriladi.

Kasseta devori va ajratuvchi shitlari turli konstruksiyalardan iborat bo'ladi, lekin eng asosiysi qalinligi – 24mm li listli po'latdan bajariladi. Parlash otseklarining qalinligi – o'rtacha 100mm ni tashkil etadi.

Kasseta uskunalarining asosiy tafsifi jadvalda (eslatma-4) keltirilgan.

Kasseta uskunasining foydali hajmi -  $V_n$ buyumning hajmiga teng,  $m^3$ .

Hajm bo'yicha kassetalardan foydalanish koeffitsienti –  $K_v$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$K_v = V_n / V_n$$

bu yerda,  $V$  - ishchi otseklarining hajm yig'indisi.

Loyixalash normasiga ko'ra

$$K_v \geq 0,85.$$

Uskunaning texnologik xisobi

a) uskuna mahsuldorligi

Uskunaning mahsuldorligi uning ishlash tsikli va ish qaytarilishining davomiyligi bilan aniqlanadi.

Uskunaning ishlash tsiklining davomiyligi –  $T_{ts}$  quyidagi formuladan topiladi:

$$T_{ts} = \tau_3 + \tau_{n,v} + \tau_n + \tau_i + \tau_o + \tau_v$$

